

Akrom MALIK

JANGCHI



Tarixiy-badiiy qissa

Birinchi bob

Uy sohibining kasali zo'raydi. Yo'talganda o'pkasi uzilay deydi. Balg'am qonga aylanganda beka ahvolning og'irligini aniqroq his etdi. To'qqiz yashar o'g'li kasal otaning atrofida zir yuguradi. Kir latta bilan og'izdan otilgan qon tekkan lab va soqolni artadi.

Quyosh kuydiradi. Sahro shamoli shahar bo'ylab qaynoq qumni kunda bir bor elaydi.

Ona hovlining o'rtasiga tiz cho'kib qo'lini ko'tarib o'z xudosiga yolvoradi:

- Ey quyosh! Ey olamning nuri! Ey hayotbaxsh iloh! Cho'lni qaqratgan sensan, vodiyni yashnatgan sensan! Mening kambag'al erimga yovuz xudolar hujum qildi. U qon tuflab, yo'talyapti. O'zing xizmatkorlaringga ayt, erimni tuzatishsin!

Quyosh esa qorayib, yuzlari so'lgan, ozg'in va quvvatsiz ayolning duolarini ijobat qilish u yoqda tursin, eshitmagandek yoki ensasi qotgandek nurini yanada qaynatib sepadi. Ayolning a'zoi badaniga alangali sel yog'adi. U esa erim o'lsa, qanday yashayman der, ko'proq to'qqiz yashar o'g'ilchasining qismatidan dahshatga tushardi. Shunga birdan erini unutib, o'g'li haqida nola qilib ketdi:

- Ey quyosh! Fir'avnning otasi! Erim o'lsa, bolamni qanday boqaman? Meni kim xotinlikka olardi? Cho'ri bo'lamanmi? Bolam qulga aylanadimi?..

Ayol kuyib yig'ladi. Quyosh esa biror marhamat ko'rsatgani unchalik shoshilmayotgandek edi.

Bola onasiga qarab, uning oftob nurida halok bo'lishini idrok etdi.

- Ona, yuring, yuring. Quyoshda o'tirmang! Otamga qarang...

Ona iltijodan to'xtab, nursiz ko'zlari ila bolasiga nazar soldi: bola ozg'in, tillarang sochi yelkasiga o'sib tushgan, bo'z ko'ylagi tizzasiga tushgan, yog'och kavush tovonchalarini yorgan, ammo yuzi toza edi.

- Ona, quyosh sizni eshitmayapti. Necha kundan beri undan so'rayapsiz. Qarang, qorayib ketdingiz. Otam qimirlamay qoldi.

Ayol shoshib erining boshiga bordi. Bemor nafas olmayotgandek jim yotar, ammo peshonasini danakdek ter bosgan, soqoli og'zidan oqqan qon bilan bo'yalgandi.

Ayol ko'zaga latta tiqib, namladi, erining manglayiga bosdi.

Gapirishga holi yo'qdek yoki gapiraverib hafsalasi pir bo'lgandek bu ishni jim, sassiz bajarardi. Bola esa katta ko'k ko'zlarini dam otasiga, dam onasiga qadab, so'radi:

- Ona, otamni kim qutqaradi? Quyosh xudo bo'lsa ham, biz bilan ishi yo'q. Biror yaxshiroq xudodan so'rash kerakmikan deyman...

Ona o'g'ilchasiga ma'yus ko'zlarini tikdi, nazarida, bu gapni aytishga bola hali bolalik qilardi, biroq esini taniganidan beri oilasini qora hayotda ko'rayotgan go'dakdan, albatta, shunday gap chiqishi tabiiy edi. Chunki boshga kelayotgan mashaqqatlardan qutqaradigan hamma kuchlar ularni har safar umidsiz qoldirgan. Bu holda, bola fikri ham na quyosh, na oy, samo, na chaqmoq, na biror but ularga yordam bera olmasligini tushunib bo'lgandi.

- Bolajonim, boshqa kimdan ko'mak so'raymiz? Bizga kim yordam beradi?..

Bola jim bo'lib qoldi.

Tashqaridan otning kishnagani, kimningdir bo'ralab bo'kirgani eshitildi. Ona qo'rquvdan sapchib turib, ayvonga otildi. Bola ham ergashdi.

Eshik vazifasini o'tayotgan butalar boylami yerda yotar, bel bo'yi ko'tarilgan devorning bir necha qadami yerga qulagan, hovlida esa ularning

xo'jayini bo'lmish Saqif G'obaning ikki navkari otda turardi. Navkarlarning vajohati xunuk edi.

- Ashia, ering qani?

Ashia rangi dokadek oqarib egildi:

- Janobim, erim kasal...

- Kasal?! Nega hali tuzalmadi? Nega?

- Kasali og'ir, janobim. Qon tuflayapti.

- Qon tuflayapti? - katta navkar so'kindi. - Odam bo'lmaydi, shekilli, bor, olib chiq!

Ashia yig'ladi:

- Janobim, erim o'rnidan turolmaydi...

- O'rnidan turolmaydi? Sen sudrab chiq!

Yosh navkar otdan sakrab tushib, kulbaga kirdi. Orqasidan Ashia yugurdi:

- Ulug' Amon haqi, ulug' Ra hurmati, rahm qiling! Erim o'lib qoladi!

Katta navkarning qahri qaynadi:

- Muqaddas Amon va Raning nomini harom tilingga olma! Sening ajdodlaring Muso va Horunga ergashib, ularni rad qilishgan! Senlar Muso va Horunning xudosiga topingansanlar!

Ashia yerga yiqilib izilladi:

- Janobim, biz tavba qilganmiz! Tavba qilganmiz! Amon, Raga qaytganmiz!

- Jang qilib yurtlaringni bosib olganimizdan keyinmi? Aldayapsan!

Yosh navkar uy egasini yoqasidan sudrab chiqdi. Kasalning yo'talishga ham holi qolmay, og'zidan qoramtir qon sizardi, navkar uni tuproqqa belab yerga otdi.

Ashia erining boshini quchoqlab o'krash aralash nola qildi:

- Janobim, podshohimiz Jolut bizni afv etdilar-ku! Sizlar asir emassizlar, qul emassizlar, dedilar-ku! Nega bizni bu qadar azoblaysiz!

Katta navkar jirkanib vishilladi:

- Podshohimiz Jolut marhamatli, biroq biz bunga rozi emasmiz. Senlar kabilarni yashashga qo'yib berganimizga rahmat de! Qani Muso, qani Horun! Senlar Yahudo bolalari aytganini qilib yurardinglar-ku!

Ashia boshqa so'z aytmay erining boshini quchoqlab faqat yig'lardi. Bola esa qotib turardi.

Katta navkar oti bilan er-xotinning boshiga keldi:

- Ey Ashia, qoch!

- Nega, janobim?

- Savol beryapsanmi? - katta navkar quturib, sherigiga buyurdi. - Bolani ol!

Yosh navkar bolaga qarab yurdi. Ashia dodlab, erini tashladi va o'g'ilchasiga otildi. Katta navkar uy egasini otda o'tirgan ko'yi nayzasining uchi bilan turtib ko'rdi.

Bemor ingrangandek bo'ldi. Katta navkar nayzasini dast ko'tarib, bemorning yuragiga sanchdi: nayza uning ko'kragini teshib o'tib, yerga sanchildi, qotil bir zarb bilan nayzasini sug'urib oldi. Qora qon avval buloqdek otildi, keyin jilg'adek yoyilib oqib yerni qoplab, ko'lmakka aylandi. Uy egasi yuzi, soch-soqoli qonga bulanib, ikki marta qimirladi va jim bo'ldi.

Ashia bolasining mahkam quchib muzladi. Bolaning nafasi qaytib ketdi.

- Ona, ona, otam... - dediyu, hushidan ketdi.

- Bir haftadan beri kasal! Foydasi tegmaydigan it bizga kerakmas! Ey beva! Eringni tez ko'mib, erta tongda bolang bilan ishingga yetib bor! Yo'qsa, bolang ham, sen ham o'lasan!

Ashia uning biror gapini idrok etmas, vahshiyona tovush elas-elas qulog'iga chalinar, u o'g'ilchamga nayza sanchilmasin der edi, holos.

...Yarim soatlarda Ashia hushiga keldi. O'g'ilchasi otasining boshida o'tirardi. Qo'shnilar hamma voqeani ko'rdilar, ammo hech kim bu la'natlangan hovliga kirishga jur'at etmadi.

Ashia bir nafas o'yladi. Qo'qqis ruhida bir jasorat paydo bo'lgandek. Dam tafti pasayib borayotgan quyoshga, dam qon halqobi ichida yotgan erining murdasiga, murdaning yuzini silayotgan bolasiga boqdi-da, qayerdandir quvvat kelib, dast o'rnidan turdi:

- Roqib, o'g'lim, menga yordam ber!

Roqib onasiga qarab, undagi dadillikni sezgandek itoatkorlik bilan uning oldiga keldi.

Ona-bola eshikni ko'tarib, mayyitning oldiga qo'yishdi, birgalashib murdani eshik ustiga dumalatib chiqarishdi. Ashia erining kiyimlarini yechdi, avratini to'rt qavat latta bilan yopdi, erining chap ko'ksi chuqur ochilib, tagi ko'rinardi.

Katta xumni keltirib, ona-bola yog'och cho'michda jasad ustidan avval bir sidirg'a suv quyib chiqishdi, so'ng Ashia o'likni boshidan yuvishga kirishdi. Roqib suv quyib turdi. Murdani poklaganlaridan so'ng, hovlining o'rtasini kavlashni boshladilar.

Quyosh botdi. Oy chiqdi. Ashia shoshib ishlar, Roqib esa ko'zi yumilib, uxlagisi kelardi. Ertalabdan buyon tuz totmagan bo'lsalar-da, ishtahalari taom istamasdi.

...Roqib uyg'onganida onasi otasini o'zi kavlagan chuqurga qiynalib sudrardi. Tun yarmiga oqkan, chigirtka chirillar, oy dum-dumaloq bo'lib, qizarib qarab turardi.

Roqib tez borib, onasiga ko'maklashdi. Ayol ancha chuqur qabr qazgan edi. Murdani sekin tushirish imkonsiz edi, shuning uchun o'likni chuqurga tashlashdi. Jasad yuzi bilan tushdi. Ashia qabrga kirdi va erining yuzini tepaga qaratdi va unga gapirdi:

- Ey mening bechora erim! Biz Musoning yo'lidan jon saqlash uchun voz kechgandik. Ammo xorlandik. Muso bizning ajdodlarimizni fir'avndan qutqargan edi, u bizga o'zimizni himoya qilishni o'rgatgan edi, koinot birgina Iloh yaratgan degan edi, biz esa yashab qolamiz deb undan yuz o'girdik, yashab qoldik, lekin tahqirlandik. Sizni itdek o'ldirishdi. Ey mening sho'rlik erim! Musoning gaplari haq ekan, buni bugun bildim.

Ashia qabrdan chiqda va uni tuproq bilan to'ldirishga kirishdi. U qabrga tuproq tashlarkan, gapirardi:

- Ey mening jangda sharaf-la o'lmagan erim! Sizing otangiz ham, mening otam ham Yahudo qavmining aslzodalari edi. Bizni esa dushmanlar xorladi. Dushmanlar emas, biz o'zimizni xorladik. Roqib, bolam, otangni ko'm!

Roqib ham tuproq tashlay boshladi.

- Roqib, o'g'lim, senga asl haqiqatni aytaman, - Ashia ham ishlar, ham so'zlardi. - Sen bizga yordam beradigan boshqa xudo yo'qmi, deb bugun so'raganding, bolam. Shunday Xudo bor. Uni bizga Muso degan bir payg'ambar tanitgan edi. Biz Musoga ergashib, o'sha yakka Xudoga sig'inardik. Ajdodlarimiz sig'inardi. Muso esa Xudoning gaplarini bizga yetkazib turardi.

Muso Xudoning bir Kitobini ham olib keldi, ajdodlarimiz ko'p osiylik qilishdi, ammo Xudo ham, Muso ham kechirdi. Musoning davrida bizning bobokalonlarimiz qavmning aslzodasi edilar. Muso ajdodlarimizni urushga chorladi, goh uni rad qilishdi, goh qabul qilishdi. Qabul qilishganida shu

shaharni egallashdi, biz shu yerda yashab qoldik. Ammo Muso, uning ukasi Horun ham olamdan o'tgach, ajdodlarimiz bu yo'lga teskari yurishdi. Xudoning Kitobida aytilgan ishlarni bajarishmadi, Xudo bizni jazolab, Balsiso qavmining zolim podshohi Jolutni ustimizga yubordi. Jolut bizni oson yengdi. Biz aslzoda edik, otamni o'ldirishdi, sening otang va meni tirik qoldirishdi, chunki, biz Musoning yo'lidan chiqib, quyoshga sig'inishni boshladik.

Biroq Jolut bizni avval Muso yo'lida bo'lganimizni unutmagan, agar Musoning yo'lga qaytsak, qudratga kelishimizni biladi, shuning uchun tinimsiz bizni ezib kelyapti. Roqib, bolam, otangni xorlab o'ldirishdi, biz Jolutning Saqif G'oba degan sarkardasining qo'lida o'n yil qul bo'ldik, endi bunday bo'lmaydi, qochamiz!

Ona-bola qabrni ko'mib bo'lishdi. Roqib onasining gaplaridan karaxt edi. U tinmay shivirlayotgan onasini taniy olmayotgandi.

- Roqib, eryigit bo'l. Madyandan narigi tomonlarda Yuvsha degan kishi Musoning yo'lga odamlarni chaqirayotgan ekan, uning oldiga boramiz.

- Qachon, ona?

- Hozir ketamiz.

Ashia kulbasidan ixcham tuguncha ko'tarib chiqdi va o'g'lini yetaklab, sahro tomonga yugurdi...

Tongga yaqin ular sahroga kira boshlashdi. Shahar tugab, qaqroq dasht keldi. Ashia kunbotardan chapga qarab yurardi. Endi uning madori qurib borar, oyoqlari chalishib, yiqilay-yiqilay der, Roqibga suyanib qolardi.

Orqadan otlar dupuri eshitildi. Ularning qochgani fosh bo'lgani aniq.

Sanoqli lahzalarda otliqlar yetib keldi. Eng oldindagi otliq ularni quvib o'tib, qo'lidagi qamchini ayamay ularga qarab sermadi. Qamchi Ashianing yuziga tegib, iz qoldirdi, burni qonadi, ayol hushdan ketdi. Roqib onasini himoya

qilish uchun o'zini keyingi qamchiga tutdi. Bola ham zarbdan o'zini yo'qotdi. Otliqlar ularni bir kishidan olib, egarga bosib, shaharga qaytdilar.

Ikkinchi bob

...Roqib ko'zini ochib, yelkasidagi achchiq og'riqni his etdi. Boshini ko'tardi. Ular shaharning mahkama maydonida edilar.

Atrofdan odamlar sekin ko'payib borardi. Xizmatkorlar maydonning yuqori qismiga o'rindiqlar hozirlashmoqda. Bu yerda ona-bolani sud qilishadi.

Roqib hushsiz yotgan onasining yelkasidan ohista turtildi:

- Ona, turaqoling, ona...

Ashia ko'zini ochdi va seskanib sapchidi. A'zoi vujudi qaqshardi. Quyosh tikkalab kelmoqda. Ayolning oyog'i kishanband etilgandi. Qamchi zarbidan bir-ikki joyidan qon sizgan, yuzi shishgan, chap ko'zi butkul bekiilib qolgandi. Ashia bolasini quchoqladi:

- Roqib, sog'misan, bolam?

- Ona, yuzingiz shishibdi...

- Roqib, eshit, bolam, aqlli bolam, o'zimning jasur o'g'lim! - Ashia o'g'lining qulog'iga shoshib shivirlay boshladi. - Bizni sudlashadi. Sen qo'rqma. Sen hech narsani bilmaysan. Sen jim tur. Qanday hukm chiqaradilar, bilmayman, ammo sen Musoning yo'lini izla, bolam. Muso Ahmad degan payg'ambar butun insoniyatni qutqaradi, u kofirlarni o'ldiradi, zolimlarning dodini berib, mazlumga najot bo'ladi, degan. Sen Ahmad degan payg'ambarni eshitsang, ikkilanmay unga ergash, xo'pmi? Ilohiy xushxabardagi odam shu bo'ladi. Naslimizning yagona vakilisan, sen o'lmasliging kerak. Shaytonga aldangan sulolamizni yana sharaflantirishing kerak!

- Qochoqlar hushiga keldi!

Ikki navkar yugurib kelib, ona-bolani maydon o'rtasidagi ustunga bog'ladi.

Maydon odamga to'ldi. Hamma ona-bolaning taqdiriga qiziqayotgan edi.

- Bular murtdad. Jolutning dinidan Musoga qaytgan!
- Shahardan qochishga qanday jur'at etishdi!
- Ahmoq xotin! O'zingni o'ylamasang ham, bolangni o'ylasang bo'lardi-ku!
- Itning bolasi it bo'ladi, og'ayni. Bolani qara, halidan bo'zrayib turibdi.
- To'g'ri aytasizlar. Aynigan nasldan xayr chiqmaydi.
- Bularni toshbo'ron qilish kerak!
- Osish kerak!
- Boshini chopaylik!
- Megajin! Itvachcha!
- Qochoqlar! Bizga xiyonat qilib qochibsanlar!

Olomon o'z gapidan o'zi ta'sirlanib, qutura boshladi. Asirlar bilan ularning orasida yog'och to'siq bo'lmasa, ona-bolani burdalashga tayyor odamlar ham topilardi.

Shu payt nog'ora chalindi, ortidan kimdir baland ovozda baqira boshladi:

- Ey insonlar! Yer yuzidagi eng adolatli podshoh Jolutning shahrimizdagi mutlaq vakili, hokimi oliyimiz Saqif G'oba janoblari kelmoqda! U kishining yonida Osmon va Yerdagi uch yuz oltmishta xudoning maslahatchisi, buyuk donishmand, pushtipanohimiz kohin Avreliy Astinos hazratlari!

Bu gaplardan keyin nog'oralar yanada bayramona gumburladi, Saqif G'oba va kohin Astinos savlat to'kib otda maydonga kirib keldilar. Olomon junbushga tushib, uvulladi. Odamlar Saqif G'obadek buyuk sarkardani, uch oltmishta xudoning maslahatchisi Astinosni bevosita ko'rayotganlaridan shaytonlab qolayozdi.

Kimdir sakrar, kimdir qo'lini ko'tarar, hamma og'zidan tupuk sachratib baqiradi:

- O buyuk G'oba!
- O ilohiy Astinos!
- Men ham ko'ray, menga ko'rinmayapti...
- Etaklarini o'pa olsaydik...
- Etiklarining izi ham muqaddas!

Olomon ichidan bir-ikki kampir chirqirardi:

- Ey muqaddas Astinos, xudolarga ayting, qizimga o'g'il bersin!
- O'g'limga boylik!
- Menga chiroyli xotin!
- Menga hashamatli saroy!

Shovqin og'ushida G'oba va Astinos o'zlari uchun hozirlangan taxtga borib o'tirishdi.

G'obaning bosh amaldori Tasmin qo'lini ko'tarib hayqirdi:

- Jim bo'l, xaloyiq! Jim bo'l!

Bir zumda hamma tinchlandi. Maydonga sukut cho'kdi.

- Ulug' hokim G'oba hamda xudolar maslahatchisini sharaflashingiz juda oliyjanob ish! Biroq oranglarda kimlardir o'z iltijolarini yo'llayapti. Bu ham juda to'g'ri. Ammo...

Tasmin "ammo" dediyu, ovoziga sirli, hokimona tus berdi:

- Bugun maydonga xiyonatkorlarni jazolamoq uchun yig'ildik. Adolat gullab yashnagan, xudolarning bevosita himoyasida bo'lgan, hamma shod-xurram yashayotgan jannatmakon shahrimizdan qochishga jur'at qilgan xoinlar oilasini jazolashimiz shart! Sizlar esa xudolar maslahatchisi ilohiy Astinosni o'z istaklaringiz ila bezovta qilmoqdasiz. Istaklarni so'ramoq uchun

muqaddas ibodatxona hadyalarinigiz ila boring. Hadyalarinigiz xudolarga ma'qul kelsa, Astinos hazratlari tilagingizni ularga yetkazadi. Tilagingizni ijobat qiladimi, yo'qmi, keyin bu ish ham xudolarning ixtiyorida qoladi. Meni tushundingizmi?

Olomon guvilladi:

- Ha, tushundik!

Tasmin ishini tugatib, joyiga qaytdi. G'oba qo'lidagi hokimlik hassasini ko'tarib, o'tirgan joyida gap boshladi:

- Bizning shahrimiz buyuk shahar! Bu yerda ham baxtiyor! Xudolar ham biz bilan. Kohin Astinosning yordami bilan shaxsan o'zim yetmish beshta xudoni saroyimda qabul qilganman. Ularning hammasi shahrimizni qo'riqlashga va'da berdi. Bu ona-bola esa katta xiyonat qildilar! Ular yarim kechasi qochib ketishdi. Ammo xudolardan xabar keldi. Navkarlarimiz tutdilar. Endi ularni adolatli sud qilamiz. Qilmishlariga javob berib, munosib jazo olishsin!

G'oba Ashiaga ko'zlarini qisib qaradi:

- Ey jinoyatchi xotin! Kimsan, nasabing qanday, o'zingni oliy hukm beruvchilarga tanit!

- Men Ashia, otam payg'ambar Yoqub qavmidan Aslam, bobom shu shaharning hokimi Muassardir.

Ayolning ovozi chaqmoqday yangradi, olomondagi g'azab so'ngandek bo'ldi, hatto hokim Saqif G'obaning hukmron savoli bu javob qarshisida suv cho'kkan toshdek cho'kdi. Hamma kishandagi ayol hukmdorlar oilasiga mansubligini anglab yetdi. Ashiadagi shiddat aynan malikalarga xos edi. Roqib esa bu haqiqatni endi eshitgani uchun onasiga hayratlanib qaradi.

G'oba zudlik bilan vaziyatni qo'lga oldi:

- Hokimiyat bobong Muassardan so'ng qo'llaringdan ketdi, nega?
Bilasanmi?

Ashia bu savolni kutgan edi:

- Ichimizdan chiqqan xoinlar sababli bobom Muassarni dushmanlar
mag'lub etdi...

G'oba ayolning so'zini bo'ldi:

- Muassar zaif edi. U qudrat neligini bilmasdi! Zaifligi uchun yengildi.

Ashia jim bo'ldi. G'oba ayoldan biror e'tiroz bo'lmagach, yana davom etdi:

- Bobong buyuk podshoh Jolutning diniga o'tdi, quyoshga topindi,
Musoning yo'lidan chiqdi. Bu uning umridagi yagona to'g'ri ishi edi.

Ashia bir nuqtaga tikilgan ko'yi hamon jim edi.

- Sen esa murtad bo'lding. Bizning adolatdan qochding! Shahardan
qochgan xoindir, xoinga esa o'lim!

Olomon shuni kutib turgandek chuvilladi:

- Xoinga o'lim! O'lim! O'lim!

Ashia hokimga shunday qaradiki, G'oba nigohi uning nigohiga tushganda
ichi titrab ketganini sezdi. Ashianing ko'zlarida Muassar ko'ringandek
bo'ldi.

Muassar G'obaga: "Ey cho'rining bolasi! Meni sen sotding!" - degandek
bo'ldi.

Ashia hokimga qarab hayqirdi:

- Qadim qonunni unutdingmi, G'oba!

Ayolning ovozi g'ayritabiiy bir qahr bilan yangrab, olomonning shovqinini
kesib, ko'pchilikning qulog'ig yetdi. Odamlarning shovuri pasaya boshladi.

G'obaning o'rniga Astonis so'radi:

- Ey jinoyatchi xotin, qanday qonunni aytaysan?

- Ey kohin, qadimga qonunda hokim va uning avlodi qatl etilmasin deyilgan. Unutdinglarmi?

Ashia haq edi. U eski qonunni eslatdi. Buni hech kim inkor etolmasdi. G'oba tergovni to'xtatishga, hukm berishga qaror qildi:

- Hukm!

Hammaning vujudi quloqqa aylandi.

- Hukmdorlar naslidan bo'lgan jinoyatchi beva xotin Ashia quyidagi jinoyatlarni qilgan: farovon va adolatli shahrimizdan xoinlarcha qochdi; buyuk podshoh Jolut diniga behurmatlik qilib, Musoning dinini qo'rsadi; u o'z jinoyatiga bolasini sherik qildi. Bu ishi uchun qatlg munosib bo'lsa-da, tomirida aslzoda qoni oqib turgani uchun uni tirik qoldiraman: Ashia shahar cho'chqaxonasida umrbod cho'chqa boqadi, o'g'li esa Vahshiylar zindoniga umrbod muddatga qamalsin!

G'oba hukmni tugatdiyu, o'rnidan turdi. Hamma unga ergashdi, olomon ham bir narsalarni muhokama qilib tarqala boshladi.

Ashia o'zi bog'langan ustunni yiqitgudek siltanib qichqirardi:

- Zolim! Erimni sening qotil askarlaring o'ldirdi! Hukmga rozi emasman! Bolamni qo'yib yubor!..

Ammo uning dodini eshitadigan biror odam yo'q edi.

Uchinchi bob

Bolaning oyog'i va qo'li kishanlandi. Uni bir soqchi ko'tarib ot arava ustidagi qafasga otdi.

- Ado bo'lding, bolakay! Vahshiylar zindonida bir kun ham, yo'q bir soat ham omon qolmaysan!

Arava yurdi. Roqib shahar bo'ylab ketarkan, tomi loysuvoq uylarga, pakana daraxtlarga qarardi. Uning hissiyotlari o'lgandek. U o'zini katta ishlarga qodir sezdi, biroq o'sha katta ishlar nima ekanligini bilmasdi. Holbuki, uni Yer yuzidagi eng vahshiy qamoqqa olib ketishmoqda. Arava har silkinganda tuproq, changdan kirlangan sochi yuzini to'sadi. Ozg'in yelkasi cho'kkandek ko'rinadi. Moviy ko'zlarining tubida, haqiqatan, bir qaytmas qudrat yiltillaydi.

Kun oqqanda shaharning shimoliy qanotidagi mash'um zindonga yetib bordilar. Kechki salqin tushib, shabada cho'l yantog'ining hidini olib kelayotgan edi.

Roqibning tuz totmagani hisobi bir kecha va bir kunduzdan o'tdi. Endi uning ko'z o'ngi jimirladi, madori quridi, xayoli sochildi, tovushlar, ranglar aralashib ketdi, tanasi toshday og'irlashdi, bola o'zini suvga cho'kayotgandek his etdi. Issiq allaqachon uning lablarini yorgandi. U kimdandir ko'mak o'tingisi keldi, lekin o'sha kimdirni hali bilmasdi, qalbi esa unga haqiqiy yordam beradigan qudratning borligiga guvohlik e'lon etayotgandi. Roqib hushini yo'qotdi va birdan qushday yengillashdi. Havoga ko'tarildi. Atrof yam-yashil, yorug' edi. Egnida oltin naqsh bilan ziynatlangan oppoq libos. U bunday kiyimni aslo kiymagani edi.

Roqib qayerda ekanligini idrok etib ulgurmay o'zi tomonga bir kishi kelayotganini sezdi.

Boshini shoshib ko'tardi, kokili ko'zini to'sgandi, chakkasiga surdi va ro'parasida baland bo'yli, soqol oq va uzun, keksaga o'xshab taassurot

uyg'otsa-da, juda baquvvat odamni ko'rdi. Bu odam chap qo'lida juda chiroyli uzun hassa ushlab olgandi, hassa xuddi barg chiqarishga hozir daraxt niholiga o'xshardi. Kishining o'ng qo'li marmardek oq edi, qo'l nur sochardi. Qizig'i, bularning hammasi bu Odamni yanada ko'rkam ko'rsatardi.

- Kimsiz? - dedi Roqib shoshib.

Odam unga jilmaydi.

- Roqib, - dedi u. Aftidan, u bolani juda yaxshi tanirdi. - Hech qo'rqma! Baquvvat bo'! Sira qo'rqma! O'ldiraman deyishsa, xursand bo'l, dunyoda o'lib, qayta tirilganlar ham yashab o'tishgan. Nomusingni yo'qotma, o'g'lim. Hech qo'rqma! Senga yordam beradigan Zot bor, U zinhor seni unutmaydi.

- Xo'p, ammo Siz kimsiz? Men Sizni avval ko'rmaganman!

- Meni keyinroq taniysan. Yaxshi tanib olasan.

Odam bir zumda g'oyib bo'ldi.

Ustiga quyilgan bir chelak suv bolani o'ziga keltirdi. Roqib o'zini isqirt bir yo'lakda ko'rdi. U yerda yotar, yerdan esa siydik hidi anqirdi. Tepasida basharasi chandiqa to'lgan, ko'sa va ho'kizday qo'pol bir soqchi bor edi.

- Tur, chuldirvaqi! Ado bo'lding, tur, la'nati!

Roqib o'rnidan turdi, boshining aylanishi deyarli kamaygan edi. Chandiqli ketiga zarb bilan tepdi:

- Nimani kutyapsan, yur, haromi!

Yo'lakning shifti baland, ko'rinmaydi, devorlardan xarsang tosh bo'rtib turibdi, har uch odimda mash'ala porillaydi. Har o'n besh qadamda chap yonda katta, beso'naqay eshiklar ko'rinadi. Yo'lak bo'ylab basharasini soch-soqol bosgan, bahaybat soqchilar u yoqdan bu yoqqa yuradi. Ba'zilari

yelkasiga oybolta tashlab olgan, ba'zilaring belida qilich, ba'zilari kamon bilan qurollangan.

Yo'lakning boshidanmi, oxiridanmi qandaydir itning xunuk ulishi eshitiladi. It yo uliyapti, yo huryapti. Buni farqlash mushkul edi.

Shunchaki, bu yoqimsiz tovush yo'lak bo'ylab tarqalib, ko'ngilga vahm solgisi kelardi, go'yo.

Soqchilar zindonga har kuni to'qqiz yashar mahbuslar keladigandek, Roqibga qaramasdilar ham. Chandiqli esa turtkilardi:

- Imillama, hayvon! Tezlash, la'nati!

Bola qanchalik tez yurmasin, oyog'idagi kishan ham og'irligi bilan, ham shaqirlab qadam bosishni azobga aylantirardi.

Nihoyat, ular bir temir darvoza qarshisida to'xtashdi. Chandiqbashara darvozani qattiq urdi. Biroz o'tib, darvoza ochildi. Ichkaridan sovut kiygan, mo'ylovi uzayib, ikki yelkasiga yetgan soqchi chiqib keldi:

- Ha, chandiq!

- Mahbus keldi!

Chandiq Roqibni ichkariga itarib yuborib, shart o'girilib qaytib ketdi.

Temir darvoza sharaqlab yopildi. Ichkari zax, qo'rqinchli edi, kalamushlarning hidi anqirdi. O'rtada dumaloq og'ir temir qopqoq turardi, beshta soqchi esa xonani gir aylanardi.

- Yechin!

Mo'ylovning ovozi mudhish edi. Roqib orqasiga tislandi:

-Nega?

Mo'ylov quturdi:

- Iflos, kiyimingni yech!

Roqib beixtiyor orqaga qadam bosib, keti bilan yerga o'tirib qoldi.
Soqchilardan biri dedi:

- Hey, mo'ylov, avval qo'l-oyog'ini yech, ovsar, keyin o'zi yechinadi.

Mo'ylov bu gapni aytgan soqchiga bo'zrayib qaradi-da, belidagi kalitlarning birini olib, Roqibning kishanlarini yechib bir chetga tashladi. Bola kishan o'ya boshlagan bilagini silay boshladi.

Mo'ylov buyrug'ini takrorladi:

- Yechin!

Roqib unga tik qaradi:

- Yo'q!

- Ho'v it, manaman degan kallakesar ham indamay yechinadi, sen yo'q deysanmi!

- Nega yechinaman! Yechinmayman! - Roqib qochmoqchi bo'ldi. Ammo uni boya mo'ylovga gapirgan soqchi ushlab oldi. Uning burni qiyshiq edi. U qandaydir muloyim edi.

- Bolakay, qoidasi shu, zindonga kirayotgan odam tintiladi, buning uchun kiyimlarni yechishing kerak. Yomon narsa bo'lmaydi.

- Yomon narsa zindonning ichida bo'ladi! - ko'zlarini yovuzona o'ynatdi mo'ylovli.

Roqib asta ko'ylagini yechdi. Uni burni qiyshiq soqchi tintigan bo'ldi va sheriklariga dedi:

- Zindonni ochinglar!

To'rt soqchi borib, zindon qopqog'ini ko'tardilar. Tagi ko'rinmas bir o'ra paydo bo'ldi. Bir soqchi arqondan yasalgan narvonining bir uchini tashqaridagi qoziqqa mahkamlab, ikkinchi uchini o'ra ichiga tashladi.

- Tush, - deb buyurdi mo'ylovli.

Roqibning yuragi orqaga tortdi. Ammo miyasida: "Zinhor qo'rqma, senga yordam beradigan Zot bor, U seni unutmaydi!" - degan bir nido aylangandek bo'ldi. Darhol narvonga oyoq qo'yib, zulmatning ichiga qadam bosib, shaxdam tusha boshladi. U pastlab borarkan, atrof qorong'ulashib borar, narvonning ikki chetini bazo'r topgandek mahkam changallab olgandi. Roqib qo'llarini ham bu zulmatda ko'ra olmayotgan edi. U yanada pastlab, zindon tubiga yaqinlashganini idrok etarkan, zulmatdagi narsalarni ko'ra boshladi.

Roqib zindonning qoq o'rtasiga tushdi. Oyog'ining tagi somon edi. Peshob va odam axlatining hidi sezildi. Zindonning tubi ancha keng, tekis edi. Devor va yerga olovda pishgan g'ishtlar terilgan. Yigirmaga yaqin mahbus yangi kelganga qarab o'tirardi.

Roqib ularning hammasining soch-soqoli o'sib ketganligini, egnilarida rang qoraygan, kirlangan juldur kiyimlar borligini bildi. Bir burchakda uch-to'rt, boshqa bir burchakda yana uch-to'rt mahbus to'planib o'tirib nimalarnidir muhokama qilar edilar. Ularning ichida bittasi sekin o'rnidan turdi. Uning basharasi cho'zinchoq, soqoli uchburchak o'sgan, boshi esa kal, o'ng ko'zi o'yib olingan edi. Ovozi hirqirab manfur bir ohangda yangrardi:

- Mahbuslar! Kelishuv o'sha: bu mening ko'ngilxushim bo'ladi!

Hech kim e'tiroz etmadi, hamma bir narsani kutar edi.

- Shabko'r!

Roqib ortiga qaradi. Bir o'zi o'tirgan mahbus o'rnidan turdi. - Shabko'r! - uning ovozi keskin yangradi. - Bas qil! Bu bola!

Shabko'r o'ziga gapirayotgan mahbusga qarab iljaydi:

- Ey Musoning tobesi! Zindonda bola bo'lmaydi. Zindonda hamma mahbus!

U shunday dediyu, Roqibning yelkasiga qo'lini qo'yib, bosh barmog'ini uning bo'yniga botirib, qiynay boshladi:

- Kimsan, mahbus?

- Qo'lingni ol!

Roqib siltanib Shabko'rning qo'lidan chiqdi.

- Qoyil! Bu ipirisqi juda jasur chiqdi-ku!

Shabko'r Roqibni yiqitishga harakat qildi, Roqib butun vujudini titroq bosganini his qildi. Ko'zini parda qoplagandek bo'ldi. Roqib sakrab Shabko'rning bo'yniga osildi. Bu hujumni kutmagan Shabko'r munkib orqaga yiqildi. Bolaning hujumidan quturgan Shabko'r yotgan joyida raqibini belidan ushlab mahkam siqdi.

Roqibning qovurg'alari qisirladi, nafasi qaytdi, jon-jahdi bilan Shabko'rning bo'g'zini tishladi. Tishladiyu, Shabko'rning kekirdagini tishlari bilan qisqichday qisdi. Mahbus qo'li bilan yerni ikki marta urdiyu, o'zini himoya qilishga ham madori yetmay tipirchiladi. Tipirchilash ham ko'z yumib ochguncha ro'y berdi. Bu holni kutmagan mahbuslarning hammasi o'rnidan turib ketdi. Roqibni himoya qilgan qariya mahbus toshday qotib qolgan bolani Shabko'rning ustidan olish uchun uning yelkasidan ushladi:

- Hoy bola! Bo'ldi, tur!

Roqib javob bermagach, uni dast ko'tarib tortdi. Bolaning og'zi qon, Shabko'rning bo'g'zidan ham jilg'adek qon oqardi.

Roqib turdiyu, o'qchidi, og'zidan barmoqday keladigan et otilib chiqdi. Bu Shabko'rning u tishlab uzib olgan kekirdagi edi. Qariya mahkum Roqibni yetaklab o'zi o'tirgan joyga olib bordi.

Chirigan somonlarni to'plab, qalinroq o'rin hozirlagan ekan, Roqibni o'tqazdi.

Bo'g'zi ingichka ko'zasidan suv quyib, yangini yuzini yuvdi.

Mahbuslar Shabko'ning jasadiga bir necha lahza qarab turishdi-da, devorni tepa boshlashdi. Biroz o'tib, zindoning og'zi ochildi:

- Nima?

- O'lik bor!

Tepadan avval bitta qop kelib tushdi, mahbuslar Shabko'ning murdasini qopga tiqishdi, bu orada arqon ham tushdi. Arqonga qopni mahkamlab boyladilar, qop asta tepaga ko'tarildi.

Yuzini yuvgach, Roqib sal tetiklashgandek bo'ldi. Qariya so'radi:

- Oting nima, yigit?

- Roqib.

Qariya o'rnidan turib, mahbuslarga qaradi. Hamma u nimadir demoqchiligini tushundi.

- Bu yigitning oti Roqib. Shu jussasi bilan Shabko'rni o'ldirdi, u endi bedaxl! Agar kim unga yana hujum qilsa, aniqki, mening qo'limda o'ladi!

Hech kim e'tiroz bildirmadi. Zotan, ularga bosh bo'lib turgan buzuqi Shabko'r o'ldi, Musoning tobesi chol bo'lsa-da, uning jangchi ekanligini hamma biladi,

yangi mahbus bola ko'ringani bilan, ozg'in tuyulgan bilan hech narsadan qaytmasligini, odam ham o'ldirishini isbotlab ulgurdi.

Roqib esa nafasini rostlab, nima sodir bo'lganini eslashga tirishardi, qorni esa behad och edi. Qariya buni sezgandek dedi:

- Roqib, birozdan keyin kechga yemak tarqatishadi.

To'rtinchi bob

Qariya gapini tugatmasidan zindon qopqog'i ko'tarildi va tepadan arqonga bog'lab osilgan savat tushib keldi. Roqib o'rnidan turib, devorga suyandi.

Savat yerga tushdi. Ichida arpaning kepagidan yopilgan chaqaloqning mushtidan biroz kattaroq qop-qora kulchalar bor edi. Mahbuslar o'z ulushlarini ola boshlashdi. Qariya ham o'zi va Roqib uchun ikki dona kulcha oldi. O'zining sopol yapaloq kosasiga ko'zasidan suv quyib, kulchalarni suvga tashladi.

Mahbuslardan biri uzun, og'zi ingichka yog'och chelakni ikkinchi marta tushgan arqonga bog'ladi. Roqib bu nima, degandek Qariyaga qaradi.

- Najosatimiz, - dedi Qariya xotirjam. - Har kuni bir marta tepaga chiqarib yuboramiz.

Suvdagi arpa noni ham ividi. Qariya suvni ichdi va yarmini qoldirib, Roqibga uzatdi:

- Ich, nonning ta'mi bor.

Roqib suvni ichib, haqiqatan, unda yoqimli ta'm borligini bildi.

O'ziga berilgan kulchani yeb bo'lgach, Roqib yerga holsiz cho'zildi. U o'zining kechagi holiga begona edi. Yoxud bolalik uning uchun moziyga aylandi, u, ayni mahal, bolalik uchun yot odam edi. Ichiga bir bahaybat odam kirib oldi, go'yo. Bu odam to'qqiz yasharlik jismga sig'mayotgandek edi.

Ko'ksini nayza teshgan otasi, devday vajohat bilan qabr kavlayotgan onasi, hokim Saqif G'oba, uning vaziri Tasmin, kohin Astinos, es-hush yoki umuman, aql va insoniylikni yo'qotgan olomon, tushida ko'ringan hassali, qo'li oq, baquvvat odam, zindon va tishlab uzib olgani kekirdak ta'mi xayolida quyunday aylandi. Ko'zi yumildiyu, darhol uxlab qoldi.

Uxladiyu, yana tush ko'ra boshladi. U bir matoning ustida o'tirib, boshini yerga qo'ydi. Boshini yerga qo'ydiyu, o'zini qushday sezdi. Qarshisida anglab bo'lmas bir Quدرات turar edi. Bu Quدرات Roqibga cheksiz salimiyat, qandaydir xotirjamlik ato etdi, biroq bu xotirjamlikning mohiyatini u ko'ra olmadi. U o'z tepasidagi bu Jaloliatni ko'zlari ila ko'rishni istasa-da, ta'rifsiz hadik bunga yo'l qo'ymadi. Negadir, ko'ngli to'ldiyu, yig'lay boshladi...

Roqib uyg'ondi. O'ngida ham ko'zidan yosh oqardi. Zindondagi zulmat o'sha-o'sha edi. Kimdir xirillab, kimdir pishillab hurrak otardi. Bir burchakda bir mahbus tizzasini quchoqlab nimanidir o'ylaydi.

Qariya esa peshonasini yerga qadagan. Roqib sapchib ketdi: u tushida ana shunday holda edi-ku!

Roqib bu bir ibodat ekanligini angladi. Shunchaki, Qariyaning kimga ibodat qilayotgani sirli edi. Roqib tushida kimga ibodat qilgan bo'lsa, Qariya ham o'sha Zotga sig'inayotgani shubhasiz edi.

Buni hoziroq so'rashni istadi, ammo qandaydir kuch, balki jismidagi charchoq kuchi uni yana uyquga tortdi.

...Kimdir uni ohista turtganini sezib, Roqib tezda uyg'ondi. Zindon tuynugidan Mo'ylovli baqirardi:

- Yangi kelgan! Hey churvaqa! Chiq! Tez chiq!

- Seni chaqirishyati, chiqaqol, - dedi Qariya. O'rtada arqon narvon osilib turardi. Roqib tezda narvon tomon yurdi. Ichida nimadir shuvillab o'tdi. Qariya unga shivirladi:

- Qo'rqma, Roqib!

Yigit zindon tuynugidan chiqdi. O'sha xona, suyagi buzuq soqchilar, burni qiyshiq soqchi ko'rinmasdi. Mo'ylovli Roqibni bir qo'li bilan bo'g'ib, vishilladi:

- Sen Shabko'rni o'ldirdingmi? Shunaqa zo'rmisan?

Roqib siltandi. Ammo Mo'ylovli uni tomog'idan changakday qisib, oyog'ini yerdan uzib dast ko'tardi:

- Endi itday o'lasan! Itday o'lasan, itvachcha!

Roqib nafasi bo'g'ilib, tipirlab qoldi. Mo'ylovli uni temir eshik tomonga uloqtirdi:

- Tashqariga chiq, xoinvachcha!

Roqib o'qchib, yo'taldi. Tomog'i qattiq og'ridi. Kekirdagining ichidan nimadir shishib, nafas olishiga qo'ymasdi. Og'zini kappa-kappa ochib nafas etarkan, o'sha shish og'rirdi. Yigit to o'ziga kelguncha Mo'ylovli kelib biqiniga tepdi:

- Tur!

Biqinidagi og'riqdan Roqibning ko'zidan o't chaq nab, qanday uchib oyoqqa turganini sezmay qoldi. Harqalay, oyoqqa turib, temir eshikni paypaslab, tashqariga chiqishga intilayotganini idrok etdi. Tashqaridan kimdir sharaqlatib qulflarni yechdi, temir eshik og'ir g'ijirlab ochildi.

Bu orada Roqibning qo'li va oyog'ini kishanlashdi, Mo'ylovli qilichining sopi bilan yigitning yelkasidan niqtadi:

- Yur, eshak!

Roqib oqsoqlanib yura boshladi. Kishan endi uning to'pig'ini shildi. U qattiq achishishda terisi ko'chayotgani sezdi. Ammo u hozir to'xtab, oyog'iga qaray olmaydi, yurishi kerak, to'xtasa, boshidan qamchi yog'iladi. Shuning uchun, og'riqqa qaramay tezroq yurishga urindi.

Yo'lakning oxiridagi temir eshikdan ichkari kirdilar. Xonaning ostiyu usti toshdan iborat edi, ammo o'ngdagi eshik yana bu yerda yana bir xona borligini bildirardi.

Ro'parada yog'ochdan yasalgan qo'pol kursi ko'zga tashlandi.

Mo'ylovli Roqibning tizzasining orqasidan tepdi:

- Tiz cho'k, mahbus!

Roqib tizzaladi. Tizzasi yerga qattiq tekkani uchun azob berdi.

Yondagi eshik ochilib, ichkaridan yana bir soqchi chiqdi. Uning sovuti siyoh rangda edi, sochi ham orqaga taralgan, ko'zi misrliklarnikidek katta, rangi qoramtir edi, qadam bosishida chap oyog'i kaltaligi bilindi.

U qo'lida dastasi fil suyagidan, o'zi ot yolidan to'qilgan burama qamchini buklab ushlab olgandi. Mo'ylovliga buyurdi:

- Chiq!

Mo'ylovli qisqa ta'zim qildi, tezda tashqariga g'oyib bo'ldi.

Oyog'i kalta Roqibning qarshisiga kelib yuziga tikildi. Roqib beixtiyor nigohini yerga qaratdi. Kaltaoyoq qamchining dastasi bilan yigitning iyagidan ko'tardi:

- Ko'zimga qara, qotil!

Roqib unga qarar-qaramas yuziga qamchi tegdi. Ikkinchi zarba soniga tushdi. Tizzalab turishning ham imkoni qolmadi: yigit g'ujanak bo'lib yiqildi. Beli, yelkasi, kurak va dumbasidan tinimsiz qamchi yog'ila boshladi. Roqib tishini tishiga bosib, nafasini yutdi, qamchining har zarbi qilichning tig'idek tegar, tanasini qiymalagandek tuyulardi. Har zarb yigitning quvvatini so'rdi. Roqibda g'ujanak bo'lishga ham majol qolmadi, u hushini yo'qotdi.

Qamchi uning go'shtini titib chiqargan edi, kiyimi qon shimib, endi tomchiladi.

Kaltaoyoq mahbusga diqqat bilan qaradi, uning butkul hushdan ketganini bilgach, o'zi chiqqan eshikni qamchi dastasi bilan urdi. Ichkaridan yoshi ellikdan oshgan, pakanadan kelgan, ammo baquvvat, kuchli ekanligi

yapaloq yuzidan sezilib turgan bir odam chiqdi. U Vahshiylar zindonining xo'jayini edi.

- Xo'jayin, qotil behush, - Kaltaoyoq boshini egib Xo'jayinga xabar berdi.

Xo'jayin Roqibni tepib, chalqancha ag'darib yuziga qaradi.

Uzun sochlar mahbusning yuzini to'sgandi.

- Ichkariga kirit.

Kaltaoyoq Roqibni sudrab Xo'jayinning xonasiga olib kirdi. So'ng amr kutib mo'ltiradi:

- Sen chiq. Chaqirsam, kir.

- Bosh ustiga, Xo'jayin.

Kaltaoyoq chiqdi. Xo'jayinning xonasi keng, ammo behasham edi. Devorga taqab o'tirish uchun tosh kursilar terilgan, yerdan ikki qarich yuqorida esa Xo'jayin uchun o'rin bor. Devorga oybolta, bir necha tur qilich, yoy va nayzalar osilgan. Kirishning chap tomonida devor o'yib tokcha yasalgandi, tokchada pishirilgan go'sht, yana bir qancha taomlar, mevalar ko'zga tashlanadi. Xo'jayin tokchadagi sopol ko'zani olib, Roqibning boshiga keldi. Mahbusning yuziga ko'zadan biroz suv to'kdi. So'ng jildiratib suv quya boshladi.

Roqib og'zi, burniga suv kirgach, hushiga keldi. Suv muzday edi, tanasiga biroz yengillik berdi.

Yigit shoshib turmoqchi edi, og'riqdan g'ayriixtiyoriy ingradi. Dumbasi kesilib, bir parchasi osilib qolganday edi. A'zoyi badani g'ijimlangan kabi qaqshardi.

Qarshisidagi odam hamdard kabi qarab tursa-da, bu turqda zulmning sovuq nafasi ufurardi. O'likning ko'zidek yiltirayotgan ko'z, yalpaygan burun, do'rdaygan lab, keng yelka, pakana bo'y bir qarashda manfur, bir qarashda mudhish edi.

- Tura olasanmi, Roqib?

Qiziq, ovoz favqulodda g'amxo'r yangradi.

Roqib qiynalib oyoqqa qalqdi. Ammo boshi aylandi. O'qchidi. Tomog'idan qon ta'mi keldi.

- Iltasang, o'tirib ol, iltasang, turaver. Ammo sen bilan gaplashadigan gapimiz ko'p.

Roqib kishanni shildiratib tosh kursilardan biriga yetib borib, asta o'tirdi. Qiymalangan orqa bilan o'tirish azobli bo'lsa-da, yigitga tik turishdan ko'ra shu huzurli edi.

- Nega seni qamashdi, Roqib?

Yigit savol beruvchiga qaradi. Sinchiklab qaradi. U qarshisidagi odam uning zindonga tashlanish sababini bilmasligi mumkin emasligini aniq anglardi. Bu savol, shubhasiz, bir mazah yoxud tahqirdan, yoxud bir kizbdan belgi edi.

- Bilmadim, - dedi Roqib horg'in.

Xo'jayin tokchaga borib, xanjarini qindan sug'urdi, pishirilgan go'shtdan bir parcha kesib, xanjarning uchiga qadab, Roqib qaradi:

- Yeysanmi?

Roqib Xo'jayinning muddaosini bila olmayotgandi. Bu taklif, suhbatning bu uslubidan qandaydir xatar shabadasini his etdi:

- Yo'q.

Xo'jayin go'sht bo'lagini og'ziga solib, chaynay boshladi:

- Mayli. Zindon zindon-ku, zo'r oshpazim bor. Faqat menga ovqat pishiradi. Sen esa rad etding, - Xo'jayin tokchadagi boshqa ne'matlardan shoshmay, navbati bilan totinib, gapda davom etdi.

- Roqib, agar mening savollarimga to'liq, to'g'ri javob bersang, bu zindon senga yaxshi makonga aylanadi. Ona suti og'zidan ketmagan, desam, Shabko'rni bo'g'izlab qo'yibsan. Mayli, bu boshqa masala. Aytgancha, yaralaring og'rimayaptimi?

Roqib indamadi.

- Soqchilarim ham vahshiy. Mahbuslarim ham vahshiy. Seni yomon urishibdi. Tabibimni chaqiraymi? Jarohatlaringga qarab qo'yadi.

- Kerak emas, - dedi Roqib.

- Adashasan, kerak, - dedi Xo'jayin qat'iy. - Yarani o'z holida qoldirsang, yiringlaydi, qurtlaydi, chiriydi. Tirik odam qurtlab, chirib ketsa, bu juda yoqimsiz-da. Sen esa, tabib kerakmas, deysan. Ovqat yemayman, deysan. Menga qara, ayol bilan bo'lganmisan? Yo'q?! Hamma savolimga yo'q, deysan. Biror narsa bormi, axir? Xa-xa-xa. Eng ashaddiy kallakesarimning qotili turmug'i turmagan bola bo'lsa-ya! Ajab dunyo! Roqib, menga qara, ikki yil, uzog'i ikki yilda ayol xohlab qolasan. Men senga jononlarni topib beraman. Ishonasanmi? Zindonda yashab, ko'chadagi zodagondan ko'proq imkoniyatlaring bo'ladi. Senda kelajak bor. Nega indamaysan? Tilingni yutganmisan?

- Menga hech narsa kerak emas...

- Gaplarimni o'ylab ko'r! Juda shoshqaloq ekansan!

- Men rostan ham, nega qamalغانimni bilmayman...

- Bilishing shart emas.

- Otamni o'ldirishdi...

- Xo'sh?

- Onamni qamashdi...

- Nega?

- Bilmayman...

- Bilmaysanmi? - Xo'jayin Roqibning

peшонasiga keldi. - Bilishing shart emas! Yana aytaman: bilishing shart emas! - qo'qqisdan nimanidir eslagandek Xo'jayin boshqa savol. - Yoki onang senga u-bu narsa dedimi? Masalan, Muso yoki Horun haqida?

Roqib Xo'jayinga talmovsirab qaradi:

- Kim Muso? Horun-chi?

Xo'jayin Roqibning aldamayotganini bilish uchunmikin, uning yuziga qattiq tikildi. So'ng xotirjam bo'lgandek dedi:

- Ha, yaxshi. Onang hech narsa aytmadimi, demak, bilishing shart tugul, nega zindonga tushganingni bilishing mumkin emas. Bu ta'qiqlangan! Sen zindondagi hayotni o'yla, bola! Umrbod zindonda senga jannat yaratib beraman, buning uchun sendan bir narsanigina so'rayman. Agar aytganimga rozi bo'lsang, Shabko'rni o'ldirganingni ham kechiraman.

- Shabko'rning o'zi menga tashlandi.

- Bu menga qiziq emas. U o'lgan! Sen o'ldirgansan! Senga tashlangan bo'lsa, menga aytishing kerak edi. Men orani ajrim qilardim. Sen muammoni o'zim hal qilaman deb, qamoq qoidasini buzgansan!

Roqib lanj bo'la boshladi. Xo'jayinning ezmaligi ko'nglini aynitdi.

- Va, - Xo'jayin ezuvchi ohangda yana davom etdi. - Va Shabko'rni o'ldirding! Buning uchun seni osish kerak.

Roqib jim o'tiraverdi.

- Ammo sen menga bo'ysunsang, aytganimni qilsang, zindon sen uchun jazo emas, mukofotga aylanishi mumkin.

Roqib, va nihoyat, Xo'jayin kutgan savolni berdi:

- Nima qilishim kerak?

- Qoyil! Buni ertaroq so'rashing kerak. Seni bir chol kutib oldi. Himoya qilyapti. O'shaga yaqinroq bo'l. Nima desa, menga aytganini yetkazib tur. Bo'ldi. Ishing besh! Kelishdikmi?

Roqib aytajak javobi hamsuhbatiga mutlaqo yoqmasligini bilib, dedi:

- Yo'q. Men bu ishni qilmayman.

Xo'jayin tarsaki yegan odamday baqrayib qoldi. Tishlari g'ijirladi.

- Sen it yaxshilikni bilmas ekansan. Bu yerni Vahshiylar zindoni deyishadi. Itvachcha!

Xo'jayin quturib ketdi, u yosh bolaga shuncha ovora bo'lgani va bu qadar bezbetlik ila yo'q degan javob berilishi unda cheksiz tahqirlanish hissini uyg'otdi.

Yugurib kelib, Roqibning ko'kragiga tepdi. Mahbus "hiq" dediyu, oldiga munkib, behush yiqildi.

Xo'jayin uni o'ldirishni istardi, biroq o'z soqchilari oldida kuchini bir o'smirga ko'rsatdi, degan gapga qolishni istamasdi, shuning uchun kuch bilan g'azabini bosdi, borib eshikni ochdi. Narigi xonada kaltaoyoq rostlandi:

- Buyuring, Xo'jayin!

- Anavi itni olib chiq! Qattiq uribsan, yana hushidan ketdi.

...Zindoning qopqog'i ochildi. Mahbuslar tepaga qarashdi. Tuynukdan arqon bilan bog'langan qop tusha boshladi. Qariya nimanidir sezgandek, qopning yerga tushishini kutib turdi. Qop yerga tushishi bilan ichini ochdi: Roqib yuzi momataloq, kiyimlari qon bo'lib, ikki bukilib yotardi.

- Roqib! Roqib! - Qariya yigitni avaylab qopdan chiqara boshladi.

Tuynukdan esa soqchilardan biri baqirdi:

- Qopni tezroq bo'shat! Tepaga chiqarib yubor!

Qariya Roqibni ehtiyotlab somonni qalinlashtirgan o'ringa yotqizdi. Yana uch-to'rt mahbus yordamlashgani yetib keldi.

Qariya Roqibning kiyimini yechish imkoni yo'qligi uchun sekin yirtib oldi. Roqibning ko'kragida etik izi bor edi. Qovurg'alari ko'kimtir tusga kirgan.

Yigitni yonboshlatishdi: orqasi taram-taram qon. Qariya Roqibning ishtonini sal tushirdi: dumbasi tilib tashlangandek edi, qon sizayotgan edi.

- Yashamaydi, - dedi mahbuslardan biri. U quruq yog'ochdek ozg'in edi. Iyagida uch-to'rtta tuki uzun edi. - Bolani ado qilishibdi.

Qariya unga shahd bilan burildi:

- Umrni berguvchi Alloh! Alloh xohlasa, yashaydi!

Bu gapni eshitgan mahbuslar cho'chib ketishdi:

- Hoy chol, yana Alloh deysanmi! Bu zindonda bu so'zni aytish mumkin emas!

Qariya ishingni qil degandek o'girildiyu, Roqibning jarohatlarini avaylab yuva boshladi. Yuvarkan, pichirlardi:

"Olamlarning Robbisi bo'lgan yagona Alloh! Sen Ibrohim, Yoqub, Yusuf, Muso va Horun payg'ambarlarning Ilohisan! Senga iymon keltirdim! Sen yuborgan Tavrotga iymon keltirdim va ergashdim. Bandang Roqibga shifo ber!"

Beshinchi bob

...Saqif G'oba bu gapni aynan kohin Astinosdan kutmagan edi.

- Kohin hazratlari, siz uch yuz oltmishta ilohimizni rad etmoqchimisiz? Bu ilohlarni topish, ularni nomlash, odamlar e'tiqodini qozonish uchun sizning ajdodlaringiz qancha aziyat chekdilar! - hokim bo'g'riqib ketdi.

Astinos qo'lida bir xilda kesilgan taxta sahifalarni ko'tarib fikrini tushuntirishga oshiqdi:

- Hokim janoblari, Muso o'z ilohidan keltirgan kitob juda mukammal, deyakman, xolos. Bu kitobda butun koinotni yakka bir iloh yaratganligi isbotlangan. O'sha ilohga ibodat qilishga majburligimiz aytilgan...

- Majburmiz?! O'ylab gapiryapsizmi, kohin! - g'azab bilan hayqirdi hokim. - Siz majburdirsiz, men majbur emasman! Men o'z ilohlarimdan voz kechmayman. Ularga ota-bobolarim sig'inib keldilar. Bu ilohlar yordamida saltanatga erishdim. Quadratga keldim. Endi shuncha hokimiyatni Musoning kitobiga ishonib, yakka ilohga topshiraymi?

- Zinhor, hokim janoblari, zinhor! - Kohin shoshib qoldi. - Fikrimni anglatolmadim, chog'i. Muso odamlarga o'qitgan bu kitob juda xavfli. Podshohimiz Jolut uni ta'qiqlab to'g'ri qilganlar. Aks holda, bu kitob bizni yo'ldan ozdiradi.

- Shunday. Shuning uchun, ulug' podshohimiz bu masalada bir qancha reja tuzgan. Yaqinda Musoning hamma izdoshlarini tig'dan o'tkazamiz - Bobil hukmdori Namrud, fir'avn Ramzes boshlagan, ammo oxiriga yetkazmagan bir ishni podshohimiz Jolut tugallaydi.

- Xudolarimiz qo'llasin!

Saqif G'oba o'z gapidan o'zi zavqlanib o'rnidan turib, qasrining eng muhtasham xonasi bo'ylab jo'shib yura boshladi:

- Musoning izdoshlari o'lgach, podshohimiz Jolutning xudo ekanligi tasdiqlanadi. U kishi uch oltmish birinchi, ya'ni rahbar xudo bo'lish arafasida turibdi.

- Shunday! Shunday!

- Podshohimiz Musoning barcha izdoshlarini qama, uning Yuvsha degan o'rinbosarining boshini uzgan kunim hammasini bitta maydonda yoqaman, dedi.

Kohin tinimsiz Saqif G'obaning gapini ma'qullasa-da, uning ichidagi tiyib bo'lmas xavotir yuzida ham ko'rinardi.

- Hazrat, bu uzun reja. Musoning izidan yurganlarni butkul yo'q qilish bilan qirq yildan buyon mashg'ulmiz. Biroq aytarli natija ko'rmadik. Biz ularning sonini har yili hisoblaymiz. Qatl etamiz, qamaymiz, biroq ularning adadi kamaymaydi. Qatag'on va qatl maqsadga erishmog'imizda yetarli bo'lmayapti.

- Ramzes ikkinchining davrida Yahudo qavmining o'g'illari so'ylardi, qizlari qoldirilardi, hokim janoblari, - dedi kohin. - Muso ularni osmondan vahiy olib kelyapman, deb ishontirdi. Yoqub bolalari unga ergashdi. Bu ular ustida zulmni ko'paytirdi, xolos. Muso bu qavmni akasi Horun bilan qirq yillab tarbiyaladi. Qullikda himmatni unutgan, pastkashlik, osiylik va kizbni odat etgan bu qavmning o'nglanishiga ishonmaganlar ko'p edi. Biroq ishning oxirida ular hammadan afzal bo'ldi.

- Bu bilan nima demoqchisiz, hazrat? - hokimning ensasi qotdi.

- Demoqchimanki, bu qavm bilan kurashmoqda ehtiyot lozim. Yillab bir marra uchun kurashamiz. Ammo yo'lning oxirida biz yutqazamiz. Ulardan olib qo'rganlarimiz ortig'i ila ularda qolganini ko'ramiz.

Hokim asabiylashib, o'rnidan turdi. Shu qadar asabiylashdiki, barmoqlari titradi.

- Shuncha kurashlaring bekor, baribir mag'lub bo'lasan, deyaapsizmi?

- Tog'lar xudosi bilan qasam, zinhor! Meni yanglish tushundingiz, janob hokim! - shoshib ovozini ko'tarib yubordi Kohin. - Jamiki xudolar ularni yer bilan yakson qilsin! Ularning yakka xudo bizning uch yuz oltmish xudomizga bas kela olarmidi?

Bu gap Saqif G'obaga ancha ma'qul keldi.

- Bu gapingiz to'g'ri, hazrat, - dedi hovuridan tushib. - Siz Yahudo bolalarini faqat maqtadingiz. Ularning qalbida bizning yo'lga muhabbat borligini ham unutmang!

- Unutib bo'larkanmi! - dedi Kohin.

- Muso bu ahmoqlarni fir'avndan qanday qutqargani yodingizdami? Dengizning ichidan olib o'tdi, deyishadi. Biroq Muso o'z

xudosi bilan gaplashgani toqqa ketdi. O'ttiz kunda kelaman, deb, qirq kun qolib ketdi. Shunda bular nima ish qildi? Hatto, Musoning akasi ham biror narsani eplolmadi!

- Ularning qilgan bu ishi - bizning g'alabamizdan darak! - dedi ishonch bilan Kohin.

- Aynan to'g'ri! Buzoqning haykalini yasab, unga ibodat qilishdi! Qanday ham yaxshi ish bo'ldi bu! Osmondagi yakka xudosini qo'yib, buzoqqa topingan bu qavm, albatta, bizning mulk bo'ladi! Va bo'ldi ham!

- U holda, xavotirga o'rin yo'q, hokim janoblari! - uni quvvatladi Kohin.

- Bu borada podshohimiz Jolut menga suyanadi. Rejaning bir qismi shuki, Muso izdoshlarining ichidan yana buzoqparastlarni topishimiz kerak. Ular o'z xudosi yoniga bir sherikni qo'ysalar, bas, kuchlari qirg'iladi!

- Shubhasiz, saltanatni ikki podshoh boshqarsa, xalq parokanda va xor bo'lgani kabi, - dedi Kohin.

- Ha. Bu ishni siz qilasiz, hazrat. Xudolar bilan bamaslahat bir ish qilasiz.

- Bajonudil! Ishimning tartibi qanday? - qiziqdi Kohin.
- Nima uchun Muso keltirgan kitobni o'qidingiz, bilasizmi?
- Shubhasiz, bilaman. Dushmanning zaif yerini shu kitobdan topish uchun o'qidim.
- Topdingizmi?
- Kitob mukammal. Undan bir xato topmadim. Holbuki, men Navohodunasar mixxatlarini, Hammurapi qonunlarini, fir'avnlarining yilnomalarini o'qiganman. Har qanday kitobdagi yolg'onni, zaiflikni uning yozilish uslubidan bilaman. Musoning Kitobida esa bir yolg'on topolmadim...
- Juda tez yengilasiz, bu yomon, - hokim yana biroz qizishdi. - Unda kitobni yolg'on bilan boyiting!
- Ya'ni... - Kohin hokimning asl maqsadini tushunmay qoldi.
- Tavrotning ba'zi oyatlarini olib tashlab, o'rniga o'zingiz yozing! Yoza olmasangiz, qadim mixxatlardan ko'chiring, xullas, Tavrotni o'zimizga moslang!
- Astinos bu talabni, hatto, tushida ham tasavvur qilmas edi. Endi chindan qo'rqib ketdi. Tavrotning ortidagi Buyuk Jaloliyatni u his qila boshlagan edi. Har qanday ishni gunoh emas, deb hisoblasa ham, Tavrotni o'zgartirishni to'g'ri ish, deya olmasdi. U Tavrotni Musoga bergan xudo uni o'zgartirgan odamni ayovsiz jazolashiga ishonib bo'lgandi. Shuning uchun, nafasini yutib, jim turib qoldi.
- Nega jimsiz? Yo bo'yin tovlaysizmi? - hokim tahdidli savol berdi.
- Bo'yin tovlamayman, hokim janoblari! - deb yubordi Kohin rangi bo'zarib.
- Ammo Tavrotni o'qigan odam men yozgan oyat va asl oyatni tezda farqlab oladi... Chunki bu Kitobning uslubida yozish insonning qo'lidan kelmaydi...

Saqif G'obaning taxtiga bir shohona qilich suyab qo'yilgandi. Hokim Kohinning bu javobidan qoniqmadi, ammo boyagidek qizishmadi, borib qilichni oldi, qinidan chiqardi. O'ynatdi. Va Kohinga savol berdi:

- Sizning ishingiz nimadan iborat, hazrat?

- Xalqning dodini xudolarga yetkazish...

- Bizning dodimiz-chi? Hokimlar, hukmdorlarning dodi qayerda qoladi? Shu ahmoq xalqni boqish uchun, dushmanlardan qo'riqlash uchun qon to'kyapmiz, qon yutyapmiz, to'g'rimi?

- Ming marta to'g'ri.

- Ibadatxonangizga o'ljalarning sarasini beryapmiz, to'g'rimi?

- To'ppa-to'g'ri!

- Ibadatxona yerto'lalarini oltinga to'ldirib oldingiz, to'g'rimi?

- Ha...

- O'ziga o'zi aljiraydigan, badaniga echkinging qonini surib, sasib yuradigan xudojo'ylaringizni kimning hisobidan boqyapsiz?

- Hokimiyat hisobidan...

- Hokimiyat? Qanday hokimiyat? Men hokimiyatman! Mening hisobimdan badbo'y va tentak xudojo'ylaringizni boqyapsiz!

- Bilaman...

- Ibadatxonangizni to'ldirib turgan tosh sanamlaringiz siz uchun urush qilsa, bo'lmaydimi? O'shalar sizlarga ovqat bersin! Hozir boshingizni chopsam, anavi eng baland haykalingiz, oti nima edi? O'sha kelib sizni himoya qilsin!

- U tosh haykal...

- Xudo emasmi o'sha tosh haykal?

- Xudo, albatta...

- Nega unda qo'lidan bir ish kelmaydi?

- Tosh haykallar xudolarning siymosi... Xudolar boshqa joyda yashaydilar...

- Xudolar o'z siymosini hamma bandalariga ko'rsataversa, qadri ham yo'q ekan-da!

- Unday demang, hokim janoblari... Shak keltiyapsiz... - Kohinning ovozi shu nuqtada yig'lamsirash aralash titrab chiqdi.

- Shak keltirmayapman, hazrat, - dedi bezrayib hokim. - O'sha xudolaringiz xudo bo'lsa, biz ham xudo bo'lishimiz kerak. Ayniqsa, podshohimiz Jolut xudolikka haqli! Chunki u sizlarni ham, xudolaringizni ham boqyapti, qo'riqlayapti!

- Albatta, albatta.

- Men ham Jolutdan keyingi kichik xudoman. Shuning uchun, amrimizni bajaring: Tavrotni o'zgartiring, hazrat! Har bir oyatidagi biror so'zni o'zgartiring!

Kohin rangi oqargan ko'yi orqaga tislandi:

- Aytganingizdek bo'ladi, hokim janoblari...

Kohin saroyini parishonhol tark etdi. Saqif G'oba o'z ishidan juda huzurlandi. Kohinni qay tariqa yer bilan yakson qilganini eslab, iljaydi.

"Mana shu qudrat, deyiladi!"

O'zidan o'zi qoniqdi. Kimdir qulog'i tagida shivirlab, uni yanada to'lqinlantirdi:

"Sen chinakam xudosan! Hatto, kohinni lol qilding!"

Saqif G'oba bu gapni ma'qullab bosh silkidi.

U bu ovozni o'z xojasi Muassarni Jolutga tutib berganidan buyon aniq eshitib kelmoqda. Dastavval, bu ovozni bir xayol deb o'ylagan G'oba keyinchalik ovozni haqiqatan eshitayotganini idrok etdi. Ovoz egasini ko'rishga qanchalik urinmasin, buni uddalay olmadi. Bir kuni ovoz egasidan ismini so'radi. Bir necha marta so'rayvergach, ovoz: "Quvilib, o'z haqqini talab qilayotgan bir buyukman", - deb javob berdi.

G'oba hayron bo'lib, "Unda sening isming Quvilganmi?" - dedi.

"Hozircha Quvilgan", - dediyu, ovoz bu masalada boshqa gapirmadi.

G'oba ham u bilan ortiq qiziqmadi. Eng muhimi, Quvilgan uni ko'p maqtardi, ayniqsa, Muso va uning izdoshlariga qarshi kurashishga chorlardi. Aynan u Ashianing qochganini aytdi, Ashia va uning bolasiga jazo berishni so'radi.

"Zindonda bolani, cho'chqaxonada ayolni zo'rlashni buyur!" - deb o'rgatdi. G'oba Quvilganning aytganini qildi.

Tavrotni o'zgartirish ham Quvilganning g'oyasi edi. G'oba Quvilganning har maslahati uni kuchga to'ldirayotganiga ishonardi.

Hozir ham Quvilgan G'obani to'xtovsiz olqishlab, uni qanotsiz uchirayotgandi. G'oba o'zi eshitayotgan bu ovoz tashqaridanmi, yo miyasining ichidanmi, qayerdan kelayotganini idrok etolmasdi. Bu uni ko'p qiziqtirmasdi ham.

Quvilgan G'obani ne qadar maqtasa, shu qadar qo'rqitardi. Bu qo'rquv oxiri ko'rinmaydigan zulmatdan iborat bo'lardi. Quvilgan G'obaning miyasida: "Agar aytmaganimni bajarmasang, ana shu tubsizlikka cho'kasan!" - derdi.

G'oba bu tubsizlikdan qochardi, shuning uchun saroyni hashamatga to'ldirdi, devorlarga o'z kuch-qudratini aks ettiruvchi suratlar chizdirdi, shoirlarga o'zi haqida madhiya dostonlar yozdirdi, saroyda juda katta bazmlar uyushtirdi, rango-rang kiyimlar kiyardi, raqqosalarni ko'paytirardi, bu narsalar qurshovida go'yo o'zini falaklarda uchganday

sezardi, bu narsalarni yo'qotsa, halok bo'ladigandek dahshatga tushardi. O'sha dahshatdan qutulish uchun o'zini yana shovqin ichiga urardi. Aslida, bu narsalarning hammasi Quvilganning yo'rig'i edi.

Tasmin kirdi.

- Hokim janoblari, zindonboshi kirishga izn so'rayapti.

- Chaqir!

G'oba bolaning taqdiriga qiziqayotgandi. Zindonboshi kirdi.

- Gapir. Buyrug'imni bajardingmi? - dedi G'oba.

- Ma'zur ko'rgaysiz, - zindonboshi tiz cho'kdi. "Yer o'pishni ham joriy qilishim kerak", - deb o'yladi G'oba. Uni tiz cho'kish qoniqtirmasdi. Biroq yer o'pish Jolutning huzuridagi maxsus ta'zim, boshqalar buni talab qila olmaydi.

- Nima bo'ldi?

- Bola chayir ekan. Yollagan odamimni o'ldirib qo'ydi.

"Ahmoq! Bir ishni eplolmaydi bular, - ichida ensasi qotdi G'obaning. - Bolani shu holda qoldirsammikin? Nimasidan xavfsirayman? Shu qadar ezganim hozircha kifoya. Undan yana boshqa maqsadlarda foydalansam bo'lar, balki... Qolaversa, erta tongda podshoh huzuriga o'tlanishim kerak".

- Aqllaring yo'q, - G'oba qoshini chimirdi. - Bolani o'z holiga qo'y. Zindonda u kim bilan yaqin bo'lyapti?

- Musoning jangchilaridan bo'lgan chol uni himoya qilyapti.

Bu xabar G'obaga yoqmadi.

- Qaysi chol?

- Baytil Maqdis jangida Muso lashkarida qatnashgan. O'shanda bu chol olti yosh bo'lgan. Podshohimiz Jolut amri bilan Musoning jangchilari asir olinganda, qatl etilganda, tuzoqqa tushirilgan. Yigirma besh yilki, zindonda.

Saqif G'oba o'yga cho'mdi. Quvilganning ovozi miyasining ichida jaranglab ketdi: "Ikkalovini shu holda qoldir. Qatl oson ish. Ularni xorlamoq kerak. Tahqirlash shart. Irodasi sinsin. Zor yig'lasin. Musoga ergashganlaridan nadomat cheksinlar! Toki, boshqalar ham Musoga tobe bo'lishning oqibatini ko'rsin! Hozir cholga ham, bolaga nafas rostdash imkonini ber! Ular o'zlarini erkin sezishlari bilan boshlariga musibat yog'dirasan!"

G'oba iljayib qo'ydi. Zindonboshining ko'zlari yerda edi, u shuning uchun bu iljayishni ko'rmadi. Ko'rganda edi, o'z xojasining nigohida vahshatdan u ham cho'chib ketardi. Tasmin esa G'obaning doimiy hamrohi. Uning bilgani shuki, xojasidan nega iljaydi, nega qayg'uda - so'ramaslik kerak. Chunki G'obaning bir olami bor. U olam juda qorong'u, unda hech narsa ko'rinmaydi.

- Zindonboshi, jo'na! U ikkisi haqida hukmimni kut.

Zindonboshi uch marta yukinib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

- Tasmin, ayolning taqdiri nima bo'ldi? - so'radi hokim.

- U esdan og'ibdi, janobim. Cho'chqalar ichiga kirib ketdi. Cho'chqalarni boqyapti, ular bilan gaplashyapti. Yig'laydi. Butun ustidan cho'chqa axlati va peshobini to'kyapti.

Ba'zida cho'chqalarning balchig'i ichida yuryapti. Unga yaqinlashib bo'lmayapti. Juda ham sasib ketdi, - dedi Tasmin.

G'oba mamnun bo'ldi.

- Ayla qishlog'ida yashagan Yahudo bolalaridan bir guruhini maymunga aylanib ketgan, deyishadi. Bularda hayvonga aylanish odati bor ekan-da. Uni ham qo'y. Tayyorgarlik tugadimi?

- Tugadi, janobim. Besh ming kishilik lashkar podshohimiz Jolut huzuriga sizning ortingizdan borishga shay!

Oltinchi bob

Cho'chqaxonaga cho'chqaboqar o'laroq yuborilarkan, Ashianing qalbida jannatga ketayotgandek bir tuyg'u bor edi. U Robbisidan dushmanlar hujumidan saqlanmoq uchun mustahkam bir qo'rg'on so'rayotgan edi. Larzaga tushgan qalbi chaqmoq urib parchalagan toshdek parchalandi. Bu tosh qa'ridan go'yo hayot suvi otildi. Qafasda ketarkan, ko'zidan yosh duvillardi. Tizzasini ko'ksiga bosib o'tirarkan, kirlangan, loylangan sochlari uning yuzini, vujudini bir parda kabi yopdi. Unga boqqanlar bir alvastini ko'rgandek seskandilar. Holbuki, bu vujud ichidagi ruh Robbisiga tavba qilar edi.

Ashia cho'chqaxona uning uchun bir iffat qal'asi bo'lishiga amin edi. Zohirini jirkanchlik ila qoplab, bu jirkanchlik ichida nomusini, iymonini saqlamoqni qasd etdi.

Ashia butkul olamdan uzildi. U mansubi bo'lgan haqiqat olamini tuyqus idrok etayotgandi. O'tmishi bu musibat shamolida g'ubordek ko'tarilib, ongini qamradi. Ko'z o'ngida butun hayoti tirildi.

Bobosi Muassar hokim edi. Otasi Aslam hokimga bir voris edi. Ular Musoning tobelari edilar. Uylarida Tavrot o'qilardi. Muassarning maslahatchisi Ustoz ularga Tavrotidan ta'lim berardi.

- Olamlarni yaratgan Zot yolg'iz Allohdir! Faqat U ibodatga loyiqdir! Muso uning bandasi va payg'ambaridir! - bu so'zlarni Ustoz har kuni har suhbatning avvalida takrorlardi. - Allohdan qo'rqing! Biz oxiri zamon payg'ambari, Allohning so'nggi elchisi, barcha nabiylarning sultoni Ahmadga iymon keltiramiz. U insoniyat xaloskoridir. U Yer yuzida eng buyuk adolatni o'rnatadi! Biling, Tavrot bizga shuni ta'lim berdi!

Ashia yosh qizaloq edi. Shahar zodagonlarining bolalari bilan Ustozning bu darslarini yod olishardi.

Ashialar tug'ilganda hayot munavvar edi. Ular bu kalimalar ma'nosini bilmasdilar. Ular bu kalimalarga hali ehtiyoj sezmasdilar, zotan, hayotni tanimagan go'dak so'zlarning qudratini qaydan bilsin! Ular, hozircha, otana, nonu suv so'zining kuchini yaxshi bilishardi, xolos.

Ashia ulg'ayish yoshlarida, o'smirlik yillarida, ko'zguga qarab, husni ila faxrlana boshlagan vaqtlarida o'z shahrida sodir bo'layotgan ko'p o'zgarishlarni idrok etganini yaxshi eslaydi.

Ustoz odamlarni ko'chalarda, ularning saroyi oldida, maydonda to'plab, baland ovozda gapirardi.

- Ey odamlar! O'tmishingizni unutmang! - der edi u ko'pincha. Ashia dugonalari bilan hokimning erka nevarasi o'laroq bozorga, karvonsaroylarga o'ziga zeb-ziynat olgani ketayotganda Ustozning kuyib-pishayotganini ko'rib, bu va'zlarni qiziqish ila tinglardi. Ochig'i, va'zlar juda yoqimli ediyu, qizaloq uni ertak eshitgandek eshitardi. Ustozning gaplari uni qanchalik mutaassir etmasin, biror qonundek qabul qilmasdi. Bu faqat Ashiaga emas, hamma odamlarga xos edi. Ular Ustozni zerikkanda tinglashardi. Ustozning gapidan juda ta'sirlanishsa, "Haqni aytdi! Nutqi go'zal! Ilmi teran!" - deb maqtashardi, o'z ishlaridan qolmasdilar. Go'yo Ustoz ularni zavqlantirish uchun so'ylayotgandek, holbuki, unday emasdi. Ustoz yonib gapirarkan, o'z nutqini tugatib, yo'l chetida yig'lab o'tirardi. Ko'pchilik, ayniqsa, zodagonlar unga sadaqa qilishni xush ko'rishardi. Ustozning poyini boylik bilan to'ldirishardi. U esa badtar ho'ngrardi, keyin tinchlanib, faqat hiqillardi. So'ng yana o'rnidan turib hayqirardi:

- Ey odamlar! O'tmishingizni unutmang! O'tmishni unutmoqdasiz! Xorlik sari ketyapsiz! Ey odamlar! Allohdan qo'rqing! Sizlar Odam va Havvoda tarqaldingiz. Ibrohimning ikki o'g'li bor edi. Bir Ismoil, biri Ishoq. Siz Ishoqning zurriyodisiz. Yoqub Ishoqning nasli edi. Yoqubni Isroil derdilar. Isroilning o'n ikki o'g'li sizlarning otalaringizdir! Ey odamlar! Yoqub o'ldi. Sizlarga Yusuf, so'ng Yahudo bosh bo'ldi. O'tmishni unutmang! Qibtiylardan fir'avn Ramzes boshingizga ne kunlarni soldi! Erlarni qul, xotinlarni cho'ri qildi. O'g'il chaqaloqlarimizni so'ydi, qizlarni tirik saqladi!

Ey odamlar! O'tmishni unutmang! Muso tug'ildi! U Allohning payg'ambari edi. U fir'avni xonadonida ulg'aydi. Vaqt yetib, akasi Horun ila fir'avni hidoyatga chaqirdi. Fir'avni kofir bo'ldi. Musoni quvdi. Muso Yahudo bolalari ila qochdi. Yahudo bolalari! Bobolaringizning jinoyatlari yodingizdami? Hayhot! Tavrotda Alloh buyurdiki, yakka Allohga ibodat eting! Ota-onangga yaxshilik qil! Qarindoshga, yetimga, miskinlarga yaxshilik qil! Odamlarga go'zal so'zla! Namozni qoyim qil!

Zakat ber! Bir-biringizni o'ldirmang, o'zaro qasdlashmang! Biringiz ikkinchingizni o'z yurtidan quvib chiqarmasin! Ming nadomatlar bo'lsin! Ey odamlar, sho'ringiz quriyapti! Siz bugun nima ish qilyapsiz! Allohga ibodat qilmayapsiz, unga sherik topyapsiz. Ota-onani qarovsiz tashladingiz. Qarindoshlar ila aloqani uzdingiz. Yetimlarga zulm etyapsiz. Miskinlarni unutdingiz. Odamlarni haqoratlaysiz. Namoz o'qimaysiz. Zakot bermaysiz. Biringiz boshqangizni boyluk talashib o'ldirasiz, biringiz ikkinchingizni o'lkangizdan, Vatan dan quvib chiqarasiz, ularga azob berish uchun boshqangiz uning sirlarini sotasiz, boshqangiz uni azoblaysiz, dushmanga asir tushsa, tovon to'lab qutqarasiz, buni mehr deb, butun olamga ko'z-ko'zlab maqtanasiz! Aslida, ularni quvib solgan o'zingiz edingiz. Azoblagan o'zingiz edingiz. Bu ishingiz qanday behayolik bo'ldi! Tavrotni Allohning kalomi deysiz, ammo yarmiga amal qilasiz, yarmini esa mensimaysiz. Siz Allohning so'zini o'yin qilyapsizmi? Allohning so'zini masxara qilyapsizmi? Hayhot! Dodu faryod! Bu ishlaringiz uchun bu dunyoda sharmanda bo'lamiz! Oxiratda jahannamda yonamiz! Esingizni yig'ing! Gunohni to'xtating! Allohning yo'liga o'ting! Allohning payg'ambariga, Uning Kitobiga ergashinglar!

Ustoz shu so'zlarni bor ovozi ila aytardi. Ko'pchilik jim tinglardi. Biroq tinglab bo'lib, odamlar o'z yo'lida ketaverardi: kimdir o'g'irlik qiladi, kimdir fohishaxonaga boradi, kimdir zulm qiladi.

Ustoz esa yana nola qilardi:

- Ey Isroil bolalari! Muso davrida Alloh ustimizga Tur tog'ini olib kelganda, tog'ning tagida qolmaylik deb, hamma ilohiy amrlarni qabul etdik. Bugun ilohiy amrlarga amal etmasak, holimizga maymunlar yig'laydi...

Hokim Muassar tabiatan ko'ngli bo'sh odam edi. Uning bichilgan quli Saqif G'oba hokimga ko'p ta'sir o'tkazardi. U Ustozni yoqtirmasdi. Saqif G'oba Muassarga bir gapni benihoya ko'p aytdi:

- Sohibim, qari Ustoz shahrimiz tinchini buzyapti. U qayerdagi vahima gaplarni tarqatyapti. Ko'chada soatlab vaysaydi. Odamlar, natijada, sizning hokimiyatingizga shubha ila qarayapti. Ustoz hokimiyatni istayapti, shekilli. U Tavrot hukmini yetkazyapman, deb, ilm tarqatyapman, deb, o'rningizni egallashni istashi aniq.

Muassar bu gaplarga, dastavval, e'tibor bermadi. Biroq G'oba o'z ishidan to'xtamadi. Muassar G'obaning gapiga kirdi va Ustozni zindonga tashladi. Ashia Ustozni ko'rgani tezda zindonga bordi. Zindon ichida Ustoz iztirob ichida shunday dedi:

- Qizim, shaharni gunohkor bosib ketdi.

Ashia ko'zini katta-katta ochdi.

- Ustoz, - dedi u olib kelgan tugunini Ustozning oldiga qo'yib. - Men sizning hamma gaplaringizga tushuna olmayman. Ammo to'g'ri so'ylayotganingizga aminman.

Ustoz qayg'u ila tabassum qildi.

- Vaqt keladi, hamma so'zlarimni tushunasan. Sen to'g'ri so'ylayotganimga pokiza qalbing ila aminsan, taqdir esa seni bu so'zlar ustida yashatadi, qizalog'im. Sen bu so'zlarga suyanibgina, dunyo va oxiratda najot topish mumkinligini o'z ko'zlaring ila ko'rasan. Chunki men bu so'zlarni o'ylab topib, keyin gapirmayapman. Bu Tavrotning ta'limi, Musoning o'gitlaridir. Eshit, qizim. Biz Muso payg'ambarning ummatimiz, so'nggi payg'ambar Ahmadning ummati emasmiz. Nega bunday deyapman, bilasanmi?

- Bilmayman, Ustoz, - yelkasini qisdi Ashia.

- Unda, bilib ol! - Ustoz qat'iy ta'kidladi. - Alloh bizga beriladigan jazoni aslo kechiktirmaydi. Muso yashagan zamonda gunohkorlarning uylarining eshiklari ertalab o'z egasi gunoh qilganini e'lon qilardi. Ya'ni eshikda "Falonchi mana bunday gunoh qildi" degan yozuv paydo bo'lardi. Alloh munofiq'larning yuzini sarg'aytirib yuborardi. Dengiz bo'yida Ayla degan qishloq bor edi. O'sha qishloqda bizdan bir qavm yashagan. Alloh ularga shanba kuni baliq tutishni ta'qiqladi. Bu bir sinov edi. Qavmimiz esa shanba kuni dengiz sohilida juda ko'p baliq bo'lishni bilib qolishgach, bir hovuz kavlashdi. Baliqlar shanba kuni hovuzga qamalib qolardi, yakshanbada esa uni aylaliklar oson tutishardi. Bu olamlar Robbisi Allohga hiyla edi. Alloh g'azablanib, aynan shu qishloqda yashaydigan hammani xunuk, odamlar yoqtirmaydigan maymunlarga aylantirdi. Robbimizning jazosi kechikmadi. Tasavvur qilyapsanmi? Kechqurun odam bo'lib uxlaysan, tongda maymun bo'lib uyg'onasan. Bu esa gunohlar uchun bir jazo ekanligini butun olam biladi. Bundan katta sharmandalik bormi?

Ashianing eti junjikdi. O'zini, otasini, bobosini, qullarini, odamlarni maymun qiyofasida ko'z o'ngiga keltirib, qo'rqib ketdi.

- Eshit, bolam, - Ustoz esa davom etdi. - Biz shunday ummatmiz: gunohimizga jazo kechikmaydi. Oxiri zamon Ahmadning ummati esa doimo bir muhlat ustida bo'ladi. Ular Allohning yo'lida sobit va xolis turganlarida butun Yer yuziga hukm beradilar, nafs va shaytonga ergashganlarida butun Yer yuzining kofir qavmlari ularga hukm beradi. Bu ularga jazo ekanligini kamdan kam idrok etadi. Ammo ularda halok bo'lishdan avval tavba qilish, yana izzatga erishmoq imkoni, bir muhlat bo'ladi. Bizda-chi, Ashia? Unday emas! Biz yana haddimizdan oshdik! Xorlik juda yaqin. Qirq yil oldin oramiz Muso bor edi. Horun bor edi. Atigi qirq yilda biz ularning ta'limini unutdik. Allohning amrini teskari ushladik, to'g'ri ushlamadik. Yaqin-orada hammamiz xorlanamiz. Shuni Muassarga aytl! Esi borida etagini yopsin! Butun shahar Muso davridagidek, yig'ilib Allohga tavba etsin! Alloh biror payg'ambarni yuborib, bizni gunohdan poklasa!

Ustozning huzuridan chiqib Ashia bobosining qoshiga bordi. Hayajonlanib, hamma eshitganlarini bobosiga soʻzma-soʻz aytdi. Bichilgan qul Saqif Gʻoba shu yerdi edi.

- Sohobim, - u yerga yiqilib, faryod urdi. - Ustoz yosh va goʻzal malikamizni qoʻrqitibdi. U bilan uchrashishni man etmoq lozim. Malikamiz bu vasvasalar ogʻushida uxlay olmay chiqadilar. Keyin kasal boʻlib qoladilar.

- Yoʻq, men kasal emasman! - jahli chiqdi qizaloqning. - Bobojon, ustozim toʻgʻri gapiryapti.

- Qaysarlik qilma, Ashia, - dedi bobosi muloyim ohangda. - Bor, dugonalaring bilan oʻyna. Bunday gaplar ila boshingni qotirma. Ulugʻlarimiz bor, biz bor, bu bizning ishimiz. Sen qaygʻurma!

... Shu voqeadan oʻn kun oʻtmay Muassar nevarasi Ashiani bir zodagonning oʻgʻliga majburlab erga berdi. Quli Saqif Gʻoba shuni maslahat bergan edi.

Bir tongda Muassar jang chorlovi ovozidan uygʻondi. Saroy tomiga shoshib chiqib qaradiyu, esi ogʻay dedi: shahar darvozalari ochilgan, yov qoʻshini butun olamni egallab olganday edi. Odamlar talvasaga tushib boshi oqqan tomonga yugurardi. Shahar darvozarini dushmanga kim ochib bergani Muassarga qiziq edi. U xoinni aniqlab, bor qoʻshin bilan tezda hujumga oʻtishni istadi. Ammo ortiga oʻgirilib, boʻgʻziga qadalgan tigʻni koʻrdi. Qarshisida Saqif Gʻoba turardi.

- Muassar, davring bitdi. Sen buyuk podshoh Jolutga topshiraman! - dedi u dadil.

- Xoin! - Muassar shunday deb hayqirdiyu, ishning haqiqatini bir onda angladi. U shaharda fohishaxonalarni koʻpaytirgan, jinoyatchi toʻdalarni saroy ichida qoʻllab-quvvatlagan, uni Jolutga sotgan, Ustozni qamatgan aynan qoʻynidagi ilon - Saqif Gʻoba ekanligini tushundi. Endi juda kech edi. Saqif Gʻoba oʻz hojasini zanjirladi va pastga olib tushdi. Saroydagi hamma asir olingan edi. Jolut lashkari saroyni talon-taroj etardi. Muassar bor-budidan ajraganini bildi. Beixtiyor oh tortdi. Saqif Gʻoba esa iljaydi. U oʻz

ishidan mamnun edi. U butun saroy ahlini zanjirlab, Jolutni kutgani chiqayotgan edi.

Olamni bir zumda zulmat bosdi. Lazzat ichidagi lazzatini, izzat ichidagi izzatini unutdi. Shaharda Jolut lashkarining suroni ko'kka o'rlar, ayollarning faryodi, go'daklar chinqirig'i, gunohkorlar nolasiga aralashib ketdi. Bosqin vahshati jonivorlar tinchini ham buzdi: itlar vovillar, mollar mo'rar, qo'ylar barardi.

Musibat o'lim shamolidek keldi, bu shamol hammani behalovat etdi. Jon qayg'usi mol qayg'usini daf etib yubordi.

Aksar odamlar qo'liga qurol olib dushmanga qarshi urushmoq o'rniga qochib qutulish vasvasasida edi. Alloh ularning gunohlari sabab qalblaridan hamiyat, jasorat va mardlikni olib, o'rnini qo'rqqoqlik, zaiflik va sotqinlik ila to'ldirgandi. Allohning elchisi ularni ko'p ogohlantirgan edi, ular, odatiga ko'ra, ko'rlik qilib, yana bir tahqirga uchradilar.

Saqif G'obaning odamlari zindondan Ustozni olib chiqisharkan, u zot chor-atrofdan ana shu haqiqat manzarasini ko'rayotgan edi.

... Shahar maydoniga yoshu qari, erkaku ayol, boyu kambag'al, a'yonu fuqarolar haydab kelindi. Hammaning ko'zi javdiraydi. Zodagonlar, boylar bir necha tuyalarini qullariga yetaklatib olishgan. Tuyalarga katta sandiqlar yuklangan. Jolut lashkari to'rt tomonni qora bulutdek qopladi. Ularning bo'yi baland, o'zlari baquvvat, tishidan tirnog'igacha qurollangan. Itoatsizlik qilgan odamni kim ekaniga qaramasdilar, chopib tashlardilar. Ko'chalarda qon jilg'adek oqdi, qon ko'lmaklari paydo bo'ldi.

Aksari kishilar dag'-dag' titraydi. Onalar bolasini bag'riga yashirishga tirishadi. Homiladorlar azobdan ingraydi. Kimdir kimgadir taskin ham beradi.

To'satdan yangragan baland va zulmkor ovoz hammani jalb etdi: shahar hokimi Muassar, o'g'li Aslam, nevarasi Ashia, nevara kuyovi va Ustozni qamchilab sazoyi holda maydonga olib kelayotgan edilar. Olomon so'zsiz qotdi. Umidlar butkul so'ndi. Xalqning ishonchi sinib, parchalandi, balki kukunga aylanib, sochildi. Hamma nafasini yutdi. Odamlar orasidan qamchilab olib o'tilgan shahar hukmron oilasi maydonning qoq o'rtasida, tepaga yangi o'rnatilgan taxt qarshisiga tiz cho'ktirildi.

Ashia dam otasiga, dam eriga, dam bobosiga javdiradi. Bobosi qo'rquvdan tosh yutgandek jim, uzun oq soqoli titrar, sochlari yelkasida betartib yoyilgan, libosida qon izi. Otasi ham, eri ham shu alfozda edilar. Yolg'iz Ustoz xotirjam, balki, boshini tik tutib, na yuzida, na harakatida bir qo'rquvni sezdiradi.

Olomonning ajablangannamo ovozi yangradi: maydondagi taxt yonida hashamdor libosda Muassarning bichma quli Saqif G'oba paydo bo'ldi.

U qo'lini hokimona ko'tarib, jim bo'ling, degandek ishora qildi. Odamlar shuursiz ravishda jim bo'ldilar. Saqif G'oba bor ovozi ila baqirdi:

- Podshohlar podshohi, yurtimizning yangi, adolatda tengsiz, qudratda cheksiz hukmdori Jolut hazratlari kelmoqdalar!

Dovullar qoqildi. Otlar kishnadi. Saqif G'oba esa yana kuchanib chinqirdi:

- Tiz cho'k va bosh eg, xaloyiq!

Yettinchi bob

Ko'pchilik taraddudda turib qoldi. Bichma qulning amrini bajarish, harqalay, biroz bo'lsa ham, hamiyatga tegayotgan. Saqif G'oba buni sezdi. Sezdiyu, quturib, bo'kirib yubordi:

- Kamonchilaaar!

Olomoni qurshagan Jolutning kamonchilari yoyga paykonni o'rnatdilar. G'oba o'q uzishga ishora qilish uchun qo'lini ko'tardi. O'n minglab odamlar bir vaqtning o'zida duvillab to'kilgan mevadek o'zini tizzasi bilan yerga tashladi. G'oba hokimiyat qudratini idrok etib, behad kerilib, yoyilib ketdi, odamlarning qo'rquvda tiz cho'kishini ko'rib, buni o'z qudratidan deb o'yladi va nafasi qaytib, bir muddat hayajonlandi. So'ng ulkan saltanat egasidek hayqirdi, shunday hayqirdiki, ovoz paylari favqulodda cho'zildi, tovushi maydonning har burchiga yetib bora boshladi:

- Itoat qilmagan o'ldiriladi! Tanasini bo'laklab, itlarga yem qilaman! Ulug' podshoh Jolutga sharaflar bo'lsin!

Olomon orasida beixtiyor yo'lak ochildi.

Qora ot mingan, qora libos va qora sovut kiygan Jolut yo'lakdan kela boshladi. Jolut boshiga qo'ndirgan dubulg'a tojga o'xshardi. Mo'ylovini ikki yonga ikki qarichcha uzun qilib o'stirib, o'rdirgandi. Qalin soqoli ham qop-qora bo'lib, ko'kragi tushgan va uchta qilib o'rilgan, uchlariga esa yoqut ko'zli taqinchoq taqilgan. Jolut kiyimining chetlariga, sovutining qirralariga olmos toshchalarga qadatgandi. Etigi ham qora va uchi qayrilgan bo'lib, unda ham olmos toshlar yiltiraydi.

Oti, yugani, suvlig'i, qamchisi, qurol-yarog'lari ham o'ta jiddiyat va katta did bilan ziyatlangandi. Jolut maydon o'rtasida to'xtadi, Saqif G'oba uning oyog'iga tiz cho'kib yelkasini tutdi. Podshoh bichma qulning yelkasiga oyoq qo'yib, otdan tushdi.

Hech kimga nazar ham solmay, o'zi uchun hozirlangan taxtga borib o'tirdi. So'ng Saqif G'obaga qarab, ko'rsatkich barmog'i bilan ishora qildi. Saqif G'oba bor ovozi bilan baqirdi:

- Podshoh ruxsat etdilar: boshingizni ko'taring!

Xalq boshini ko'tarib, taxtda katta kibr, qahr va beshafqatlik ila o'tirgan bir mustabidni ko'rdi. Cho'zinchoq yuzni to'ldirgan chuqur ajinlar, cho'tirlar, o'yib olgudek tikiladigan ko'z, siyrak qosh, keng yelka Jolutdan bir qo'rqinch yog'dirayotgandek edi. Uni ko'rgan aksar odamlarning dami yanada ichiga tushdi.

Bosqinchiga hayiqish ila qarayotganlar orasida bir kishi yo'q edi. Bu Ustoz bo'lib, yerda - maydonning o'rtasida boshi yorilib, o'z qoni ichida behush yotardi. Chunki faqat u tiz cho'kmagan edi, bosh egmagan edi, bir navkar uning boshiga qilichni qini bilan urib, shu holga soldi.

G'oba Jolutdan izn olib, nutq boshladi:

- Ey odamlar! Meni eshit! Balsiso qavmining sarasi, Amiqiylar podshohi Jolut hazratlari buyuradilarki, hammangiz u kishi uchun bir qulsiz. Qul ekanligingizni unutmang!

G'oba shu nuqtada so'zini uzib, hammaga bir-birma o'qraydi. Ayni shu payt uning qulog'i ostida Quvilganning: "Sen eng aqlli va qudratli hukmdorlari ishini bajaryapsan!" - degan ilk olqishi yangragan edi. G'oba hokimiyat qudratidan mast bo'lgani uchun ovozga ahamiyat bermadi, zotan, u bundan ham quyuqroq bir maqtov istayotgandi.

- Siz podshohning quli o'laroq uning hamma xizmatiga shay bo'lishingiz shart! Podshoh o'l, desa, shu ondayoq o'ling! Tiril, desa, tiriling! Chunki hukmdorimiz o'z qullarini farzandlaridek yaxshi ko'radi. Sizlarga zinhor yomonlikni ravo ko'rmaydi! Sizlar podshohimizni sharafsang, maqtang, unga itoat qiling, uni yaxshi ko'ring!

G'oba shu qadar jo'shib so'ylardiki, uning nutqi odamlarga ta'sir qildi. Qo'rquvdan karaxt olomon uning sehrli nutqidan yig'lay boshladi. Tuya yetaklatib kelgan boylardan biri o'zini yerga otdi, yerni o'pib, ovozi qaltirab gapira boshladi:

- Sizga jonlarimiz fido, Jolut hazratlari! Arzimas hadyamizni qabul qilib, bizni baxtiyor aylang!

G'oba savol nazari bilan egilib, podshohga karadi. Podshoh ma'qul, degandek boshini qimirlatdi. Boy ikkita katta sandiqni qullariga ko'tartirib, G'obaning amriga ko'ra, Jolutdan yetti qadam uzoqqa qo'yirdi va qopqog'ini ochtirdi: sandiqlar tillo va javohirlarga to'la edi.

Jolut qabul qildim, degandek bosh silkidi. Boshqa zodagonlar ham podshohga o'z sovg'alarini maydonga tera boshlashdi.

Muassar bu ishlarga anqovsiragandek qarab o'tirardi. Ustoz bu orada hushiga keldi. Qiynalib bo'lsa-da, o'rnidan turdi. Tiz cho'kib, titrab o'tirgan o'n minglarcha odamga, keyin taxtdagi Jolutga, uning yonidagi Saqif G'obaga boqib, vujudidagi hamma kuchini to'plab, hayqirdi:

- Alloh Buyukdir! Alloh Ulug'dir! Allohni unutib, gunohlarga mashg'ul bo'lganlar, Alloh amridan bo'yin tovlab, nafsiga qullik qilgan xuddi sizlar kabi bir qora it qoshida tiz cho'kib, titraydi, xor bo'ladi!

Butun olam jimlikka cho'kdi. Hamma sasini yo'qotdi. G'oba hushini to'plab, qilichini qindan sug'urdi. Ammo Jolut to'xta, deb ishora qildi.

- Ey Jolut! Senda Namrud va qibtiy fir'avning qiyofasi bor. Sen podshohlikka qanoat qilmaysan. Sen shirkka qanoat qilmaysan. Sen xudo bo'lmoqchisan. Yoningdagi bichma qul ham shuni istaydi! Ikkalang bilib ol: senlarni dunyoda xorlik, oxiratda jahannam kutmoqda! La ilaaha illalloh!

Bu so'zlar tig'dek Jolutga sanchildi, podshoh o'rnidan hech kutmagan chapdastlik ila turdi va qilichini yalang'ochlab, Ustozning oldida paydo bo'ldi. Ikki qo'li bilan Ustozning bo'yniga qilich soldi. Muassar dag'-dag'

qaltirab, boshini yerdan ololmay qoldi, Ashia qo'rquvdan chinqirdi, bu chinqiriq uning otasi Aslamni hushiga keltirdi. Aslam bor ovozi ila: "Allohu akbar!" deb Jolutga otildi. Jolut bir keskin harakat bilan Aslamni ikki bo'lakka bo'ldi. Ashia hushdan ketdi.

Olomon ichida ham kimlardir qichqirib yubordi, kimlardir yerga yiqildi.

Jolut qilichini Muassarning bo'g'ziga qadadi. Muassar nafasi tiqilib, bo'g'riqib dedi:

- Podshohim, men sizning qulingizman. Sizning yo'lingizdaman! Meni omon qoldiring!

Jolut buni kutmagan edi, shekilli, ko'zlarini katta-katta ochdi, tund yuzida ajablanish yilt etib, yo'qoldi.

Podshoh qilichini qindan sug'urishi, ikki kishini qatl etishidan hammaning, hatto, G'obaning ham yuzidan qon qochdi.

Jolut taxt yoniga qaytdi va gap boshladi:

- Ey mening qullarim! - mustabidning ovozi guldirab chiqdi. - Men marhamatli, qudratli hukmdorman. Biroq menga tuhmat qilganlarni, yomon tilak tilaganlarni, ya'ni, menga qarshilarni qatl qilaman. Sizning itoatingiz menga yoqdi. Shuning uchun, hammangizni o'zimga qullik qilishdan ozod etaman!

G'oba sakrab ketdi:

- Naqadar mehribonsiz, podshohim!

Olomon gurillab, uning gapini takrorladi. Jolut esa salmoqlanib, davom etdi:

- Sobiq hokimingiz mening yo'limga o'tib, jonini qutqardi. Oilasini qutqardi. Sizlarga sadoqatli qulim

Saqif G'oba bugundan boshlab hokimdir. Unga bo'ysuning. U mening o'ng qo'lidir!

Jolut shunday dedi-da, shahdam yurib, otga mindi. G'oba yer o'pib, "Sizga jonim fido!" - deb yig'lab qoldi.

...Ashia xotiralar og'ushida manzilga yaqinlab kelayotganini sezmayotgandi. Dimog'iga cho'chqaning achimsiq hidi urildi. Ashia esa G'obani taxtdan tushirishga harakat qilib, o'ldirilganlar haqida o'ylab ketdi.

Saqif G'oba Jolut o'z yurtiga qaytishi bilan ikkita yangi farmon chiqardi: birinchi farmon odamlarga shahardan chiqishni qat'iy ta'qiqladi. Ikkinchi farmon podshoh Jolut suratini shahardagi hamma uylarning ichiga chizdirish majburiy ekanligi haqida edi.

Xalq, avval, jonini saqlaganiga rozi edi, bu farmonlardan so'ng G'obaning nasabsizligi eslandi, uning Muassarga xiyonati aytili.

Jolut o'ldirgan Ustozning yoshi ulug' do'stlari biror chora ko'raylik, dedilar. Ular Musoni ko'p gapirishdi, bir necha hafta ichida G'obani hoqimlikdan olish haqida yakuniy qarorga keldilar.

Saqif G'oba o'z hokimiyatidan mast edi. Jolut uning xizmatida mingta jangchisini qoldirgan edi. Butun shahar G'obaga tez taslim bo'ldi. U zudlik bilan o'ziga ko'rsatiladigan hurmat haqida bir necha qarorlar chiqardi: hokimga murojaat qilishda har kim tiz cho'kishi shart, hokimning hukmi muhokama etilmasin, norozi kayfiyatdagi har kim dushman hisobida bo'lib, uni aniqlab, xabarini bergan odamga juda katta mukofotlar bor, shahar aholisi ichidan lashkarga odam olinadi, lashkar podshoh Jolutning qo'l ostida urushlarga chiqadi.

G'oba har safar har xil amru buyruqlar, farmonu farmoyishlar berarkan, eskiyu yangi qoidalarni o'rnatib, ijrosini talab etarkan, o'zini qanotsiz parvoz qilayotgan sezardi. Bu tuyg'u, ayniqsa, uning tashriflari asnosida olomon boshini egib, toshday nafas olmay qotib qolganida, uning ijozati bilan odamlar uni olqishlashganida, qiynalib ketgan biror bechoraga

marhamat ko'rsatganida, qonunni buzganlarni ayovsiz jazolab tashlaganida yanayam kuchayib ketardi.

"Mana men, kim menga daxl qila oladi!" - deb ichida o'ylaganlarini biroz o'tmay oshkor aytishga o'tdi. Saqif G'oba odamlar kutmagan ishlarni qilishni sevardi.

Kishilarni mansabga tayinlash va bo'shatishdan huzurlanardi. Shuning uchun, shaharda biror kishi biror vazifada uch oydan ortiq ishlolmadi. Boshqaruvda qobiliyatli odamlar aslo bu shaklda ishlashni xohlashmadi.

G'oba shu kabi ishlari bilan ko'zlari yumilgudek darajada mast bo'lib yurganida nisbatan yoshroq bir odam uning huzuriga kelib, tiz cho'kdi.

- Ismim Tasmin, - dedi u. - Muso izdoshlari sizni hokimlikdan tushirishmoqchi.

Tasmin hammasini bayon etdi. Uning axborotiga ko'ra, shaharning ulug'lari Jolutning qasriga borib shikoyat qilishar emish. Ular nasabining tayini yo'q, naslsiz G'obaning o'rniga boshqa kishini, ya'ni aslzoda, ota-onasi Yoqub farzandlaridan bo'lgan, uylangan, bir necha xotinli, bola-chaqali, boy biror odamni hokimlikka tayinlashini talab qilarmishlar.

G'oba Tasminning hamma gapini eshitdi-da, "Sening kelajaging porloq, shunday buyuk ishlarda davom et!" - deb maqtadi.

Tasmin ketishi bilan G'obaning miyasiga qon tepdi.

"Meni almashtirisharmish!" - deb tutaqdi. Quvilganning ovozi esa uni dahshatga soldi: "Shahar ahli Jolutga aytib, seni hokimlikdan olsa, ne bo'ladi, bilasanmi? Seni tilkalab tashlaydilar. Chunki sen ularga qattiqqo'llik qilyapsan. Agar tadbir bilan, hiyla bilan ish tutmasang, yaqinda avvalgidanda, xor bo'lajaksan!"

Saqif G'oba hokimiyatdan ketishni cheksiz dahshat deb his qila boshladi. Tasmini chaqirib, unga bir necha topshiriq berdi.

Tasmin shahar ulug'larining davrasiga kirib borib, ularga: "G'obaning ustidan shikoyat qilishdan oldin o'ziga uning xatolarini bildiraylik, balki, isloh etar!" - dedi. Qariyalarga Tasminning gapi yoqdi.

Belgilangan kunda yoshi ulug'lardan o'n kishi Saqif G'oba saroyiga yo'l oldilar. Ular saroyga yaqinlab kelisharkan, ularga har xil odamlar beso'roq qo'shilib, yura boshlashdi. Yangi qo'shilganlarning qiyofasi yoqimsiz edi. Chollar bir ko'ngilsizlikni sezgandek bir-birlariga qarab qo'ydilar. Odamlar esa ko'payishda davom etdi. Hokim saroyi oldiga yetib kelganlarida o'n qariyaning ortida ming kishilik olomon bor edi. Qariyaqarning ulug'i egilib, saroy eshikboniga:

- Janobimiz Saqif G'obaning muborak huzurlariga kirishga izn so'raymiz!.. - dedi.

Eshikbon olomonga biroz hadik bilan qarab:

- Hammangiz kirmoqchimiz? - deb so'radi.

- Yo'q-yo'q, - shoshib javob qildi chol. - O'n kishiga izn so'rayapmiz.

Eshikbon indamay ichkariga kirib ketdi.

Bir necha daqiqada saroy devoridan tashqariga chiqarib, xalq bilan so'zlashish maqsadida qurilgan ayvonda Saqif G'oba paydo bo'ldi.

- Xaloyiq, nima gap? - dedi.

Qariyalar javob berishga ulgurmadilar, ularga yo'lning o'rtasida qo'shilib olganlardan biri qo'ynidan kamon olib, o'qladi va G'obaga otdi. O'q hokimning yelkasiga sanchildi. O'q otgan odam:

- Hokimga o'lim! - deb baqirib, yerdan tosh oldi va saroy tomonga otdi. Olomon guvillab yerdan tosh izlashga tushdi. Saroyga toshlar yog'ildi. Bu narsa qariyalarning rejasida yo'q edi. Ular qanday yo'l tutishni bilmay qoldilar, bilganlarida ham qo'llaridan bir ish kelmasdi, shubhasiz.

Ular faqat "Eh, beboshlar! Ishimiz yurishmaydi, endi!" - deyishardi olomon ichidan chiqib olgani tirishib.

Saroy tepasida yuzlab yoyandozlar ko'rindi. Ular olomon ustidan o'q otdilar. Odamlardan ba'zilari yerga yotib oldilar, ba'zilar duch kelgan tomonga o'zini urdi. Biroq kim qaysi ko'chaga kirmasin Saqif G'obaning qilich yalang'ochlagan navkarlariga yo'liqdi. "Taslim bo'ldim! O'ldirmang!" deganlarga ham rahm qilinmadi, bir tekisda qirg'in boshlandi. Qon tuproqqa qorishib, qizg'ish-qoramtir loy hosil bo'ldi, o'nlab odamlar bu shilimshiq loyda toyib yerga yiqildi.

Xunrezlik yarim soatlar davom etdi. Saroy oldi jasad bilan to'ldi. Tiriklar ham o'likka aylangandek shuursiz gangib turardilar. Navkarlar qolgan-qutgan hammani hibsga oldi, yaradorlar o'ldirib yuborildi. Yana bir guruh lashkar o'lik tozalashga tashlandi.

... Saqif G'oba saroyda jarohatli yelkasini bog'latayotganda Tasmin kirishga ijozat so'radi.

- Janobim, siz istagandek bo'ldi. Men yollagan odamlar g'alayonni boshlab berishdi. Buyuring!

- Juda yaxshi, - yoyilib iljaydi G'oba. - Endi tergov boshla. Meni taxtdan ag'darishga ana shu o'nta chol boshchilik qilishganini isbotla. Aholi orasida bizga qarshi odamlar bordir?! Ularni ham top!

Tasmin ikki kunda shaharning har bir dahasidan yuzlab odamlarni hibsga oldi.

Ular Vahshiyilar zindoniga tashlandi. Ayovsiz tergovlar boshlandi. Uchinchi kun davlat to'ntarishi qilishni rejalashtirgan, hokimni aldab xalq oldiga chaqirgan chollarning jinoyati "guvohlar"ning so'zi ila isbotlandi. Ular osildi. Yana bir qancha kishilar chopib tashlandi. Yuzlab odamlar muddati belgilanmagan holda zindonlarga tashlandi.

Butun shaharni adoqsiz qo'rquv qamradi. Aholi nafas olishga hayiqardi.

Saqif G'obaning cheksiz hukmronligi boshlandi. Unga shu voqealar jarayonida g'arblik bir kohin shahar chetida odamlarni qandaydir toshlarga, haykallarga sig'inishga da'vat qilayotgani xabarini berdilar. G'oba darhol uni chorlatdi, ibodatxona qurib, diningni yoy, deb amr qildi. Avreliy Astinos shu tariqa G'obaning yonida paydo bo'ldi.

Sobiq hokim Muassar saroy zindonida edi. Ashia esa eri bilan saroydagi qora ishlarni qilardi.

Qirq yil Saqif G'obaning qon va qo'rquv ustiga qurilgan hokimligi ostida o'tdi. O'n yil oldin Muassar o'lgach, Ashia va erining ahvoli qiyinlashdi. G'oba ularni qulim, deb atay boshladi. Yumushlarini ko'paytirdi. Ashia bir necha farzandini tuproqqa qo'ydi, ammo kenjasi yashab qoldi. Ayol Roqibni ko'z qorachig'idek avayladi. G'obaning zulmu zug'umlaridan shu farzandi sababli omon chiqdi.

Hozir u cho'chqaxonaga kirib borarkan, "Allohim, Senga iymon keltirdim, murtad bo'lganim uchun Senga tavba qilaman. Bolam Roqibni Senga omonat topshirdim", - deb pichirlardi.

Cho'chqaxonaga behad sassiq bo'lib, bu yerda minglab cho'chqalar boqilardi. Qo'lidagi kishanlari yechilishi hamon Ashia o'zini cho'chqalar ichiga urdi. Cho'chqaning najosatini olib yuziga surdi. Cho'chqalar dumalaydigan balchiqqa tizza bo'yi botdi. Ayni shu lahza Tasminning ikki odami cho'chqaxonaga kirib, jinoyatchi xotinni so'radilar. Cho'chqaboqarlar boshidan balchiq va cho'chqa peshobini quyib o'tirgan ayolni ko'rsatdilar. Bu ayolga qo'l tegizish u yoqda tursin, yaqinlashmoq mumkin emasdi. Tasminning odamlari ayolning bu ahvoliga biroz qarab turdilar-da, qo'pol so'kinib ortga qaytishdi.

Ashia hammasini aniq idrok etayotgandi, iffatini saqlagani uchun Robbisiga hamd aytdi. Ich-ichidan bir nadomat, tavba otilib keldi, ayol o'ksinib-o'ksinib yig'ladi, bu yig'i zamirida ham istig'for, ham yolvorish, ham umid mujassam edi. Buni tavba olovida qalbi erimagan g'ofillar hargiz anglay olmaslar.

Sakkizinchi bob

... Roqib uch kunda ko'zini ochdi. Tepasida o'tirgan Qariyani ko'rdi. Qariya nimalarnidir pichirlayotgan edi.

- Onam menga koinotning yakka xudosi bor, deb aytgan edi... - Roqib madorsiz shivirladi. Biroq Qariyaning hamon yaxshi eshitadigan qulog'i uning gapini ilg'adi.

- Onang to'g'ri aytgan, Roqib, - dedi uning ustiga biroz egilib. - Bu yakka iloh Allohdir. Allohdan bo'lak ibodatga sazovor boshqa biror iloh yo'q! Bo'lishi mumkin emas!

- Allohdan bo'lak ibodatga sazovor biror iloh yo'q!.. Bo'lishi mumkin emas!.. - Roqib kuch bilan shu kalimani aytdiyu, qalbiga yog'ilgan sakinat yomg'irini tuydi. U yo'qotgan, ammo eng zarur narsasini topganini idrok etdi. Alloh lafzini aytarkan, Allohning yakka iloh ekanligini tilda iqror ila qalbdagi tasdiq qilarkan, Roqib o'zini ajib himoya, behad mustahkam himofa ichiga kirganini bildi. Zulm, umidsizlik, zaiflik va ma'nosizlik changalidagi bir ilohsiz qalb aslo uzilmaydigan, zinhor zavol bo'lmaydigan bir arqonning halqasini qattiq ushladi. Tuyqus jarohat og'riqlari bu ehsos qoshida yo'qoldi. Roqibning dunyosida olamlarning yakka Robbisini yaxshiroq tanish niyati jo'sh urdi. U o'z Robbisining barcha komil sifatlariga ega, har qanday nuqsondan pok Zot ekanligini qalbi ila bilib, aqli ila taslim bo'lib, Unga ruhi ila talpinayotgan edi. Biroq Roqib bu kechinmalarini so'zga evirib taqdim etishdan ojiz edi. Aslida ham, bu narsalar na izhorga, na ishrohga muhtoj emasdi. Zotan, bir banda va Alloh orasidagi bog'lanish begonalar ko'ziga suvratlanadigan, suvratlanishi mumkin bo'lgan hodisa emas.

Qariya esa Roqibning ruhoniyyatidagi har bir to'liqinni so'zsiz va sassiz sezayotgan edi. Zotan, bir qalbdagi mavjlangan sof iymon ikkinchi qalbdagi sof iymondan zarracha farq etmagay. U yaxlit narsadir. U tavhiddir. Yuz yoshdan oshib ketgan kekcha jangchi va o'n yoshga to'lmagan bir go'dak ayni shu yakka nuqtada azaldan bir-biriga mahbubu, abadiy ahabob edi.

Qariya Roqibning suv ichishiga yordamlashdi, ivitgan nonlarini tutdi. Biroz tamaddidan so'ng Roqibning holati yanada yaxshilandi. Jarohat og'rig'i yo'q edi. Roqib devorga suyandi. Uning bola yuzi uch kunda ulg'aydi, ko'zlarida chuqur dard porladi. Qariyaga dedi:

- Hamon Sizni qanday chaqirishni bilmayman...

- Ismim Atbo, - dedi Qariya. - Muso alayhissalomga ergashib, yakka ilohga - Allohga iymon keltirgan oilaning farzandi bo'lib tug'ildim. Olti yoshimda otamga ergashib urushga borganman. Baytil Maqdis uchun jang qilganmiz. Men jangchilarga suv, kamon o'qi tashib yurganman. O'shanda Muso alayhissalomni ko'rganman. U baland bo'yli, keng yelkali, yuzi oq va nurli, sochi qalin, juda baquvvat odam edi. Qo'lida Odam alayhissalomga jannatdan olib chiqib berilgan mo''jiza hassa bo'lardi. Uni Muso alayhissalomga qaynotasi Shuayb alayhissalom bergan.

Roqib qariya Atboning hikoyasini diqqat bilan tinglarkan, tushida ko'rgani - baland bo'yli, chap qo'lida hassa tutgan, o'ng qo'li marmarday oppoq kishini esladi.

- Muso alayhissalomning o'ng qo'li oq edimi? - deb Atboning so'zini bo'lib savol berdi. Atbo yigitga biroz hayrat aralash qaradi-da, tasdiqladi:

- Alloh taolo Muso alayhissalomga ko'plab mo''jizalar bergan. Shulardan biri u kishining oq qo'lidir. U kishi qo'lini qo'yniga tiqib, keyin chiqarsa, qo'li oppoq bo'lib, nur sochib chiqardi, sen buni qayerdan bilasan?

Roqib shoshib dedi:

- Shunchaki, o'zim... Siz menga Alloh haqida ko'proq aytib bering. Uning payg'ambarini yaxshiroq tanishtiring, iltimos.

- Allohning payg'ambari bitta emas, yuzlabdir. Ularning hammasi yakka Allohga ibodat va itoat etishga da'vat etdilar. Allohga sherik topishdan qaytardilar.

- Yakka Allohga ibodat va itoat etish nima degani? - Roqib o'zi uchun qandaydir gumon va xayollarga o'ralgan ma'lumot emas, aniq ilm istayotgandi. Atbo bir lahza tin oldi va o'ta jiddiyat ila so'z boshladi:

- Roqib, shuni bilki, sen buyuk savolni berding. Bu savolning javobini bilganingdan so'ng, sen uchun mangu saodat eshiklari ochiladi. Sen butun dunyo ustidan, shayton va uning malaylari ustidan, barcha zolimlar ustidan shunday muzaffariyatga erishasanki, bu muzaffariyatni biror inson, biror maxluq tortib ololmagay. Ammo o'zing bundan yuz bursang, senga hech bir kas yordam berolmaydi. Sen o'tirgan bu zindon, sen olgan u jazolar Allohning qahri oldida jannat va jannat ne'matiga o'xshab qoladi.

Atbo so'zlarkan, u yigirma besh yil zindonda qon yutib o'tirgan mahbus emas, ulul a'ziym payg'ambar Muso alayhissalom ta'limini olgan buyuk muvahhid edi.

- Roqib, shuni bilki, Allohga uch narsada qat'iy ishon. Avvalo, koinotdagi hamma ish Allohning ixtiyorida ekanligini bil. Bir dona barg Allohning iznisiz uzilmagay. Olamdagi eng mayda zarradan tortib, eng ulkan yulduzgacha - hammasi Robbimizning tasarrufidadir. Yuragingning har zarbi, xayolingdagi har o'y, qalbingdagi har tuyg'u Allohning ishidir. Har bir ishning Egasi, hamma ishning Sohibi Allohdir.

Atbo bu masalada uzoq gapirdi. Uning aytganlarini tushungan sari Roqib Allohning qudratini, har qanday aybdan pokligini teranroq his eta boshladi. Har ish Allohning tasarrufida ekan, bu tasarrufdan bo'yin tovlash, bu tasarrufdan tashqariga intilish eng aqlsiz ish ekanligiga idroki yetib keldi.

- Qat'iy ishonishing shart bo'lgan ikkinchi narsa shuki, inson faqat Allohga ibodat etmog'i, Allohga

itoat qilmog'i lozim. Alloh bandalariga O'ziga qanday ibodat qilishni o'rgatgan Zotdir. Har bir ishimiz Allohning rizoligi uchun yo'nalmog'i kerak. Alloh uchun bir ish bajarar ekansan, uni muhabbat ila ado et. Qo'l uchida emas, majburiyatdan emas, Allohning muhabbatini, roziligini qozonish uchun o'zingni fido qilib, o'sha ishni bajar. Agar bir ibodatni yoxud bir

ibodatga oid amalni Allohdan boshqa kimsaning yoki narsaning ra'yi uchun, roziligi uchun, uni Iloh qilish uchun bajarsang, bu shirkdir. Bu sening halokating hisoblanadi.

Shu alfozda Atbo bu ilmni ham uzoq anglatdi. Odatiga ko'ra, Tavrotidan oyatlar o'qidi, Muso alayhissalomning so'zlarini hujjat o'laroq keltirdi.

- Uchinchi narsa ham borki, bu ham ishonishing shart bo'lgan muhim nuqtadir. Allohning go'zal ismlari, sifatleri bor. Ularga ham qat'iyon ishon! Alloh bandalariga behad mehribon, Alloh har qanday nuqsondan pok, hammadan behojatdir. Bu uch narsa bir buyuk kalimaning ma'nosidir. Bir kuni Muso alayhissalom: "Allohim, Seni zikr qilishim uchun bir kalima o'rgat!" - deb yolvordi. Alloh: "Ey Muso, Laa ilaha illalloh, deb meni zikr qil!" - dedi. Shunda Muso alayhissalom: "Men buni bilaman-ku!" - dedi ajablanib. "Ha, bilasan, - dedi Alloh. - Ammo yana bilki, Yeru osmonlarni tarozining bir pallasiga, "Laa ilaha illalloh"ni ikkinchi pallasiga qo'ysang, bu kalima og'irroqdir!" Ey Roqib, sen ana shu buyuk kalimaning ma'nosini o'rganmoqdasan.

Roqib Atboning har bir so'zini qalbiga naqshlashga intildi. Ularning bir burchakda shivirlashib o'tirishlariga zindondagi boshqalar ham ko'nikdi. Tun va kunning farqini ular yemak tarqatish vaqtiga qarab ajratishardi.

Saqif G'oba o'z lashkari bilan Jolutning xizmatiga ketgani uchun zindonda ham zulm kamaydi. Soqchilar avvalgiday vahshiylashmas, zindon eshigidan mo'ralab bo'kiraverishmasdi.

Mahbuslar tana qotib qolmasligi uchun turli mashqlarni bajarishadi. Kimdir yotib olib, qo'lini yerga qadagancha oyoq uchlari bilan tik turadi va qo'lini yoyib-bukadi. Kimdir o'tirib-turadi. Hammaning qandaydir mashg'uloti bor, biroq tartibi yo'q. Atbo boshqacha yo'l tutdi: u har kuni yotib, qo'lni bukib-ochish hamda o'tirib turishning sanoqlarini nazorat qilib, Roqibga jismoniy quvvatlanish sabog'ini berdi.

Atbo Roqibga Arsh, Lavh, Qalam, Kursiy, Odam atoning yaralishi, shaytonning kibri va shu kabi ko'plab mavzularda gapirdi. Allohning ismu

sifatlarini tushuntirdi. Roqib har darsni qunt ila o'zlashtirdi. Qora zindon Roqibga cheksizlik sari bir yo'lga aylandi.

Besh yillardan keyin Roqibning yelkalari kengaydi, bo'yi o'sdi, ovozi yo'g'onlashdi, soqol-mo'ylovi sabza urdi, bilagida, mushaklarida kuch o'zini zohir etdi. Atbo unga dushman hujumidan himoya qilish haqida dars berishni boshladi. Keksa jangchi qo'l jangining bir uslubini sanoqsiz marta takrorlashni talab qiladi. Zindonda zulm kamaygani uchun boshqa mahbuslarning Atbo va Roqibga sababsiz adovat ko'rsatishi yo'qoldi. Endi ular orasida ham suhbatlar uyg'ondi. Bir necha mahbus xuddi ulardek ibodat qilishni istadi. Atbo ularni ham rad etmadi, yana uch kishiga Muso alayhissalom ta'limotini yetkazaverdi.

Yana besh yil shu tariqa kechdi. Roqib o'n to'qqizni to'ldirdi. Atbo esa yanada keksaydi. Roqib kuchga to'lib, ulg'ayib, ko'rkamlashgani sari Atbo keksayardi. Yelkalari bukchaydi, ko'zlari yanada ko'kimtir tus oldi, qo'llari, oyoqlarida o'n yil oldingi kuch yo'q edi, shunday bo'lsa-da, Atbo benihoya nurli edi. Uning yuzidan taralayotgan nur Roqibning nazarida zindonni yoritgandek tuyulardi, u o'n yilki, Atboni faqat zikrda ko'rdi. Biror on uni g'am yoxud qayg'uda topmadi, na o'tmish, na kelajakdan xavotirlanmasdi, "Robbimiz sari sayr etib bormoqdamiz, borar manzilimiz aniq, ne uchun qayg'u chekaylik?" - derdi goh. Roqibga: "Allohga taslim bo'!! Allahga muhabbatli bo'!! Allohdan qo'rq! Allohning rahmatidan umid uzma! Taslim bo'lmasang, kibrga zanjirlanasan. Muhabbatsiz ma'noni, zavqni, shavqni, shijoatni yo'qotasan, muz va toshga o'xshab qolasan. Allohdan qo'rqmasang, haddingni yo'qotasan, nafsing quturadi, umid qilmasang, shaytonning odatini tutgan bo'lasan!" - deb ko'p ta'kidlardi.

Atbo payg'ambarlarni sevib tilga olardi. "Robbimning elchilariga jonim fido bo'lsin! Odamlar orasida ular kabi ma'sum hech kim yo'q. Odamlar ichida ular kabi itoatga munosib hech kim yo'q. Odamlar ichida ulardek sevikli hech kim yo'q!

" - deb, Ibrohim alayhissalomni maqtab ketardi: "Ibrohim alayhissalom o'g'li Ismoil alayhissalom ila Ka'bani qurgan. Aynan Ibrohimga Alloh taolo:

"Taslim bo'li!" deganda, ul zot darhol: "Omlar Robbisiga taslim bo'ldim!" - deb aytgan. Ey Roqib, qanchalar zulm chekmaylik, biz Allohning vahiysi Yerga kelib turgan zamonda yashamoqdamiz. Oxiri zamonda Ahmad degan payg'ambar tug'iladi. U Arshga chiqadi. Muso alayhissalom Alloh bilan gaplashgan. Ahmad ham Alloh bilan ko'rishadi, yuzma-yuz bo'ladi. Gaplashadi! Hamma payg'ambarlar Allohga: "Ahmad bilan uchrashsam, unga iymon keltiraman, yo'lidan yuraman", - deb va'da berishgan. Men ham shu ulug' payg'ambar davriga yetsam, uning yo'lida jonimni berardim. Alloh habibim, degan zotni sevmay bo'lurmi?"

Atbo o'zi gapirib, ko'pincha o'zi yig'lardi.

"Robbimning qoshida qay holda bo'larkinman?" - deya shunday yig'lardiki, soqoli ho'l bo'lib ketardi, Roqib ham shu holga tushadigan bo'ldi. Alloh bilan yuzlashajak onlar uning ham fikru xayolini olardi. O'sha paytlarda zindonda ekanligini unutib, qayerlargadir uchgandek bo'lardi.

O'n to'qqiz yoshida Roqibning qalbida Ka'bai muazzamani ziyorat qilish istagi yanada olovlandi. Muso alayhissalomdan so'ng yuborilgan payg'ambar Yuvsha ibn Nun suhbatiga yetishish ishtiyoqi kuchaydi.

Atbo unga tabassum ila: "Men ham shuni istayman. Biroq qadar bitigi doim ustun", - der edi.

O'n yil o'tib, Jolut o'z poytaxtiga katta g'alabalar ila qaytdi. Sarkardalariga ham o'z shaharlariga borishga izn berdi. Saqif G'oba ham shaharga suron solib kirib keldi. Saxovatini olamga ko'z-ko'zlab, qirq kun dasturxon yozdi. Zindondan yuzlab mahbuslarni chiqardi, qolganlariga ham bir necha kun yaxshi taomlar ulashdi. U qandaydir yangi reja bilan kelgandi. Buni hamma yaxshi bilardi. Bu siylovlar ortida og'ir azoblar kelishi kunday ravshan edi. Odamlar Saqif G'obaning bu saxovatidan zarracha shodlana olmadilar. Ellik yillik istibdod xalq ongidan ishonchni, samimiyatni butkul supurib tashlagandi.

G'obaning "buyuk" rejasi biroq o'tib, hammaga ma'lum etildi.

To'qqizinchi bob

Baytil Maqdis!

Muqaddas shahar. Insoniyat tarixida kuch-qudrat tamsili bo'lmish buyuk shahar. Fotihlar, jahongirlar, podshohu qirollar shu shaharni zabt etish orzusida o'tdilar. Nabiylar makoni, fayzu futuh yog'ilgan muborak shahardir Baytil Maqdis.

Jolut qo'shini o'n yillik istilo davrida sharqiy hududlarning katta qismini egalladi. Bu qo'shin Isroil avlodlariga cheksiz adovatda bo'lib, qayerga bormasin, Yahudo bolalarini qatl etishga, mol-mulkini talashga intildi. Bor-budidan ayrilgan Bani Isroil qavmining zodagonlari, faqirlari, turli toifalari miloddan avvalgi taxminan minginchi yillarda Baytil Maqdisga yig'ilib keldilar. Jolutning ayovsiz qirg'ini ularni shu joyga haydadi. Chunki ular Muso alayhissalomdan so'ng Shamuil ibn Bali alayhissalom bu shaharda odamlarni Musoning shariatiga da'vat qilayotganini eshitdilar. Muso alayhissalom ularni barcha balolardan qutqargani kabi ul zotning izdoshi, payg'ambar, osmondan xabar aytayotgan Shamuil alayhissalom ham Jolut balosini daf qilishiga umid bog'layotgan edilar.

Baytil Maqdisning kattayu kichigi, boyu kambag'ali, zodagonu fuqarosi bir joyga yig'ilib, Shamuil alayhissalomni taklif etdilar. Shamuil alayhissalom aytilgan vaqtda kelishilgan joyda hozir bo'ldilar. Bani Isroil qavmi bezovta edi. Odamlar to'p-to'p bo'lishib, nimalarnidir muhokama qiladilar. Tashvishmand ovozlar har yoqni qoplagan.

Shamuil alayhissalom kishilar orasidan yurib o'tib, o'zlari uchun yasab qo'yilgan minbarga chiqib o'tirdilar. U kishi qo'llarida Muso alayhissalomning mo''jizakor hassasini ushlab olgan edilar.

Odamlar payg'ambarning kelganini bilgach, g'ala-g'ovur bosildi. Qavmning zodagon, aslzodalari Shamuil alayhissalomning qarshilarida saf tortdilar.

Allohning payg'ambari xalq uning so'zini kutib, sukut saqlayotganini ko'rib, gap boshladi:

- Olamlarni yaratgan Zot yakka Allohning O'zidir. Uning sherigi yo'q, tengi yo'q. U barcha maqtov Egasidir. Maqtov Unga xosdir. Hukm Unikidir. Kuchquvvat Unikidir. Ibodat qilishga loyiq yagona Zot Udir. Ey odamlar, Allohga ibodat qiling! Allohdan qo'rqing! Muso alayhissalom Allohning bir oddiy bandasi va haq payg'ambaridir. Men uning payg'ambar ekaniga, Tavrot Allohning Muso alayhissalomga bergan Kalomi ekanligiga guvohlik beraman. Men Shamuil ibn Bali Allohning oddiy bandasi va Uning haq payg'ambariman. Men Muso alayhissalom shariatiga o'z qavmimni da'vat etish uchun payg'ambar qilindim. Oxiri zamon payg'ambari, Allohning habibi, xalili Ahmad men yashayotgan zamonda kelsa, unga iymon keltiraman, unga ergashaman, uning yo'lida jang qilaman. Ey Isroil bolalari! Ey mening qavmim! Sizlarni ana shu aytganlarimga chaqiraman! Qabul qiling! Qabul qilganingizni ayting va men sizlarning so'zlaringizni eshitaman. So'zlang!

Shamuil alayhissalom va'zni tugatgach, odamlar gurilladi:

- Ey Shamuil! Sening hamma so'zing haq! Allohdan bo'lak iloh yo'q! Sen Allohning bandasi va haq payg'ambarisan!

Shamuil alayhissalom ularning ijobatini diqqat ila tingladilar va osmonga qarab dedilar:

- Olamlarni yaratgan Robbim Alloh! Qavmim iymon keltirdi. Men guvohlik beraman. Sen ham guvoh bo'!- so'ng odamlarga dedi: - Qanday savolingiz bor, so'zlang!

Zodagonlardan biri baland ovozda so'z boshladi:

- Ey Allohning payg'ambari! Bizga bir podshoh tayin qil! Biz uning qo'l ostida Alloh uchun jang qilaylik!

Shamuil alayhissalom bu soʻzni aytgan odamga diqqat bilan qaradilar-da, nigohlarini odamlarga burdilar:

- Jang qilasislarmi?

- Jang qilamiz! Jang qilamiz! Jang!

Shamuil alayhissalom qoshlarini chimirib, oʻychan ohangda dedilar:

- Alloh sizlarga urushni farz qilsa, balki urushmassiz? Chunki siz vaʼdasini tez unutadigan qavmsiz. Tez qaror qilib, undan tez voz kechadigan xalqsiz. Bir narsaga iymon keltirib, unga juda koʻp shubha qiluvchisiz. Jasoratni daʼvo qilib, qoʻrqoqlikdan sira uyalmaysiz. Oʻzingizni maqtaysiz, holbuki, oʻzingiz aytgan sifatlarning bittasiga ham ega emassiz. Yoʻq narsani bor deb aytasiz, bor narsani tan olmaysiz. Oqni qora, qorani oq deyishdan hayo etmaysiz. Oʻzingizni aldab, ovutib yuraverasiz. Joningizga xatar kelib, oʻlim bilan yuzlashmagunigizcha joyingizdan qimirlamaysiz. Esingizni yigʻmaysiz. Oʻtmish xatolaringizdan xulosa chiqarmaysiz. Juda koʻp gapirasiz. Juda koʻp uxlaysiz. Juda koʻp koʻngilxushlik qilasis, haq soʻzga toqatingiz yoʻq. Sabot va subut sizga begona. Zulmdan boshqa narsa sizni mehnatga majburlay olmaydi. Xorlik botqogʻiga choʻkib borasis, ammo oʻzingizni katta tutasis. Shuncha illatingiz boʻla turib, Alloh yoʻlida urushmoqchisiz. Tafakkur qiling, Alloh sizlarga urushni farz qilsa, balki, urushni istamay qolasis?!

Odamlar jim boʻlib qoldilar. Shamuil alayhissalomning biror soʻziga eʼtiroz etolmadilar. Chunki paygʻambari ular haqidagi ayni haqiqatni aytdi. Ammo zodagonlar oʻz soʻzlarida qatʼiy turishdi:

- Ey Shamuil! Ey Allohning paygʻambari! Sen toʻgʻri aytding. Biroq bugun vaziyat boshqa. Jolut bizning yurtimizni bosib oldi. Bolalarimizni oʻldirdi, qul qildi, bizni oʻz yurtimizdan quvib chiqardi. Bani Isroildan kimni tutsa, qatl qilyapti, qullikka majburlayapti. Jolut toʻkkan qonlar daryo boʻldi. Agar uni toʻxtatmasak, yer yuzidan bizning qavm qirilib ketishi mumkin. Biz urush qilamiz! Bizga oramizdan bir podshoh tayinla, ey Allohning paygʻambari!

Shamuil alayhissalom qavmning shovqini bosilishi bilan o'rnidan turdi:

- Men Robbimga duo qilaman. U xohlasa, podshohni qanday topishni menga vahiy etadi. So'ng sizlarni chaqiraman.

Shamuil alayhissalom minbardan tushib, kelgan yo'llaridan ortga qaytdilar. Odamlar: "Urush qilamiz!" "Qachongacha zulmga toqat qilamiz!", "Biz Yoqub payg'ambar qavmimiz, bizni hech kim yengolmaydi!", "Alloh bir podshoh yuborsa edi! Bizning ham podshohimiz bo'lsa, Jolutning ta'zirini berar edik!" degan gaplar bilan tarqalishdi.

Erta tongda Baytil Maqdis aholisi orasida: "Hamma Shamuilning minbariga yig'ilsin!" Bugun bizga podshoh tanlanar ekan", degan xabar tarqaldi.

Hech kim podshoh qay yo'sinda tanlanishini bilmasdi, biroq, o'sha tanlanish ichida bo'lishni istayotganlar ko'p edi. Bir soatga bormasdan Shamuil alayhissalomning minbari atrofi minglarcha odamlar bilan to'ldi. Podshoh ularga, albatta, katta sharaf, kuch-quvvat keltirishiga hamma ishonayotgan edi. Rahbarlikka haris bo'lgan kishilar minbarni o'rab oldilar. Podshoh qay yo'sinda tanlanishini hech kim bilmasdi, biroq, o'sha tanlanish ichida bo'lishni istayotganlar ko'p edi.

"Shamuil kelyapti!", "Allohning payg'ambariga yo'l beringlar!" - degan shovur ko'tarildi. Shamuil alayhissalom odamlar orasidan shoshmay yurib kelib, minbarga chiqdilar. Sukut cho'kdi.

- Ey odamlar! Alloh ibodatga loyiq yagona Ilohdir. Allohdan qo'rqing. Allohning azobi qattiqdir. Sizlarni Allohning azobidan ogohlantiraman! Allohning payg'ambarlariga ergashing! Bilingki, Alloh duoimizni ijobat etdi. Alloh menga shu qavm ichida bir podshoh borligini bildirdi. U Allohdan qo'rqadigan, Allohga itoat etib, Uning elchisiga ergashadigan bir insondir. Alloh o'sha podshohni O'zi istagan vaqtda, O'zi xohlagan joyda bizga tanitadi. Podshoh kimligi aniq bo'lgach, unga Alloh yo'lida itoat etish zimmangizdadir. Sizlar Alloh tanlagan podshohga itoat etasizmi?

- Itoat etamiz! - hamma bir ovozdan javob berdi.

- Podshohlikni orzu etayotganlar mening oldimga navbati ila kelsin! - Shamuil alayhissalom shunday deb, qo'llaridagi hassani minbarga tekis qilib suyardilar. - Otamiz Odam alayhissalomga Alloh inoyat qilib bergan hassaga qarang! U hassani Shuayb alayhissalom kuyovi Muso alayhissalomga berdi. Bu hassa daryo ustida ko'priikka aylanadi, fir'avn sehrgarlarining soxta ilonlarini ajdaho bo'lib yutib yubordi. Bani Isroilning o'n ikki urug'i suv so'raganida Muso alayhissalom Allohning amri ila hassani toshga urdilar, toshdan o'n ikkita buloq otilib chiqdi. Hamon o'sha suvlardan ichib kelyapmiz. Alloh menga: "Ey Shamuil, shu hassaga bo'yi teng odamni podshohlikka tanla!" - deb vahiy etdi. Kim podshohlikni istasa, bo'yini shu hassaga tenglasin, agar bo'yi hassa ila teng bo'lsa, shu ondayoq uni podshoh, deb tan olasiz. Rozimisiz?

Talabgorlar safi juda uzun edi. Hamma rozilik bildirdi. Har bir odam xayolan hassani bo'yiga moslab ko'rib, ichida "Alloh podshohlikka meni tanlagandir", - deb o'yladi.

Eng birinchi bo'lib bo'yini hassaga tenglagan odam podshoh talab qilgan zodagon bo'ldi. Ammo hassa undan yarim quloch baland chiqdi. Shu tariqa hassa bilan bo'y o'lchash boshlandi. Shamuil alayhissalom Allohni zikr qilgan ko'yi vaziyatni kuzatib o'tirdi. Quyosh tik kelganda qalbida podshohlikka zarracha orzu bo'lgan insonlarning barchasi hassa bilan yonma-yon turib ko'rди, hech kimning bo'yi mo'jiza hassa bilan tenglasha olmadi.

Odamlar toliqди. Ba'zilar umidsizlandi. Ba'zilar hayratga cho'mdi.

- Erta tongda yana yig'iling, - dedi Shamuil alayhissalom. - Podshohni orangizdan yana izlaymiz.

Ikkinchi va uchinchi kun birinchi kun kabi besamar o'tdi. Kishilarning ayrimlari: "Bu ilojisiz ish!", "Bizga podshoh ham, urush ham kerak emas!", "Baytil Maqdisni Allohning o'zi qo'riqlab oladi", - deyishgacha yetib bordi. Shamuil alayhissalom shunday dedi:

- Hukmdorlikka qalbida muhabbati borlarni Alloh xushlamadi. Ular podshohlikka tanlanmadilar. Erta subhda Baytil Maqdisning yoshu qari erlarini chorlang. Hamma o'z bo'yini hassa bilan o'lchaydi. Podshohlikni emas, Allohning rizosi va muhabbatini istagan bandani Robbimiz bizga podshoh qilib tanlashiga zarra qadar shubhalanmang!

To'rtinchi kungi tanlovda ham hassa hech kimga bo'y bermadi. Bo'yini o'lchatmagan biror odam qolmadi.

- Kim kelmadi? - deb so'radilar Shamuil alayhissalom.

- Bir cho'pon kelmadi, - dedi Shamuil alayhissalomning musohiblaridan biri.
- Qo'yi bolalabdi. Shunga kela olmadi.

- Chaqiring, men kutaman, - dedi Allohning elchisi.

Yarim soatlar o'tib, kelbatli, kuchi mushaklaridan toshib turgan, bo'yi tik va baland, soch-soqoli qora va uzun, ko'zlari yirik-yirik, yuzida bir sakinat nuri porlagan, ammo libosi faqirona bo'lgan cho'pon yigitni boshlab keldilar. Shamuil alayhissalom bu yigitni yuzini esladilar. Hamma va'z-nasihatlarida oldingi safda turib, sidqidildan tinglayotganini ko'p ko'rgan edilar. Yigit qo'lida yangi tug'ilgan qo'zichoqni ko'tarib olgan edi. Orqasidan esa ona qo'y yugurib kelyapti. Shamuil alayhissalom ichlarida: "Shu yigit qavmimizning podshohi bo'lsa, ne ajab, inshaAlloh!" - deb o'yladilar.

- Kel, ey cho'pon! - dedilar mehr ila. - Ismingni ayt. Kimsan?

- Sizga Allohning salomi bo'lsin, ey Allohning payg'ambari! - dedi cho'pon yigit tavoze ila.

- Senga ham Allohning salom va rahmati yog'ilsin! - dedilar Shamuil alayhissalom ham qalblari, ham chehralari yashnab.

- Ismim Tolut, bir faqir cho'ponman, - dedi yigit.

- Ey Tolut, nega yangi tug'ilgan qo'zichoqni ko'tarib kelding? Onasi bilan qoldirsang bo'lardi, - dedi Allohning elchisi.

- Ey Allohning payg'ambari, bu qo'zichoq bir oz oldin tug'ildi, oyog'i cho'loq edi. Shundoq qoldirsam, ozorlanadi. Siz chorladingiz, ko'tarib kelaverdim. Qoldirib kelgani ko'zim qiymadi, - dedi Tolut qo'zichoqning jingalak boshini, jajji quloqlarini qashib.

- Sen bir zaif maxluqqa rahm qilibsana, Robbim senga doim rahm qilsin, - deb duo qildilar Shamuil alayhissalom. - Bo'yingni shu hassa bilan o'lchab ko'r.

Tolut Shamuil alayhissalomning qo'llaridan hassani olib, bo'yiga tengladi. Hassa uning bo'yi bilan bab-barobar bo'lib, uzun ham emasdi, kalta ham emasdi. Bunga to'planib turgan hamma guvoh bo'ldi. Biroq ayrim zodagonlarning rangi gezardi.

Shamuil alayhissalom minbarga Tolutni yetaklab chiqib, dedilar:

- Ey Bani Isroil! Allohdan qo'rqing va Uning amrlariga so'zsiz bo'ysuning! Alloh orangizdan bir kishini podshoh deb tanladi. Ko'pchiligingiz taxtga havasmand edingiz, ammo Alloh tanlagan podshoh unday emas. U, albatta, Allohning amriga itoat etadi va sizlarga podshohlik qiladi. Uning ismi Tolutdir!

Aslida, bu onlarda Allohga takbir, tasbih aytilishi kerak edi. Biroq unday bo'lmadi. Podshoh talab qilgan zodagonlardan biri e'tirozini e'lon qildi:

- Ey Shamuil! Biz bu cho'pon podshoh bo'lishiga rozi emasmiz! U juda qashshoq, biz esa boy va badavlatmiz. Podshohlikka biz loyiqmiz! - dedi.

Shamuil alayhissalom g'azablandilar. Yuzlari qizarib ketdi:

- Ey g'ofillar! - deb hayqirdilar. - Sizlarga aytdimki, sizlar nodon qavmsiz. Qasamini unutuvchi xalqsiz! Alloh podshoh yuborsa, unga ergashamiz, deb ont ichdingiz, biroq endi o'z odatingizga ko'ra, isyon etyapsiz!

- Ey Shamuil! - zodagonlardan yana biri ovozini ko'tardi. - Bizni haqoratlashni bas qil! Podshohni Alloh emas, sen tanlading! Sening hassang tanladi! Alloh bizga Tolutni O'zi tanlagani haqida bir belgi bersin!

- Holingizga voy, ey Bani Isroil! Allohning payg'ambaridan yordam so'rab kelasiz, unga iymon keltirasiz, ammo unga ishonmaysiz! - dedilar Shamuil alayhissalom. - Muso alayhissalomga ham shundoq muomala qilar edingiz! Bilingki, Alloh kimni xohlasa, o'shanga mulk beradi, podshohlik beradi. Fazl mol-dunyoda emas, fazl ilmdadir. Tolut sizlardan ko'ra ilmi va jisman pahlavondir. Alloh izzat, ilm va karam Egasidir! U Tolutni sizlarga podshoh qilib tanladi, tez orada bir ilohiy belgi yuborib Tolutning podshoh ekanligini ko'zingizga ko'rsatadi. Ammo bundan siz yutmaysiz, shuni yaxshi biling! Hammangiz tarqaling, erta subhda keling, Allohning mo'jizasini ko'rasiz!

Shamuil alayhissalom shunday deb, minbardan tushib o'z uylariga jo'nadilar. Odamlarning ba'zilari zodagonlar qilgan bema'ni qiliqlardan afsuslandi, ba'zilari qo'rqdi, ba'zilari esa umuman ta'sirlanmadi.

O'ninchi bob

Saqif G'oba o'z shahriga yuzlab asirlar, tuyalarda bir qancha o'ljalar bilan kirib keldi. Xayolidagi rejaları unga sira tinchlik bermas, halovatini o'g'irlagandi. Yo'l-yo'lakay shaharning vayrona tusiga kirib qolganini idrok etdi. Ko'chalar benihoya ifloslangan, shahar bo'ylab oqadigan anhorlar axlatga to'lgan; odamlar ham savdoyiga o'xshaydi: juda ko'pchilik xamrga ruju qo'ygan, mast bo'lmagan odamni topish mahol. Mashshoqlar, qo'shiqchilar, raqqosu raqqosalar, shoir va sergaplar ko'paygan. Biror mehnatga bo'yni yor bermay qolgan va hayotda ma'no-mazmun topmayotgan olomon shaharning har joyida to'dalashib ichadi, mashshoqlarga kuy chaldirib, raqqoslarni o'ynatadi, orada sergaplar o'rtaga chiqib, har xil tuturiqsiz gaplarni aytib, odamlarni kuldirmoqchi, qarsak chaldirmoqchi bo'ladi.

Saqif G'oba shu manzara ichidan o'tib borarkan, mamnun edi. Ayniqsa, odamlar uni ko'rganlarida tiz cho'kishlaridan lazzatlanadi, o'n yillik jangu jadalda olgan ulushini olomonga ko'z-ko'zlarkan, ichida: "Musu bu narsalardan nafrat etardi. Lekin odamlar yaxshi ko'radi! Xursandchilikka nima yetsin!" - deb o'yladi.

Saroyga kelgach, qirq kunlik bayramga amr berdi. Shaharning asosiy ko'chalarini ta'mirlashni buyurdi. "Boshqa joylar shart emas, xalq qanday xohlasa, shunday yashasin. Men yuradiganim yo'llar, boradiganim joylar orasta bo'lishi shart", - dedi u. G'obaning bu so'ziga ko'ra, faqat u boradigan, faqat u ko'radigan joylar obod qilinadigan bo'ldi.

Shaharni mashshoqlar shovqini, xonandalar xonishi, shoirlarning madhlari qamradi. Hamma hokimning marhamatidan mast edi. Odamlar raqs tushib, basharalari tirjayib, hokimni maqtasalar-da, ichlaridagi hadik portlagudek edi. Elik yillik davrida Saqif G'obadan bir ro'shnoqlik bo'lmadi, endi bu saxovati ortida u nimani istayapti?!

Bu payt hokim saroyda ichki josuslar axborotini o'rganish bilan band edi. Tasmin unga shaharning har ko'chasi haqida jamlangan maxfiy ma'lumot taxtachalarini tutdi. Ularni o'qirkan, hokim dedi:

- Hukmronligimizga qarshi biror kuch bo'lmasligi kerak. Bu yerda yozilishicha, ko'chaga deyarli chiqmaydigan, chiqsa bировga el bo'lmaydigan, bayramlarga bormaydigan odamlar bor ekan? Kim ular?

- Janobim, bu toifa xuddi yo'qlikka o'xshaydi. Suvrati bor, jismi bor, biroq bir harakati yo'q. Tirikchiligini qiladi, uyiga ketadi. Bola-chaqasi ham shu. Ularning oldi-berdisi o'zaro bo'ladi. Ular sizning mulkingizda qonunlaringizni buzmaydigan, lekin o'z qonunlari asosida yashaydigan odamlardir.

G'oba bir lahza o'yladi. Qulog'i ichida Quvilganning tovushi yangradi: "Ey G'oba! Sening qonuning ila yashamas ekan, ular sening dushmanlaringdir! Ular sen xohlagandek yashashlari shart!"

- Tasmin, - dedi hokim. - Ular mening bayramlarimda qatnashmaydilarmi?

- Qatnashmaydilar, janobim, - dedi Tasmin.

- Ular mening fuqarolarim kabi o'yin-kulgi qiladilarmi? - yana ham qiziqdi G'oba.

- Ular o'yin-kulgi, kayfu safoni xushlamaydilar, janobim, - tavoze bilan javob berdi hokim yordamchisi.

- Men qurgan ibodatxonaga boradilarmi?

- Zinhor bormaydilar.

- Men haqimda, siyosatim haqida norozi bo'lib gapiradilarmi? Yoki menga qarshi biror ish qiladilarmi?

- Yo'q, janobim. Ular sizni yomonlamaydilar ham, maqtamaydilar ham. Siyosatingizga qarshilik bildirishmaydi ham. Biroq ma'qullashmasliklari-da, aniq.

- Ko'rdingmi, Tasmin, ana shular eng xavfli dushmanlarimdir. Ilondek sassiz sudraladilar, sen, hatto, ularning kimligidan, maqsad-muddaosidan bexabarsan. Ular esa mening mulkimda daxlsiz, xavfsiz yashab, menga qarshi tish qayraydilar!

- Janobim, bu gumonning bir dalili yo'q...

- U holda, top. Ularni yaxshiroq nazorat qil. Men tomonda bo'lmagan odam, mening yo'rig'imdan yurmagan kishi, mening nog'oramga raqs tushmagan inson, shuni bilki, ey Tasmin, mening dushmanimdir! Anavi pismiqlarning hammasini qama. Buyuk rejani amalga oshmoq fursati behad yaqin qoldi. Amrimni eshit! Jolut hazratlarini xudo deb tan olishga biz tayyormiz. O'rdun vodiysida bir ulkan ibodatxona quramiz. Qadim podshohlar Bobilda osma bog' qildilar. Fir'avnlr esa o'zlari, oilasi uchun ehrom qurdirdilar. Buyuk imoratlar hukmdorlar qudratiga bir ramzdir. Jolut ibodatxonasini qurish uchun shahardagi hamma zindonni bo'shat: mahbuslarning hammasini ishlat! Bergan nonimni oqlasin ular. Qolaversa, buyuk ish bilan gunohlaridan poklanishsin. Yangi qamaladigan pismiqlarni zindonda ushlab tur. Mahbuslar qurilishda o'lishi bor, kasallanishi bor, keyin o'rniga keltirasan. Ungacha bular kaltak yeb, nima ish buyursang, bajaraman, deydigan bo'ladi. Uqdingmi?

- Uqdim, janobim! - ta'zim qildi Tasmin.

- Asirlar ichida alohida avaylab olib kelganimiz - sharqlik muhandislarga yaxshi sharoit qilib ber. Ular O'rdun vodiysiga borib, hammadan oldin joylashsinlar. Qurilish joyini belgilasinlar. Kerakli xom-ashyoni topish harakatida bo'lsinlar!

- Xo'p bo'ladi, janobim!

- Shohona aravamni hozirlat, ibodatxonaga boraman.

... Ibadatxonaga kirib, G'oba ajablendi. Bu yer o'likxonadek sovuq edi. Ibadatgo'ylar ham ko'rinmasdi. Bir-ikki xizmatkor qandaydir ma'bud haykallarini artib-surtib yurishardi.

- Hoy, Astinos qani? - deb ulardan birini chaqirdi Saqif G'oba.

Xizmatkor yugurib kelib, tiz cho'kdi:

- Ustozimiz uzoq vaqtdan buyon xonalaridan chiqmayaptilar, - dedi.

Hokim hayron bo'ldi. So'ng:

- Meni uning xonasiga boshla! - dedi.

Xizmatkor sakrab o'rnidan turdi-da, oldinga tushib, chopqillab yo'l ko'rsatib, G'obani ibodatxonaning tagiga olib tushdi. Kohinning xonasini ko'rsatdi. Hokim xizmatkorga ketaver, dedi-da, ichkari kirdi. Kohin yerda o'tirib, Tavrot o'qir edi. G'obani ko'rib, bir seskandiyu, lekin o'rnidan jilmadi.

- Kohin hazratlari, meni kutib olib, ehtirom ko'rsatmaysizmi? O'n yildan buyon ko'rishmadik, - dedi Saqif G'oba bu holdan g'ijiniib.

- Seni ko'rmagan o'n yilim eng yaxshi yillarim edi, - dedi Astinos.

G'obaning ustidan bir chelak muzdek suv quyib yuborilgandek bo'ldi.

- Nima? Nima deyapsan, ey isqirt chol?! - deb Astinosning yoqasidan ushlab, dast ko'tardi.

- Ey kofir! - G'obaning qo'lidan chiqishga tirishib, hayqirdi Astinos. - Sen mendan Tavrotni o'zgartirishni so'rading. Ammo Alloh Tavrot ila meni o'zgartirdi! Allohdan bo'lak iloh yo'q, deb guvohlik beraman! Muso uning bandasi va elchisi deb guvohlik beraman!

G'oba cho'chib ketdi. Astinosni qo'yib yuborib, ortga chekindi.

- Esingni yeb qo'ydingmi? - dedi belidagi qilichini qindan sug'urarkan.

- Mening esim joyida. Sen esingni yig', ey kofir! Sen bu dunyoda xorlik, oxiratda olovli jahannam kutyapti!

G'oba o'zini tuta olmadi. Qilichini bor kuchi bilan Astinosning ko'ksiga sanchdi. Astinos esa, negadir, jilmaydi, og'zidan qon otilarkan, Saqif G'oba eshitadigan darajada dedi:

- Allohdan bo'lak iloh yo'q!..

... Astinosni o'ldirib, saroyga qaytgan Saqif G'oba oxirgi ellik yilda birinchi marta qayg'uga tushdi. Yuragi tor bo'lib, tushkunlik changalidan chiqqa olmay qoldi. Miyasida esa Quvilganning ovozi shang'illar, ammo G'oba uning ma'nosini ilg'ay olmayotgan edi.

... Mahbuslar ko'zlariga ishonmasdilar. Ular bir necha uzoq yillik zulmatdan so'ng, nurga chiqdilar. Oyoqlarida, qo'llarida zanjir bo'lsa-da, baxtiyor edilar.

Roqib ham osmonga, quyoshga boqarkan, vujudi yorug'likning har zarrasidan huzur topayotganini sezdi.

- Allohga hamd bo'lsin, U har qanday nuqsondan pokdir, - dedi Atboga. - Ustoz, Robbimiz bizni zulmatdan qutqardi.

Atbo o'ychan edi. U bir necha kunki, bir tushni qayta-qayta ko'rdi. Tushida Muso alayhissalom: "Roqibni ol-da, zindonni tark et!" - der edi.

- Robbim xayrli etsin, Roqib, - dedi Atbo. - Zindonda dunyo havasidan ozod eding, qalbing Robbing bilan mudom bog'langan edi. Endi esa dunyo ziynati, orzusi seni Allohdan to'sadi. Bu imtihonlarning kattasidir. Bu zindondan ko'ra og'ir sinovdir. Shuning uchun, Robbingni doim zikr qil! Biror imtihonni katta yo kichik sanama. Har biri seni yo aziz, yo zalil qila oladigan imtihondir ular.

... Zanjirli holda mahbuslar bir oyda O'rdun vodiysiga yetib bordilar. Darhol ish boshlandi.

Sharqdan keltirilgan muhandislarning bo'yi yerli odamlar bo'yidan biroz past, ko'zlari qiyiqqa moyil edi. Ular o'z ishlarini puxta bilishlarini ko'rsatishdi: vodiyning eng xavfsiz - suv toshmaydigan, selda qolmaydigan

joyi tanlandi, poydevor uchun yerni o'yish boshlandi. Poydevor toshlari bu yerdan ikki yuz chaqirim uzoqda, Sharq tomondagi tog'dan kesib kelinadigan bo'ldi. Besh yuz mahbus tosh kesgani tanlandi. Ularning hammasi baquvvat va daroz edi. Roqib ularning ichiga tushdi. Atbo keksaligi uchun unga diqqat qaratilmadi. Erta tongda mahbuslar toqqa yo'l olishi va ular bu oqshom yo'l tadorigini ko'rib qo'yishlari buyurildi.

Quyosh botdi.

Shom qorong'usi quyushlashdi. Roqib ustozidan ayrilayotganidan benihoya mahzun edi. Atbo, aksincha, xotirjam ko'rinadi. Roqib, tabiatan o'z tuyg'ularini aytavermagani uchun ichidagi dard yuziga balqib chiqdi. Atbo shogirdini o'n yildan buyon biror marta shu ahvolda ko'rmaganini o'yladi. Ishlarini tugatib, olov atrofida berilgan shildir sho'rvaga qotgan nonni botirib, tamaddi qilish asnosida Atbo past ovozda, begona eshitmaydigan darajada dedi:

- Roqib, bugun bu yerdan ketamiz. Ziyrak uxla.

Roqib ustoziga hayron boqdi.

- Shunday qilishimiz kerak. Tushimda bir oydan beri Muso alayhissalom: "Roqibni Baytil Maqdisga kuzatib qo'y!" - deyaptilar. Agar bugun ketmasak, seni Baytil Maqdisga emas, Alburs tog'lariga kuzatishimga to'g'ri keladi. Tayyorlan. Bularni hamma uxlaganda kiyib ol.

Atbo Roqibning oldiga bir tugunchani sekin qo'ydi.

... Mahbuslar uyquga ketdilar. Atrofdagi o'nlaracha soqchilar tinimsiz aylanadi. Mahbuslar yotgan tekislikka ustunlar o'rnatilib, mash'ala yoqilgan. Yorug'lik har bir harakatni ko'rish uchun kifoya qiladi.

Roqib boshiga qo'yib yotgan tugunchani olib ochdi: soqchilar kiyimi va sovuti!

Yotgan joyida kiyim sovutni kiydi. So'ng nafasini yutib, ustozini Atboning ishorasini kuta boshladi. Tilidagi bir duo qalbida ham jaranglardi: "Allohim,

ustimizdan sabr yomg'irini yog'dir! Qadamlarimizni sobit et! Bizni kofirlar ustidan g'olib qil!"

Unga bu duoni zindonda Atbo o'rgatgan edi. Atbo o'tmish payg'ambarlari, ularning kofirlarga qarshi urushlari haqida hikoya qilib, "Alloh o'z izni ila tavhid yo'lidagi kichik qo'shinlarga kufrning katta lashkari ustidan g'alabalar ato etgan. O'shanda Allohga taslim qullar: "Allohim, ustimizdan sabr yomg'irini yog'dir, qadamlarimizni sobit qil, kofirlar ustidan g'olib et!" - deb duo qilishgan", - degandi. Hozir ham Roqib bu duo ila Robbisiga yolvorar edi. Shu payt soqchilardan biri u yotgan joyga kela boshladi. Roqibning yurak urishi tezlashdi. "Soqchi" yaqin kelib, unga buyurdi:

- Mahbus Roqib, ortimdan!

Bu ustoz Atbo edi. Roqib ham tezda turib, unga ergashdi. Atbo Roqibga pichirlab:

- Shoshilma! Dovdirama! Xuddi soqchilarddek mahbuslarni sanab yur! - dedi. So'ng qo'shimcha qildi: - Anavi daraxt ortiga hojating qistab qolgandek bo'lib o't. Sal narida egarlangan ot turibdi. Minib, daraga tush. O'sha yerda ko'rishamiz.

... Dara ichiga tushib, Roqib atrofga alangladi. Osmonda oy ko'rinmaydi. Yengil shabada esadi. Uzoqdan shag'irlab oqayotgan soy ovozi eshitaladi.

- Roqib!

Atbo ham yetib keldi.

- Ketsk!

Ikkovlari dara ichidan g'arb tomonga otni yeldirib ketishdi. Tongga yaqin daradan chiqishgach, dasht boshlandi. Tuproq oq va qum aralash edi. Yantoq, isiriq, saksavul, jing'il kabi butasimonlar o'sib yotardi.

Mashriq yorisha boshlaganda orqada otliqlar to'dasi ko'rindi. Ular ikki mahbusning yo'qolganini sezib, otning tuyog'i izidan kelishayotgan edi.

Ustoz va shogird otlarini yanada niqtashdi. Bir soatlarda quyosh chiqdi. Otliqlar juda olisda bo'lsa-da, quvishdan to'xtash niyatlari yo'q edi. Atrof yaydoq bo'lib, ko'zga ko'rinmay ketish mahol edi.

Atbo to'xtadi. Roqib ham otning yuganini tortib, ustoziga savolomuz qaradi.

- Menga Muso alayhissalom: "Roqibni kuzatib qo'y!" - dedilar. Birga bor, demadilar. Bolam, Baytil Maqdis shu tarafda. Uni, albatta, Allohning yordami va izni ila topib borasan, men shu yerda qolaman. Mening safarim tugadi, - deb Atbo otdan tushdi.

Roqib ham yerga sakradi.

- Ustoz!

- Mening otimni o'zing bilan ol! - dedi Atbo otining jilovini Roqibga tutqazarkan. - Charchaganda almashtirib minasan. Qurol-yarog'ingga doim diqqat qarat. Allohning zikridan g'ofil bo'lma. Baytil Maqdisda qiladigan ishingni Allohning O'zi senga bildiradi. Bor!

- Sizni qanday tashlab ketaman! - Roqibning ko'zidan yosh duvilladi.

- Robbimning huzuriga boradigan vaqtim yetdi, shekilli. Sen meni Robbimizga qoldirib ketyapsan. Bor! - dedi Atbo.

Roqib umrida birinchi marta ustozini bag'riga qattiq bosdi-da, shart o'girilib, otiga sakrab mindi va:

- Alloh mo'minlarga rahm qilguvchidir! Undan bo'lak iloh yo'q! - deb hayqirdi-da, qamchisini havoda o'ynatdi.

... Roqibning ortidan kulib qarab qolarkan, Atbo kamonini olib o'qladi-da, quvib kelayotganlarga o'grildi.

O'n birinchi bob

... Baytil Maqdis xalqi Shamuil alayhissalomning yo'liga ko'z tikmoqda. Va'da qilingan mo'jiza har kim uchun behad qiziq.

Quyosh ikki nayza bo'yi ko'tarilganda yig'ilgan odamlar bir necha yuz mingga yetdi. Yoqub alayhissalomning kenja o'g'li Binyamin avlodidan cho'pon Tolutning podshohlikka tanlanganligining shov-shuvi bir kechadayoq hamma joyga tarqaldi. Tolutning podshohligi Allohning bir mo'jiza belgisi orqali isbotlanishi xabari eng dangasa odamlarni ham bu yerga ohanrabo kabi tortdi.

Shamuil alayhissalom Tolut va ashoblari ila kirib keldilar. Balandlikka ko'tarilib,

- Ey Bani Isroil! - dedilar. - Alloh Tolutni sizlarga podshoh etib tanladi. Buning isbotini, albatta, Allohning izni ila, ko'rajaksiz.

Shundan keyin Shamuil alayhissalom ko'zlarini osmonga qaratib, Allohga hamd va tasbih, takbir o'qiy boshladilar.

Osmonni kuchli ovoz qamradi. Qarsillagan, charsillagan tovushlar bir necha bor yangradi. Kuppa-kunduzi atrof yanada yorishib ketdi.

Odamlar qiy-chuv ko'tarib, yerga yiqildi. Shamuil alayhissalomdan boshqa yiqilmagan biror kishi qolmadi. Osmondan kelayotgan dahshatli ovoz hammaning oyog'idan quvvatni sug'urdi. Hamma qochishni istardi, biroq oyoqlarda mador yo'q edi.

Ovoz tindi. Odamlar qo'rqa-pisa boshlarini ko'tardilar va qalblaridagi titroq ziyoda bo'ldi: osmondan ulkan sandiq tushib kelayotgan edi. Sandiqning ikki tomonidan ikki nurli xilqat ko'tarib olgan edi.

Sandiq pastlagani sayin nur shunchalar porladiki, hech kim boshini ko'tara olmay qoldi. O'rtada tik turgan Shamuil alayhissalomning:

- Sizlarga Allohning salomi bo'lsin, ey Allohning solih bandalari! - deb xitob qilganlari eshitildi. Javoban:

- Sizga ham Allohning salomi va rahmati bo'lsin, ey Allohning payg'ambari!

- degan guldiringan tovush yangradi.

- Bizlarga nima keltirdingiz, ey Allohning farishtalari? - deya savol berdilar Shamuil alayhissalom.

- Robbimizdan sakinat keltirdik. Ushbu sandiqda Siz istagan narsalar bor, - degan qudratli sas keldi quloqlarga.

Birozdan keyin Shamuil alayhissalom:

- Boshingizni ko'taring, ey Bani Isroil! - dedilar. Hamma hadik ila boshini ko'tardi. Odamlar egnilarini chang-chungdan tozalab o'rinlaridan turib, nazar solib Shamuil alayhissalomning yonlarida turgan ulkan sandiqni ko'rdilar.

- Bu Muso va Horun alayhissalomning narsalari solingan sandiqdir. Alloh buni Tolutning podshohligini tasdiqlash uchun tushirdi. Buni inkor etuvchilar orangizda bormi? - deb so'radilar Allohning elchisi. Hamma sukut saqladi. Bir necha lahza oldingi qo'rquv hali qalblarni butkul tark etmagan edi.

- Allohdan keladigan hamma narsaga rozi bo'ling. Bu sizlarga dunyo hayotida izzatni, sharafni, qudrat va buyuklikni, oxiratda jannatni beradigan ishdir, - dedilar Shamuil alayhissalom. So'ng Tolutga buyurdilar: - Ey Tolut! Sen shu ondan e'tiboran Bani Isroilning podshohisan. Qavmingga nasihat qil. Ularning dodlariga yet. Jarohatlariga malham ko'y. Alloh seni buyuk ish uchun, buyuk imtihon uchun tanladi. Allohdan qo'rq!

Tolut Shamuil alayhissalomning yonlariga chiqib, so'z boshladi:

- Ey Bani Isroil! Allohga hamd bo'lsin! Faqat U maqtovga loyiq Zotdir.

Allohdan qo'rqing, faqat U qo'rqishga munosib Zotdir!

Bani Isroil o'z qarshisida cho'ponni emas, zabardast bir podshohni ko'rdi.
Tolut davom etdi:

- Adolat har narsa o'z o'rnida bo'lishidir. Zulm bir narsaning o'z o'rnidan boshqa joyga majburan ko'chirilishidir. Podshoh o'laroq mening ikki ishim bor: har narsa, har kim o'z o'rnida bo'lishni ta'minlamoq va yurtni bosqinchidan himoya etmoq.

Ey Bani Isroil! Meni ulug'lamang. Menga ta'zim qilmang. Meni maqtamang. O'z haddingizni biling. Hamma o'z ishini bilib qilsin. Jinoyatchi ichimizdagi bosqinchidir. Men ularni, albatta, jazolayman. Allohning elchisi Shamuil alayhissalom yo'l boshchimizdir, u kishiga, shubhasiz, ergashaman, itoat qilaman. Har kim halol narsani kasb etsin, haromdan tiyilsin. Sizlardan meni yeb-ichirishni so'ramayman. Sizlardan halol yeb-ichishingizni talab qilaman. O'zaro mehribon bo'ling. Qo'pol bo'lmang, befarosat bo'lmang. Yolg'on gapirmang. Rost so'zlang. Biringiz ikkinchingizni qo'rqitmang. Biringiz boshqangizni kaltaklamang. Bir-biringizni o'ldirmang. Bir-biringizning ustingizdan hukm chiqarmang. Bir-biringizni sotmang. Hukm berish uchun Allohning elchisi va ijro etish uchun podshohingiz bor. Biling, hech kim bir-biridan terisining rangi, boyligi, mol-mulk sababli afzal emas.

Allohning nazdida hamma teng. Fazlni Alloh beradi. Insonlardan kim afzal ekanligini Alloh hal etadi. O'z noqis aqlingiz bilan gapirmang. Hasadgo'y bo'lmang. Hasad ortidan bir-biringizni sharmanda qilmang, o'ldirmang. Qo'rqoq bo'lmang. Allohdan qo'rqing. Allohdan qo'rqingki, U sizni himoya etgay! Pok bo'ling. Alloh poklikni sevadi. Go'zal bo'ling. Allohga go'zallik xush keladi. Poklik ayni go'zallikdir. Go'zal narsalarning hammasi pokdir. Birovni ayblamang. Aybni o'zingizdan izlang. Robbimizning qadariga taslim bo'ling. Baxt ana shundadir. Xiyonatkor bo'lmang! Ey Bani Isroil! Yaxshilikning mukofoti bor bo'lgani kabi yomonlikning ham jazosi bordir. Adolatda izzat va sharaf bo'lgani kabi zulmda xorlik va halokat bor. Jasoratda omonlik bo'lgani kabi qo'rqoqlikda halovatsizlik va xatar bor.

O'zaro do'stlashmoqda qudrat bo'lgani kabi adovatda zaiflik bor. Bir-biringiz bilan do'stlashmoqqa yaxshi sabablar izlang, dushmanlashmoq

uchun yomon sabab izlamang! Dushman zulmiga sabr etmoqdan otanang, qarindoshlaring, do'stlaring nuqsonlariga sabr etish yaxshiroqdir. Yaqinlaringga sabr etsangiz, ular isloh bo'ladi, in shaa Alloh.

Ey Bani Isroil! Men sizlarga mo'l rizq va'da etmayman. Zotan, rizqni Alloh beradi. Men sizlarga mo'l rizq topish va uni saqlab qolishning yo'lini ko'rsataman. Ogoh bo'ling, mo'l rizq halol mehnatdadir. Rizqning mo'lligi uning miqdorida emas, barakasidadir. Baraka esa doim qorning to'qligida emas, ko'ngil to'qligida. Siz ovqat talabida, mol-mulk talabida emas, haq talabida, halollik talabida va saxovat talabida bo'ling. Rizq xuddi yomg'irdek ustingizdan yog'iladi.

Haqni botilga almashtirsangiz, halolni harom bilan yo'qotsangiz, saxovat o'rniga baxillikni, xasislikni odat tutsangiz, bilingki, yeysiz, ammo to'ymaysiz, kiyasiz, ammo isinmaysiz, ichasiz, ammo chanqog'ingiz qonmaydi, boylikka ko'milasiz, ammo halovat topmaysiz! Ey Bani Isroil! Hamisha yurt himoyasiga shay turing! Vatanga dushman kelsa, hammangiz urushga shay turing! Ey Bani Isroil! Biling, adolatingizga roziman, zulmingizdan noroziman. Bilganim va ko'rganimning ustidan hukm qilaman, mendan yashirganingiz Allohga havola. Mazlumning ko'zyoshidan qo'rqing! Nochorni ezishdan qo'rqing! Zaifni azoblashdan uyaling! Haddingizni biling! Agar bu ishlarni qilsangiz, Alloh sizlarni yo mening qo'lim ila, yo boshqa bir yo'l ila, albatta, jazolaydi! Ey Bani Isroil! Allohga ibodat qiling! Butlarga ibodat qilmang!

Mening nasihatim shu.

Bu nasihatga amal qilsangiz, Alloh bizga fazlni ziyoda qiladi. Bu nasihatni nazarga ilmasangiz, mensimasangiz, sizning ahvolingiz og'ir, demak, qalbingiz g'aflat changalida halok bo'libdi. Kelajagingizdan halokat kuting. Bu nasihatni qabul etsangiz, Yer yuzida izzat va sharaf, xalqlar, qavmlar ichida kuch va qudrat, obro' va yuksaklik topasiz, oxiratda esa, Allohning izni va marhamati ila jannatga kirajaksiz!

Bilingki, Jolut, albatta, Baytil Maqdisga keladi, ammo u kelmay turib, uning ustiga biz boramiz. U bilan hisobli ishlarimiz bor. Tarqaling. Ertaga yana yig'ilib shu masalada so'zlashamiz, inshaAlloh!

... Bani Isroil podshohning nutqidan mutaassir bo'ldi. Ular qarshilarida bir podshohni ko'rib, unda hokimiyat qudrati va adolat qat'iyatini his etdilar va o'zlarini mard, hamiyatli, himmatli va sobit seza boshladilar. Qalblarida podshohlariga bir muhabbat va itoat uyg'ondi.

Yillarki, davom etib kelayotgan sargardonlik, beburdlik, subutsizlik nihoya topgandek edi. Hech kim tinglamaydigan mazlum faryodining bir eshituvchisi kelgan edi. Hech kim rahm etmaydigan bechoralarning jarohatiga marham qo'yuvchi marhamatli podshoh qoshlarida salobat-la turgandek edi. Egilgan boshlar ko'tarildi, ezilgan qadlar rostlandi. Shu barobarda odamlar podshohning qanday tartibda ishlashini hali bilmasdilar, biroq xalqning juda katta qismi Alloh ato etgan podshohga taslim bo'lib, uning amrlarini bajarishga tayyor edi.

... Tolut erta tongda Baytil Maqdis ko'chalaridan yurib, Shamuil alayhissalomning uylariga kelarkan, shaharni har kungidan toza va pok ekanligini bildi.

Odamlar o'z uylarini, ko'chalarini tongdan tozalashgan edi.

- Jolut bilan jang og'ir bo'ladi, - dedi Tolut Allohga hamd aytgach. - Urushga jismonan baquvvat, matonatli, qurol ishlata oladigan, qo'rqmas kishilar boradilar. Agar kimnidir urushdan qaytarsam, bu uni qo'rqoq, matonatsiz deganim emas, uning xizmati Baytil Maqdis ichida ko'proq kerak, deganimdir. Urushda lashkarni men boshqaraman. Har bir jangchi menga so'zsiz bo'ysunishi shart. Qol, desam, o'lim kelsa ham, joyida qolsin. Qoch, desam, oltindan tog' ko'rsatsalar ham qochsin! Aks holda, bizning lashkarimizdan manfaat yo'qdir! Ey odamlar! Meni eshiting! Urush bu cheksiz mashaqqatdir, unda hordiq yo'q, lazzat yo'q, surur yo'q. U qatldir. U charchoqdir. U halovatsizlikdir. Urushga, avvalo, yashashdan, hayotdan

umidni uzib, keyin boriladi. Agar yashayman, deb borsang, sen, sening xalqing dushmanga mag'lub bo'ladi.

O'limga tik borsang, u sendan chekinadi. Ya'ni, sen o'lim qo'rquvini yengasan. Shuning uchun, lashkarga kiradigan har odamni og'ir tayyorgarliklar kutyapti. Lashkar ichida issiq to'shak, qaynoq ovqat yo'q. To'shaging toshli yer, ovqating mashaqqatdir. Shu narsalarga rozi bo'lganlar Baytil Maqdisning sharqiy devorlari ostidagi maydonga to'plansin! Bir soat ichida men lashkar olish sinovini boshlayman.

... Shamuil alayhissalom bilan birga maydonga borgan Tolut bo'lajak jangchilarning mahoratini tekishirishni boshladi.

... Lashkar uchun saralash bir oy davom etdi. Har kuni Tolut saralashdan o'tganlarni bir bo'linma shaklida shahardan tashqariga, o'zlarining ichidan bir odamni bosh qilib, harbiy mashg'ulotlar uchun chiqarib yuboraverdi. Eng usta temirchilar harbiy qarorgohlarga o'z ustaxonalarini o'rnatib, qurol-yarog' yasashni boshladilar. Bani Isroil katta jo'shqinlik ichida edi. Ularga tuganmas baraka yog'ilayotgandek edi. Odamlarning qo'li qo'lga tegmaydi. Bozorlar qaynaydi. Hamma Jolut bilan jang haqida o'ylar, butun qavm shuni oliy bir maqsad bilib, birlashgan edi.

Bir oyda hamma talabgorlar saralandi. Tolut sakson ming kishilik lashkarni bir necha bo'linmalarga ajratib, Baytil Maqdisdan tashqariga joylashtirib bo'ldi. Jangchilar qilich, kamon, nayza, oybolta, xanjar va boshqa qurollar bilan mashq qilishga kirishdilar.

Lashkarga urush va qoidalarni tushuntirish uchun Tolut chodirdan chiqarkan, ikki yosh yigit sinovdan o'tish uchun kelganini aytishdi. Tolut Shamuil alayhissalomga savol nazari ila qaradi. Shamuil alayhissalom:

- Ularni sina va lashkarga ol, - dedilar.

Chodir oldida ikki yosh yigit turgan edi.

- Ismlaringni aytinglar, - dedi Tolut ularga.

- Ismim Dovud ibn lysho, - dedi jingalak sochli, yuzi dumaloqdan kelgan, biroz ozg'inrog'i. U yelkasiga bir xalta osib olgan edi.

- Men Roqib ibn Aslamman, - dedi oq-sariqdan kelgan, oltinrang sochi yelkasiga tushgan, nisbatan gavdali va baquvvatrog'i.

Ikkisidan ham bir ixlos va g'ayrat yog'ilardi.

- Lashkardan ikki kishi tanlaymiz. Kurash tushasizlar, - dedi podshoh.

O'n ikkinchi bob

Saqif G'oba Jolut ibodatxonasi qurilishiga aholini da'vat qildi.

- Xudolar oldidagi mas'uliyatingizni his qiling, - dedi u. - O'lib ketgan otabobolarimizning ruhlari shu ibodatxonada qo'nim topadilar. Bu ibodatxonani qurishda sevgi va g'ayrat ila qatnashmoq har biringizning bo'yningizda qarz va majburiyatdir.

Da'vatdan so'ng aqli borlar o'z ixtiyori bilan qurilishga jo'nadi, aqlsizlar esa uyiga G'obaning navkarlari bostirib kiringach, nazorat ostida yo'l oldilar. Harqalay, G'oba shunday deb o'yladi.

Kecha Jolut bir maktub yo'lladi. Unda: "Hozirlan! Olamlar qudrati kengashiga sen ham borasan!" deb yozilgandi. G'oba bu kengash haqida uzunquloq gaplar eshitgan. Biroq bu gaplar ertaknamo bo'lib, ko'proq gumon edi. Podshohning kengashga chorlashi G'obani hayajonga soldi. Demak, u katta mavqega erishdi. Demak, u ulkan kuchga mansub bo'lmoqda!

Aytilgan vaqtda buyurilgan joyga yetib kelgan G'oba manzil tog' bag'ridagi bir g'or ekanini ko'rdi. G'orning og'zi juda katta edi. Jolut lashkarlari g'orning ichi va tashini to'ldirib turibdi.

G'obani g'orga olib kirishdi. Qorong'u va namchil yo'lakdan uzoq yurishdi. U deyarli hech narsani ko'rmas, faqat qo'lida mash'ala tutib yo'l boshlab ketayotgan pakana va bukri kohinni ko'rardi. Shu qadar yo'l yurdilarki, oyoqlar og'riy boshladi, havo kamaydi, mash'ala o'chdi, zulmat quyuyqlashdi, "Qo'rqma, tez yur!" - dedi bukri yo'lbon.

To'satdan atrof yorishgandek bo'ldi, nafas olgulik havo ham yetib keldi, ular juda keng, shiftlari baland xonaga kirib qolgan edilar. Xonaning o'rtasida olov yonadi, sochlari patila-patila o'sgan odamlar olovga sajda qiladi, xonaning devorlari turfa siymolarni aks ettirgan haykallarga to'la. Bu

haykalla o'ta g'ayritabiiy edi: ba'zilar shoxdor, ba'zilar uch ko'zli, ba'zilar qo'lsiz va hakoza.

Tuyqus qiy-chuv ko'tarildi, qandaydir childirma, do'mbira ovozlari yangradi, hamma pala-partish tiz cho'kdi, keyin peshonalar yerga qo'yildi.

- Boshingizni ko'taring! - degan amr bo'ldi. Hamma boshini ko'tardi. Jolut keksa va juda ham xunuk chol bilan suhbatlashib kelayotgan edi. Chol saksovulga o'xshaydi, yonoqlari turtib chiqqan, boshi kal va yakkam-dukkan sochlari o'sib ketgan, ko'sa, oyoqlari qiyshiq va burishiq bo'lib, yapaloq va barmoqsiz edi, biroq xuddi tovuqnikiidek bir necha tirnoqlari bor.

Ular olov yonidan o'tib, taxtga chiqishdi. Taxt keng bo'lib, ikki kishini bemalol sig'dira oladi.

Hamma Jolut va hamrohining og'ziga tikildi.

- Bu zot mening ustozim. Jinlar va devlar saltanatining sultoni! U kishi menga bir umr hamroh bo'ldi. O'z lashkari ila menga hamisha yordam berdi.

Chol tirjayib bosh silkidi. Xonada sanoqsiz jinlar, devlar va shaytonlar paydo bo'ldi.

G'oba ham qo'rqdi, ham mamnun bo'ldi.

- Maqsadimiz - Yer yuzida cheksiz hukmronlik o'rnatishdir, - dedi Jolut. - Odamlarning hammasi bizga bo'ysunsin, bizga ibodat qilsin, bizning qonun bilan yashasin. Biroq bizga qarshilik qilib kelayotgan bir kuch bor. Bu o'zini Allohning payg'ambari, deb ataydigan odamlardir. Ular ishimizni doim chippakka chiqardilar. Endi unday bo'lmaydi. Buni bizga shaytonlar sultoni aytadi.

Chol xiringlab kuldi.

- Menga qurbonlik qani? - dedi.

Shu ondayoq taxt yaqinida o'tirgan bir kohinni shaytonning oyog'i ostida bo'g'izlashdi. G'oba esa ovozni tanidi! Ovoz Quvilganning ovozi edi! U hayajondan o'rnidan turib ketishiga bir bahya qoldi.

Shayton esa qurbonlikning qoni bilan oltin kosani to'ldirdi. Bir xo'plab, Jolutga uzatdi:

- Ich!

Jolut ham bir xo'plab, shaytonga qaradi.

- Yana ich! - dedi iblis. Jolut kosadagini yutoqib ichib tugatdi. Labiga, soqoliga tomgan qonni artdi.

- Lashkarlarim! Bu sizlarga! - dedi shayton jin va devlarga qurbonlikning jasadini ko'rsatib. Jin va devlar yotib olib, jasadning qonini so'rishga, yalashga kirishdi. Ular xurillar, xirillar va xishillardi.

- Haqiqatni bilinglar! - dedi shayton. - Odamzodni o'z yo'rig'imizdan yurgizish oliy maqsadimizdir. Bu ishdan aslo ortga qaytmayman! Menga yordam berganlarni xudo maqomiga ko'taraman. Yer yuzida unga hamma bo'ysunadi. Jolut shu sharafga erishdi! Odamlarni bo'ysundirish ham oson, ham qiyin. Osonligi - uni alday olamiz. Qiyinligi - odamlar yakka Allohga ibodat qilsalar, ularni yengishda mashaqqatga uchraymiz. Hozirgacha menda yaxshi natijalar bor! - shunday deb shayton qo'ynidan papirusga o'xshab buklangan yozuvlarni olib, o'qiy boshladi. - Odamlarning ichini gumon bilan to'ldirdim. Ularga o'z akslarini go'zal ko'rsatib, rasmlar chizdirdim. Bu rasmlarga ular ibodat qilishni boshladilar. Odamlar orasida fahshni yoydim. Er yoki ayol - farqi yo'q - hammasini hirsga qul qilyapman.

Shayton shu joyda to'xtab, kibr bilan hammaga qaradi-da, davom etdi:

- Odamlarga yolg'onna o'rgatdim. Mansabga qiziqtirdim. Xayolini chalg'itdim. Sen hammadan yaxshisan, deb ishontirdim. Ayollar tabiatan zaifdir, ularni aldash oson. Ulardan ko'p foydalandim. Sizlar mening lashkarimsiz. Men bilan birga ortga qaytilmaydigan yo'ldasiz. Bu sizlarga

nima beradi? Yer yuzida istagan ishingizni qiling. Xayolingizga kelgan narsani bajaring. O'zingizni qafasda saqlamang! Xohlasangiz, odam o'ldiring! Xohlasangiz, odamlarni qo'rqitib ishlating! Shahvatingizni tiymang! Sizga nimaiki, yoqsa, albatta, uni qo'lga kiriting. Bo'shanglik qilib, boy bermang. Butun olamga qanday qudratli, qanday kuchli, qanday go'zal ekanligingizni namoyish qiling. Odamlar sizdan qo'rqsin, olqishlasin, yaxshi ko'rsa ham, mayli. Siz hech qachon birovning ra'yiga, ko'ngliga qaramang. O'z istaklaringizga boqing. Bu istak xushmuomala bo'lishni talab etsa, albatta, xushmuomala bo'ling.

Qahrni talab etsa, qahr ko'rsating. Birovning istagiga o'zingizni qurbon qilmang. Avvalo, men, deng. Sen mening istagimni bajarishda vosita bo'lsang, sen bilan kelishaman, deng. Yo'qsa, rad eting. Sizga vosita bo'lmaydiganlarni yo'q qiling, ulardan voz keching, o'ldiring!

Shayton berilib gapirdi. Uning nutqi G'obaga juda yoqdi.

- Shamuil degan bir payg'ambar Tolut degan qo'yboqarni podshoh qilib tayinlabdi. Tolut Jolut bilan jang qilarkan. Tolutning lashkarini qirib tashlash shart, vassalom. Shamuilni ham qatl eting. Bizning istaklarga g'ov bo'lganning ahvolini butun olam ko'rsin!

Hamma qarsak chaldi. Shunday chapak chalindiki, uning shamoli olovni qimirlatib yubordi. Shayton chapak ovozidan, qarsak guldurosidan lazzatlandi va yana jo'shib davom etdi:

- Bizning Yer yuzidagi hukmronligimizni, odamzodni boshqarishimizni istamaydigan bitta kuch bor. Bu payg'ambarlardir. Ularning hammasi insoniyatni osmonga bog'lashga intiladilar. Osmondan xabar olib kelishadi. Biz payg'ambarlarga, ular olib kelayotgan hamma narsaga dushmanmiz! Ular o'rnatadigan hamma konunni sindiring, yo'q qiling! Odamzodni samo bilan bog'lanishiga yo'l qo'ymang!

Shayton lashkari bir ovozdan baqirdi:

- Ha! Ha! Ha!

- Shunday! - dedi shayton mamnuniyatdan ko'zi qisilib. - Odamlarni birdan bo'ysundira olmaysiz. Ularga ularning sevimli tarafidan keling. Farzandni sevsas, farzand bilan tahdid eting. Ayolni sevsas, ayol bilan aldang. Jonini yaxshi ko'rsa, jonini olish bilan qo'rqiting! Nima qilsangiz, qiling, insonni bo'ysundiring.

Rostgo'y odamni rostgo'yiligi bilan chalg'iting. Jasoratli odamni jasorati bilan ko'zini boylang.

Odamlarni kibr bilan zaharlang. Havolantiring. Va qalblarini o'lim qo'rquvi bilan to'ldiring. Shunda ularni bemalol o'z yo'lingizdan olib ketaverasiz!

- Ha! Ha! Ha! - deb chuvilladi lashkar.

- Sehr bizning eng yaxshi qurolimizdir. Sehr bilan aksar qalblarni halok etishimiz mumkin. Orangizda katta-katta sehrgarlar bor, folbinlar bor, ularga birlashtirilgan jinlar bor. Ular hamisha bizning xizmatimizda.

Shayton yana olqishlar og'ushida huzurlandi. So'ng ibodat marosimi boshlandi. Kelganlarning barchasi shayton amriga ko'ra butlarni ulug'lashdi, olovdan yordam so'radilar, qon aralashgan sharoblarni ichdilar...

Ushbu marosim G'obaga kuch bag'ishlagandek edi. Endi u o'zini cheksiz erk quchog'ida sezdi, ibodatxona qurilishi va Tolutga qarshi ikki yuz ming kishilik qo'shin ta'minoti ishlariga sho'ng'ib ketdi.

Jolut qo'shini O'rdun vodiysiga jamlandi, harbiy mashqlar boshlandi.

- Shamuilning o'limi, Tolut lashkarining Yer yuzidan yo'qotilishi bizga katta qudrat beradi, - dedi Jolut Saqif G'oba bilan lashkar ichida aylanarkan. - Jinlar, devlar biz tomonda. Bizda juda katta boylik, urush tajribasi, sanoqsiz qurol-yarog', yuzlab hiylalar bor. Shayton hamisha maslahatga shay. Lashkarning istaganini beramiz. Ular bizning istagimizni bajaradi. Hukmronlik zinhor qo'limizdan ketmasin. Sen hamisha menga bo'ysun.

Agar xayolingda boshqa o'y bo'lsa, voz kech. Sen mendan kuchliroq bo'lishga intilgan oningda halok bo'lasan.

- Aslo bunday gumon qilmang, hukmdorim, - dedi G'oba. - Siz men uchun xudosiz. Mening xudoyim sizziz. Men sizning qulingizman. Siz meni tarbiyaladingiz. Yo'l ko'rsatdingiz. Kuch-qudrat berdingiz. Siz endi Yer yuziga xudo bo'lasiz!

Jolut xursand bo'ldi.

- Bir on qat'iyatni boy berma. Qo'l ostingdagilar nazoratingdan chiqib ketmasin. Doim ularni qo'rqit. Sensiz hayot yo'q, deb o'ylashsin. Yo'qolib qolsang, qanday yashaymiz, deb dodlashsin. Shunday ishlar qilki, sendan odamlar kaltak yesin, lekin seni yaxshi ko'rishsin. Tepikingni ham ne'mat sanashsin. Zulmga ularni itni go'shtga o'rgatgandek, o'rgat. Zulm bo'lmasa, zulmni, kaltakni, zarbni o'zlari qo'rmsashsin. Senga bosh egib, sendan haqorat eshitib, huzurlanishsin. Sening mushtingni buyuk baxt, deb bilsin. Bunga erishish uchun odamlarning hayotini shovqinga to'ldir. Qo'shiqchilar qo'shiq aytsin, mashshoqlar mashqini chalsin, shoirlar she'rini o'qisin, kimlarnidir qandaydir jinoyatlar ila aybla, jazola, qatl et, kezi kelganda afv et. Hech kimga yolg'iz qolib, sen xohlagandan boshqa narsani o'ylashi yoki tasavvur etishiga yo'l berma!

Odamlar sen istagan narsani o'ylasin, sen istagan narsani orzu qilsin, sen istagan narsani ko'rsin va gapirsin. Tushlarini ham sen xohlagandek ko'rsinlar. Ularni shu qadar changalda qattiq ushla! Kimdir sen belgilagan hududdan chiqsa, dushman, telba, majnun, jinoyatchi, deb sazoyi qil. Biror odam senga isyon qilish, sening tasarrufingdan chiqishni xayoliga keltira olmasin! Uqdingmi, G'oba? - deb so'radi Jolut.

G'oba bu nasihatlardan to'lqinlanib ketdi.

- Uqdim, hukmdorim! - dedi butun vujudi qaltirab.

- Yaxshi, - Jolut shogirdidan qoniqdi. - Bu xudo bo'lishning shartidir. Men xudo bo'lish uchun kelganman, sen xudoning yordamchisi bo'lish uchun tug'algansan!

G'oba tiz cho'kib, o'krab yig'lab yubordi va Jolutning etagini o'pa boshladi.

O'n uchinchi bob

Yangi kelganlarni sinash uchun Tolut ikki kishini chaqirdi. O'zini Dovud ibn Iysho deb tanitgan yigit kurashga shaylanib, yelkasidagi xaltani yerga qo'ydi. Xaltada og'irroq nimadir borligi bilindi. Shamuil alayhissalom aynan shu xaltaga diqqat bilan qarab qo'ydilar. Dovud raqibini uzoq cho'zmasdan mag'lub qildi, holbuki, kurashga chiqqan odam o'z jamoasining kuchlilaridan edi.

Ismini Roqib deb aytgan yigitning ham qarshisida uning raqibi paydo bo'ldi. U ham kurashchiligi, qilichbozligi bilan nom qozonganlardan edi. Ular bel olishdilar. Olishuv bir necha daqiqaga cho'zildi. Raqibi Roqibning mahoratli ustozdan yaxshi ta'lim olganligini yigitning himoya va hujumiga qarab tezda fahmladi. Roqib olisharkan, qarshisidan tajribali va baquvvat jangchi chiqqanini sezdi.

Raqibi bir qancha hujum uslublarini qo'lladi, Roqib o'zini yetarlicha himoya qildi, muzoribida charchoq alomati paydo bo'lishi hamon hujumni kuchaytirdi va g'olib bo'ldi. Yangi kelgan ikki yigit o'zlarini lashkarga munosib ekanliklarini hammaning ko'z o'ngida isbotladi. Tolut ularni bo'linmalardan biriga biriktirdi.

Yigitlar ketarkan, Shamuil alayhissalom:

- Ey Dovud ibn Iysho, bu yoqqa kel, - dedilar. Dovud kelib, salom berdi. Allohning elchisi so'radilar. - Xaltangdagi nima?

- Toshlar, - dedi Dovud.

- Nega toshni ovora bo'lib ko'tarib yuribsan? - dedilar Shamuil alayhissalom.

- Yo'lda kelarkan mana bu tosh gapirdi, - deb odamning boshidan keladigan bir toshni ko'rsatdi Dovud. - Tosh: "Ey Dovud, men bilan Ibrohim alayhissalom bir zolim mushrikni o'ldirgan, meni ol", dedi. Oldim. Yana bu

ikkitasidan biri Horun alayhissalom, bunisi esa Muso alayhissalom dushmanini men bilan qatl etdi, meni olib ket, dedi. Olib, xaltaga soldim.

- Bu toshlarni qachon ishlatishni bilasanmi? - deb savol berdilar Shamuil alayhissalom.

- Bilmayman, - dedi Dovud.

- Toshlarini qachon ishlatishni senga o'zim aytaman, unga qadar ularni ehtiyot qil, - deb tushuntirdilar Shamuil alayhissalom.

Oradan uch kun o'tdi. Tolut lashkari qo'zg'aldi. Sakson ming kishilik qo'shin suvoriy va piyoda jangchilar aralash holda sahroning ichiga yo'l oldi. Qo'shin chang-to'zon ko'tardi. Bu qadar qudratli qo'shinda birlashmagan Bani Isroil qalbida g'urur jo'sh urdi. O'z salobatiga, hashamatiga mahliyo bo'lgan jangchilar behad mamnun edi. Ba'zilar terisiga sig'maydi. G'alabaga hamma ishonadi, kuchlari bilakdan toshadi, qilichlarning o'zi uchib borib, g'animning yuragiga sanchiladigandek, go'yo. O'zini, bir-birini maqtash qo'shin ichida avj oldi. Yemak yetarli, suv ko'p, tuyalarga mo'l ta'minot yuklanganidan barchaning ko'ngli xotirjam esa-da, Tolut behalovat bo'lib, lashkar katta sinovga duch kelishini ichki his ila sezayotgan edi.

Yetti kun to'xtovsiz yurish ila lashkar sahroning o'rtasiga yetib keldi. Quyosh kutilmaganda qizdirdi, to'rt tomon qum barhanlaridan iborat edi, lashkarning tashnaligi ortdi, suvni har kungi me'yordan ortiq icha boshladilar. O'n kunda charchoq, jazirama va tashnalik changalida qo'shinda asabiylik paydo bo'ldi. Sovutlar, qilich va nayzalar issiqdan qizib, ular ko'tarib yurish malol keladi. Tolut suvni me'yordan ko'p ichishni ta'qiqqladi. Jangchilar suv talashib, janjallashishni odat qildi. Suv o'g'irlyotganlar bir necha bor ushlandi, afv etildi, takrorlangach, Tolut jazo tayinlashga majbur bo'ldi. Nasihat hech kimga ta'sir etmay qo'ydi, ikki marta g'alayon bo'ldi. Uchinchi marta o'n ming kishi suvning hammasini olib, kechasi qochib ketdi. Qochoqlar soqchi bo'linma bilan kelishgani uchun bu voqea tongda ma'lum bo'ldi. Lashkarni parokandalikdan

qutqarishning yo'li qolmadi. Hamma bir-biri bilan olishar, so'kishar, hatto, qilich yalang'ochlaganlar bor edi.

O'n-o'n besh kun avvalgi ko'tarinkilidan asar ham qolmadi. Lashkarning bir qismi qochoqlarni quvib yetishni talab qildi, bir qismi ortga qaytishni so'radi. Tolut o'z atrofidagi o'n ming lashkar himoya choralari ko'rishga majbur edi. Isyonkorlar soni ko'p edi.

Isyonkorlar, aslida, birlashmagan edilar, ular ham o'zaro ixtilof qilib, bo'lak-bo'lak holda sahroning turli taraflariga sochilib ketdi. Tolutning qoshida yana besh ming kishi haq talab qilib qilichini qindan sug'urdi.

- Ey Bani Isroil! - dedi Tolut. - Sizlarga ne bo'ldi? Qulog'ingizga tom bitdimi? Nechun nasihatni eshitmaysiz? Mendan ajrab ketganlarning birortasi najot topmaydi, hammasi sahroda halok bo'ladi. Sizlar itoat qilishingiz shart edi. Tashna bo'lgan birgina sizmisiz? Allohning payg'ambari Shamuil alayhissalomning muborak yuzlari, lablari chanqoqdan yorilib ketdi. Hammamiz quyoshda quritilgan uzum kabi bo'ldik. Suv bo'lmasa, men uni qayerdan olaman?!

Odamlar issiqdan so'zga ham holsiz edi.

- Alloh sharafga, izzatga, o'z rahmatiga loyiq bo'lganlarni ana shunday saralaydi. Sizlar betoqat bo'lmang! - deb so'zida davom etdi Tolut. - O'zingizni besabrlik ila sharmanda qilmang! Ey qo'shinim! Yana uch kun yo'l bosamiz va O'rdun daryosiga yetib olamiz. Bu daryo Allohning sinovidir. U daryo suvini qonib ichishni xayolingizga keltirmang. Bir hovuch, faqat bir hovuch ichsa, mumkin. Aks holda, suvdan to'yib ichganlar lashkardan chiqadi! Ogoh bo'ling! So'zlarimni unutmang!

Podshohning gapi qo'shinda tarqaldi, birov qabul qildi, birov daryoga o'zimni otaman, dedi.

Uch kun o'tib yerda butasimon o'simliklar ko'rindi. Daryo qushlari ko'rindi. Biroz o'tib, daryo hidini olib shabada keldi. Sudralib kelayotgan qo'shin daryoga yugurdi. Tolut tulporiga minib qo'shin ichida: "Daryodan suv

ichmang! Daryodan suv ichmang! Daryodan suv ichmang!" - deb yurdi. O'n besh ming kishi ichida buni bilmagan hech kim qolmadi.

Daryo oldidagi tepalikka Tolut joylashdi, minglab odamlar daryoga o'zlarini tashladilar, odamlar xoxolab kular, cho'milar, suvni simirib ichardilar. Tolutning atrofida mingga yaqin jangchi qoldi. - Sabr, sabr, sabr, - dedi Tolut. Uning yonida Shamuil alayhissalom, Dovud va Roqiblar joy oldilar. Qolgan sodiq kishilar ham sabr ila daryoda suv ichayotganlarga qarab o'tirdilar.

Dastlab, biror hodisa sodir bo'lmadi. Suvdan qonib ichganlar tepadagilarga shodon va g'oliblarcha boqib, chodir o'rnatishga kirishdilar. So'ng, va'da qilingan voqea ro'y berdi: odamlarning bir qismi eslarini yo'qotib, o'z harakatlarini nazorat etolmay qoldilar, boshqa odamlar qorinlarini changallab yiqildi, ba'zilar shu ondayoq o'ldi. Sanoqli soniyalarda daryo bo'yida tik turgan bir kimsa qolmadi.

Tolutning yonidagilar ayanchli manzarani guvohi bo'larkanlar, qo'rquv ichida aytgan so'zlari "La ilaha illalloh" bo'ldi.

- Bugunoq daryodan o'tamiz, - dedi Tolut. Lashkarning bir guruhi sol yasashga, bir guruhi suvning kechuvini aniqlashga, bir qismi yuklarni qayta tartiblashga kirishdi.

- Ey Allohning elchisi, - dedi Tolut. - Bizning qo'shinimiz ming kishiga ham yetmaydi. Jolut daryoning nariga tomonida ikki yuz ming jangchi bilan bizni kutmoqda.

- Ey Tolut, - dedilar Shamuil alayhissalom. - Isroil bolalari Alloh yo'lidagi urushni istadilar. Biroq ularning aksari bu niyatini buzdi. Ular mol-dunyo va obro' uchungina jangga kirishni xohlab qoldi. Hikmat sohibi bo'lgan Robbimiz sening yoningda faqat Alloh uchun qilich ko'targanlarni qoldiradi. Shuni bilki, bunday odamlar Yer yuzining hamma jangchisi kofir bo'lib, ularga qarshi kelsa, dushmanlarining yuragini dahshatga to'ldiradilar. Chunki ularni qudratli va katta qo'shinga urushga boshlagan faqat

Allohning muhabbati va rizosidir. Alloh ularni O'zining ko'rinmas lashkarlari ila doim qo'llaydi.

Tolut Shamuil alayhissalomni diqqat va ixlos ila tinglardi.

- Ey Tolut, shuni bilki, sening qo'shining orasida Jolutni o'ldiradigan bir payg'ambar bor. Seni Alloh aslo yolg'iz qoldirmaydi. Sen tushkun bo'lma. Qalbingga shubhani kiritma. Sening bu jangning shunday jang bo'ladiki, insoniyat xaloskori, Arshning mehmoni bo'ladigan zot, payg'ambarlar sultoni Muhammad sollallohu alayhi va sallamning kofirlarga qilajak ilk urushi xuddi seniki kabi bir qo'shini ila bo'ladi, o'shanda Muhammadning, sollallohu alayhi va sallam, izdoshlari seni va lashkaringni eslaydi, bir ibrat o'laroq zikr etib, senga berilgan nusratdan umid qiladilar. Alloh taolo bizni umidsiz qoldirmaganidek, ularni ham umidsiz qo'ymaydi!

... Shu kuni kechgacha qo'shin daryodan o'tib, vodiya joylashdi va tongni shu yerda ottirdi. Vodiya buloqlar, jilg'alar ko'p edi, hamma chanqog'ini qondirib, Allohga hamd aytdi.

Lashkar uch kun nafas rostlab, yana olg'a yurdi.

Vodiydan chiqdilar va mashriqni bulutdek qoplagan Jolut qo'shinini ko'rdilar. Ikki lashkar ulkan tekislik ustida bo'lib, oralarida ming chaqirim masofa bor edi.

Jolut bu payt mashq bilan band edi. Keksa podshoh bir o'zi eng baquvvat va jangovar jangchisi bilan jang tayyorgarligini o'tkazayotgan edi. Butun qo'shin podshohlarining urushga mohirligidan hayratda edi. Jolut qilichbozlikda, nayzabozlikda chapdast va tezkor bo'lib, yoyandozlikda tengsiz edi. U hamma janglarda jang maydonida bo'lib, lashkarni ruhlantirib keldi. Dushmanlar Jolut ismini eshitsalar, tasavvurlarida, eng avval, yengilmas jangchi paydo bo'lardi. Podshoh ko'p vaqtini mashqlarga sarflaydi. Lashkariga juda g'amxo'r va qattiqqo'l.

Unga Tolut qo'shini daryodan kesib o'tganini aytdilar. Jolut jangni to'xtatdi va maxsus mayoqqa chiqdi. Bir hovuch lashkar chodir tikayotgan edi. U

kulgidan o'zini to'xtata olmay qoldi.

- Ey Saqif G'oba, anavilarni ko'r! - dedi qah-qah otib.

Necha yilki, xizmatkor, qul, a'yonlardan hech kim Jolutning bu qadar kulganini ko'rmagan. Podshohning kulgisidan hadixsirab, o'z dushmanlariga qaradilar. Ular esa juda ko'p qo'shinni ko'rdi. Buni podshohga ayta olmadilar. Chunki Jolut boshqa o'yda edi. U sakson ming kishilik lashkarni kutib, o'ta puxta tayyorlandi. Lashkarning hujumi rejasini tunlari uxlamay tuzdi, suvoriylar hujumi, kamonchilar hujumi, qilichbozlar urushi va pistirma haqida fikrladi, sakson yil taxtda o'tirib, biror urushga bu qadar jiddiy qaramaganini o'zi yaxshi eslaydi. Shayton ham: "Qarshingda Yer yuzidagi eng katta dushmaning turadi", - degan edi. Shu jangni Jolut o'z tarixining eng mashaqqatli jangi bo'lishidan qo'rqib, o'zi ham oxirgi paytlar juda ko'p mashq qildi. Hozir esa uni xavotirga solgan qo'shinning bir hovuchligidan ham kuldi, ham g'azablandi. "Bu ahmoqlarning qarshisiga shuncha qo'shin tortib chiqqanimni qara! Axir, hammasini bir o'zim yengib qo'yaman-ku!" - deb o'yladi.

Tolut qo'shinida norozilik boshlandi. Olti yuzga yaqin odam urushmay taslim bo'lish yoki ortga qochishni istadi. Ulardan bir vakil Tolutning oldiga keldi.

- Ey Tolut, - dedi u. - Biz senga osmondan sandiq tushmasdan avval ergashdik. Sahroda tashna qoldik, lekin ergashdik. Daryoda suv ichma, deding. Ichmadik. Endi esa sendan talabimiz bor.

Tolut unga xotirjam boqib dedi:

- O'zingni sharmanda qiladigan talabni aytma.

- Bu talab, - dedi kelgan vakil. - Eng to'g'ri talab. Oqil odamning talabi.

- Unday bo'lsa, butun lashkar ichida aytasan, - dedi Tolut va qo'shinni saflantirib, ichiga kirdi.

- Ey Bani Isroil qo'shini! - dedi u. - Mana bu odam o'z podshohidan nimadir talab qilishni istayotgan ekan. Men unga sharmandali narsani talab qilma, dedim. U menga talabi eng to'g'ri talabligini aytdi. Men esa undan butun lashkar ichida talabingni bayon et, dedim. Mana u! Gapir, balki sen kabi talabi bor boshqalar ham jim o'tirgandir, sen orqali dardlarini bayon qilishar! So'zla!

Talabgor aksari horg'in va umidsiz turgan lashkarga qarab oldi-da, baland ovozda gap boshladi:

- Ey Tolut! Seni Alloh tanlagan podshoh ekanligingga hammadan avval ishondik. Sahroda tashna bo'lsak-da, yoningda qoldik. Daryodan suv ichmadik. Ya'ni, hamisha sening itoatingda bo'ldik. To'g'rimi?

- To'g'ri, - dedi Tolut uning gapini tasdiqlab. - Menga bo'ysunib, zarar ko'rdingmi? Shikast yedingmi?

- Yo'q, men zarar ko'rmadik, shikast yemadik, omon qoldik. Shu paytga qadar sening aytganing bo'ldi, endi bizning aytganimizni qil!

- Sen nimani istayapsan? - so'radi Tolut.

Talabgor nafas rostlab olib, maqsadini aytdi:

- Biz Jolutga qarshi urusha olmaymiz, toqatimiz yetmaydi. Bizni ortga olib, qayt!

Jimlik cho'kdi. Tolut talabgorga qattiq tikildi va qo'shinga o'girildi:

- Shu narsani xohlayotganlar lashkardan chiqsin va mana bu tomonga saflaning!

Bir necha daqiqada qo'shinning uchdan ikki qismi urushni istamasligini bildirib, safdan chiqdi.

Tolut Shamuil alayhissalomga qaradi. Shamuil alayhissalom tuyasini niqtab, o'rtaga chiqdilar va Allohga munosib maqtoovni aytganlaridan so'ng, so'z boshladilar:

- Ey Bani Isroil! Siz Jolut bilan Alloh yo'lida urushamiz, bizga bir podshoh tayinla, dedingiz. Men sizlarga, balki urushni istamay qolarsiz, dedim. Siz esa oyoq tirab turib oldingiz. Alloh Tolutni podshoh qilib tanladi, siz esa rad etdingiz. Alloh osmondan bir dalil tushirgach, Tolutga bo'ysundingiz. Qo'shinga kirdingiz. Ko'pchiligingiz sahroda tashnalikka dosh bermay isyon etdingiz. Qolganingiz ogohlantirishga qaramadingiz. Daryodan suv ichib, o'ldingiz. Endi esa Jolutning qarshisida qo'rquvdan esingizni yo'qotib, ortga qochamiz, deysiz. Sizning Alloh uchun deb talab qilganingiz urush shumi? Yo sizlar Alloh yo'lida shunday urushasizlarmi? Va'da va ahdingizda naqadar yolg'onchisiz! Allohga iymon keltirdim, deysiz, ammo Uning muhabbatini qozonmoq haqida uylamaysiz!

Shamuil alayhissalomning ovozlari chaqmoqday bo'lib quloqlarga yetib borardi.

- Agar foyda topsangiz, Alloh yo'lidan yurasiz. Foyda ko'rmasangiz, teskari burilasiz. Joningiz omon qolsa, biror xatar bo'lmasa, xavfdan xoli bo'lsangiz, Alloh yo'lidaman, deb ko'krak kerasiz, joningizga xatar yetishi bilan ahdingizni unutib, ortga burilib qochasiz. Qarshingizda bir payg'ambar turibdi, xizmatigingizda Alloh tanlagan podshoh turibdi, lekin siz qo'rqqoqlarcha qochasiz? Robbingizga yuzlashmoq haqida o'ylamaysizmi? Modomiki, bunday sinovlarga dosh bermas ekansiz, nima uchun da'vo bayrog'ini ko'tardingiz? Nima uchun urush qilaman, dedingiz? Haddingizni bilib gapirsangiz, bo'lmaydimi? Yo'q, siz haddingizni bilmaysiz! Siz va'daboz va sergapsiz. Hammangiz jang maydonidan yo'qoling. Oxirgi nuqtada niyatingiz buzildi, oxirgi pallada qalbingizdagi maraz o'zini fosh qildi, endi sizga bu maydonda o'rin yo'q! Keting!

Ortga qaytishni istaganlar titrashdi. Ular gumon va iymon orasida edilar. Qaysi ishning haqligini hamon bilmas edilar. Biroq hukm o'qildi, maydonda qolish imkonsiz edi. Rad etilganlar maydondan boshlarini egib chiqib ketdilar. Ularning oxirgisi chiqqach, Shamuil alayhissalom qolganlarga yuzlarini qaratdilar.

O'n to'rtinchi bob

- Ketadiganlar, ketdi, - dedilar Shamuil alayhissalom. - Sizlar nima deysiz?

Lashkar ichidagi Roqib oldinga chiqdi.

- Ey Allohning elchisi! O'tmishda ham Allohga iymon keltirganlar va kufr ahli o'rtasida ko'p janglar bo'ldi, - dedi Roqib. - Alloh O'z izni va marhamati ila, O'z xohishi va irodasi ila katta qo'shinlar ustidan kichik qo'shinlarga nusrat va g'alaba bergan! Bizni yo'lga boshlang! Biz boshimizni Robbimiz qoshida yerga qo'yamiz: "Yo Robbimiz, ustimizdan sabr yomg'irini yog'dir, qadamlarimizni sobit qil va kofirlar ustidan bizga nusrat hamda g'alaba ber!" - deya yolvoramiz. Aminmizki, Alloh O'ziga iymon keltirib, taslim bo'lgan qullarini yordamsiz tashlab qo'ymayajak!

Shamuil alayhissalom mamnun bo'ldilar va dedilar:

- Yana bir marta amin bo'ling, Sizlarga Allohning nusrati keladi. Robbimiz bizni tashlab qo'ymaydi! Ey Allohning lashkari! Allohdan sabr, sobitlik va nusrat so'rang!

Lashkar tiz cho'kdi, aytilganidek, duo qildi. Hammaning ruhi tetiklashdi. Charchoq ko'tarildi. Qo'rquvdan asar ham qolmadi. Jangchilar buyuk ish qarshisida ekanliklarini ochiq-oydin bildilar.

Shamuil alayhissalom Dovud ibn Iyshoni topib:

- Ey Dovud, - dedilar. - Yo'ldan topgan toshlaring qayerda?

Dovud alayhissalom yelkalaridan xaltani darhol tushirib, ichini ochib, toshlarni ko'rsatdilar.

- Ey Dovud, bil, - dedilar Shamuil alayhissalom. - Shu toshlar bilan Jolutni sen qatl etajaksan. Jolutga qarshi kim yakkama-yakka urushga chiqadi, deb so'ralsa, ikkilanma va urushga chiq!

... Tolut qo'shini ertasi kun tongda Jolut qo'shini qarshisida saf tortdi. Saf yuz kishidan uch qator edi. Birinchi yuz kishiga Tolut, ikkinchi yuz kishiga Dovud alayhissalom, uchinchi yuz kishiga Roqib rahbar edi. Tolutning ortidagi jangchilar jami uch yuz o'n kishi edi. Ro'parada esa ikki yuz ming kishilik lashkar turar, Jolut o'zining baland qilib o'rnatgan taxtida sharob ichib o'tirardi.

"Ikki yuz ming odamim bir vaqtda o'q otsa ham, bulardan bir kishi omon qolmaydi, - deb o'yladi Jolut. - Qaysi aql bilan Shamuil va Tolut mening lashkarim qarshisida saf tizdi? Bu qanday haqorat!"

Jolut bu ishi uchun Tolutni qanday jazolash haqidagina xayol qildi. U bir narsadan g'ofil edi. U o'z lashkari ko'rib turgan narsani ko'rmadi. Alloh Tolut qo'shinini Jolutdan boshqa hammaga benihoya ko'p va ulkan qilib ko'rsatdi, Jolut esa uch yuz kishini o'ttiz kishi, deb ham hisoblamadi.

O'rnidan turib, taxtdan tushdi, otini keltirishdi, minarkan, dedi:

- Ey qo'shinim! Bilingki, bir o'zim anavi ahmoqlarni yengaman!

Shu ondayoq Saqif G'oba tiz cho'kib, yer o'pdi:

- Podshohim, izn bering, biz hujum qilaylik! Ular qilichingizni qindan chiqarishingizga-da, arzimaydi.

Jolut G'obaga qarab turdi-da:

- Kut! - dedi. Maydonga ot choptirib kirib, Tolut qo'shiniga baqirdi:

- Ey ahmoqlar qo'shini! Qaysi biring men bilan yakkama-yakka jang qila olasan?

Shamuil alayhissalom darhol Tolutga dedilar:

- U sening qo'lingda o'lmaydi. Lashkarga Jolut o'ldirgan odamga qizingni berib, o'zingga voris deb e'lon qilishingni ayt!

Tolut ot o'ynatib lashkariga yuzlandi:

- Ey jangchilar! Kim shu kofirni o'ldirsa, yakkayu yagona qizimni unga berib, o'zimdanda so'ng taxtni qoldiraman. Chiqing!

Qo'shından Dovud alayhissalom chiqib:

- Jolutni Allohning izni ila men o'ldiraman! - dedilar.

- U holda, bor! - dedi Tolut. Dovud alayhissalom xaltasidan bir dona toshni sapqonga joylab, Jolutga qarab piyoda yugurdilar. Jolut o'ziga yugurib kelayotgan yoshgina jangchini ko'rib, yanada g'azablandi. Nayzasining uchini unga mo'ljallab, ot soldi. Ikki tomon nafasini yutib qarab turardi. Deyarli hamma Jolut nayzasi yosh jangchini o'ldirishini taxmin qildi. Lekin kutilmaganda Dovud alayhissalom otgan mushtday tosh Jolutning o'ng yelkasiga tegib, uni otdan uchirib yubordi. Jolut o'zini yerda yotganini ko'rib, bo'kirda va otilib o'rnidan turdi.

O'ng yelkasidagi og'riqqa qaramay yerdagi nayzasin olib, Dovud alayhissalomga otish uchun tashlandi. Biroq yana bir mushtday tosh uning chap yelkasiga tegib, suyagini sindirdi. Jolut ixrab, tiz cho'kib qoldi va nayzasiga suyandi. Dovud alayhissalom endi naq kalladay keladigan toshni sapqonga joyladi. Bu tosh Jolutning qoq peshonasiga borib tegdi va shayton joylashib olgan boshni tarvuzday yorib, majaqlab yubordi. Qonga belangan Jolut yuztuban yerga yiqildi.

- Allohu akbar! Allohu akbar! Allohu akbar!

Tolut lashkarining takbir aytgan ovozi jang maydonini qo'porib yubordi, go'yo. Maydondagi har bir zarra tuproq, qum va chang ham "Allohu akbar!" deb takbir aytayotgandek edi. Jolut lashkari qo'rquvdan ortga qarab qochdi. It egasini, mushuk bekasini tanimay qoldi. Hamma qiy-chuv ko'tarardi. Biroq Saqif G'oba aqlini yo'qotmadi. Biroz hayajonlansa-da, o'zini bosib, qo'l ostidagi shaxsiy ming kishilik bo'linmasi bilan Tolut tomon yurdi.

Tolut Roqibga buyurdi:

- Hujumga o't va Alloh nomi ila uni yanchib tashla!

Roqib o'z lashkari bilan Saqif G'oba ustiga o'qdek otildi. G'obaning lashqari o'zlariga kelayotgan qo'shinni ko'rib, esdan og'ib qolgudek bo'lib, ortga qocha boshladi. Jangda yolg'iz Saqif G'oba qolib ketdi. Ana shu onda G'oba qo'rqdi. Biroq qarshisida unga qilich o'qtalib kelayotgan yosh jangchini tanigandek bo'ldi va eslab:

- Sen Muassarning avlodimisan? - deb baqirdi. Roqib bir zarb ila G'obaning qo'lini uzdi. Ikkinchi zarb zolimning oyog'ini "cho'rt" kesib tashladi. G'oba gapirishga holi qolmay qoniga belanib yiqilarkan, tepasida shayton paydo bo'ldi:

- O'rningdan tur! Yiqilma, - dedi.

Uning ovozi G'obaga kuch bergandek bo'ldi. Bir amallab boshini ko'targan edi, Roqibning qilichi uni chopdi. Mustabidning kallasi yerga dumalab, tuproqqa qorildi.

Boshidan ayrilgan G'oba uni dahshatli odamlar olovga sudrashayotganini his etib, dodladi. Shunda u qochib ketayotgan shaytonni ko'rib qoldi.

- Hoy, menga yordam ber! Meni qutqar! Meni shu yo'lga sen boshlading! - dedi. Shayton esa unga zaharxanda qarab:

- Seni hech narsa majburlamadim! Hammasini o'zing qilding, jahannamda kuyib kul bo'!! - deb ko'zdan g'oyib bo'ldi.

... Roqib cho'chqaxonani topib bordi. Onasini shu yerda deyishgan edi. Haqiqatan, Ashia shu yerda ekan. Roqib cho'chqaxona yonidagi bir uyda yotgan onasining oldiga kirdi. Ashia kasal edi.

- Ona, ona, keldim, - dedi Roqib.

- Bolam? - Ashianing yumuq ko'zlar "yarq" etib ochildi. - Keldingmi, bolajonim? Keldingmi?.. Robbimga cheksiz hamdlar bo'lsin! Iymon

keltirgan bandalarini aziz etgan, ularga marhamat ko'rsatgan Allohimga
hamdlar bo'lsin!..

Ashia o'tirgan bu xona jannatdan bir nur tushgandek yorug', jannat rayhoni
ifori sepilgandek xushbo'y edi.

X o t i m a

Alloh taolo Baqara surasining 246 - 252-oyatlarida shunday xabar bergan:

"Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam, Siz Bani Isroildan bo'lgan, Musodan keyingi bir jamoatning holi - xabarini bilmadingizmi? Ular o'zlarining payg'ambarlariga: "Biz uchun bir podshoh tayinlagin, biz u bilan birga Allohning yo'lida jang qilaylik", - deyishdi.

"Agar sizlarga urush farz qilinsa, ehtimol, urushmassiz", - dedi payg'ambar.

Ular aytdilar:

"Diyorimizdan haydalib, bolalarimizdan ajralib turibmiz-ku, nega Alloh yo'lida urushmas ekanmiz?"

Endi ularga urush farz qilinganda oz kishidan boshqa hammalari urushdan bosh tortdilar. Alloh o'z ahdu paymonidan qaytib, o'zlariga zulm qilguvchilarni Bilguvchidir.

Payg'ambarlari ularga aytdi:

"Albatta, Alloh sizlarga Tolutni podshoh qilib tayinladi".

Ular:

"U qayoqdan bizga podshohlik qilsin, axir, biz podshohlikka undan ko'ra haqliroqmiz. Qolavesa, unga katta mol-davlat berilmagan-ku!" - dedilar.

Payg'ambar aytdi:

"Albatta, Alloh uni sizlarning ustingizdan podshoh qilib tanladi. Va unga ilmida va jismda quvvatni ziyoda qildi.

Alloh podshohlikni O'zi istagan kishiga beradi".

Alloh fazlu karami keng, Bilguvchidir.

Payg'ambarlari ularga aytdi:

"Uning podshoh bo'lib saylanganligining alomati sizlarga bir sandiq kelishidirki, unda Robbingiz tomonidan xotirjamlik, Muso va Horun oilalaridan qolgan meros jo qilingan. Uni farishtalar ko'tarib turadilar. Agar chindan iymon egalari bo'lsangiz, bu voqeada sizlar uchun oyat - alomatlar bordir.

Tolut askarlari bilan chiqqach, aytdi:

"Albatta, Alloh, sizlarni bir daryo bilan sinaydi. Kim undan ichsa, mening lashkarimdan emas, kim undan ichmasa, u mendandir. Faqat qo'li bilan bir hovuch olsa, mumkindir".

U daryodan oz kishilardan boshqa hamma suv ichdi. Tolut iymon keltirgan kishilar bilan birga daryodan o'tgach, askarlar:

"Endi bu kun Jolut va uning lashkarlariga kuchimiz yetmaydi", - dedilar.

Allohga ro'baro' bo'lishlariga ishonadigan zotlar:

"Qanchadan qancha kichkina guruhlar Allohning izni bilan katta guruhlar ustidan g'alaba qilgan. Alloh sabr qilguvchilar bilan birgadir", - dedilar.

Ular Jolut va unga ko'ringanlarida aytdilar:

"Robbimiz, ustimizdan sabr-toqat yog'dirgin, qadamlarimizni sobit qil va O'zing bizni bu kofir qavm ustiga g'olib qil!"

Allohning izni bilan ularni yengdilar. Va Tolutning askarlaridan bo'lgan Dovud Jolutni o'ldirdi. Alloh Dovudga podshohlik va payg'ambarlikni ato qildi hamda unga O'zi xohlagan narsalaridan ta'lim berdi.

Agar Alloh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf qilib turmasa, shubhasiz, Yer yuzi fasodga uchraydi. Lekin Alloh barcha olamlar ustidan fazlu karam Sohigidir!"

(Ushbu oyatlarning ma'no tarjimasi shayx Alouddin Mansurning Toshkentda 2019 yil nashr etilgan "Qur'oni azim muxtasar tafsiri"dan olindi.)

SHUKRONA SO'ZI

Abdulla Qodiriy bundan yuz yil avval yangi zamon uchun yangi qissalar aytishga o'zida majburiyat sezishini "O'tkan kunlar"ning so'zboshisida yozgan. Bu majburiyat o'z burchini anglagan har bir adibga xosdir.

Yangi zamonga zamon voqealari bilan emas, o'tmish voqealari ila gapirish ham mumkin. Buyuk yozuvchimiz ham, shu sababli, o'z ro'moni uchun mavzuni "o'tmishning kirli va qorong'u kunlari"dan tanlagan bo'lsa, ajab emas.

Xudodan ajralgan adabiyot o'limga mahkumdir. Adabiyotning o'limi - uning o'qilmay qolishidir. Bizda o'zbek adiblari XX asrda nima uchun jahon miqyosida tanilmagani haqida o'ylaydiganlar bor. Javobi oddiy: dahriy tuzum ularni xudodan ajratdi. Ular yozgan asarlarda xudo yo'q edi va bu asarlarni istibdod ichidagi xalqimizgina majburan o'qidi. Erkin xalqlar esa mutlaqo qiziqmadi. Qiziqmaydi ham, albatta.

Jahonning barcha mumtoz asarlari ilohiyat va odam masalasini yoritgan. Masalan, Dante, Shekspir, Gyote, Tolstoy, Dostoyevskiy, Markes va hokazo. Sovet tuzumi iymon-e'tiqodni ta'qiqlagani uchun ongi bichilgan adabiyot bu haqda his etish tugul, o'ylashga qodir emas edi.

Bugun mohiyatga qaytish fursati keldi. Millat o'zligini tanishga intilarkan, albatta, Xudoni tanishga majbur. Kaminaning "Jangchi" qissasi shu yo'lda bir tajribadir.

Bu qissa Allohdan yordam so'ragan holda yozildi. Uning kitobxonga yetib borgani muallif uchun buyuk ne'matdir.

Allohim, ushbu qissani hammamizga har tomondan manfaatli et!

So'zlarimizni go'zal etganing kabi niyat va o'ylarimizni, amal va ishlarimizni
go'zal va O'zingga maqbul ayla!

Akrom Malik,

Toshkent, 2020.